

MAQOL VA IDIOMALAR TARJIMASI MUAMMOLARI

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida bajarilgan A-1-180 – “Tarjima va madaniyatlararo muloqot masalalariga oid o’quv qo’llanmalari yaratish” ilmiy loyihasi doirasida tayyorlangan ushbu tadqiqotning asosiy natijalari va xulosalari “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo’nalishi talaba- lari va “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (tillar bo’yida)” mutaxassisligida tahsil olayotgan magistrantlar uchun foydali bo’ladi.

Badiiy tarjimada maqol va idiomalarning berilishi bilan bog’liq muammolar imkon doirasida ko’rib chiqilgan mazkur tadqiqotdan nafaqat o’zbek tilidan turk va rus tillariga va aksindha badiiy tarjimalar, balki boshqa tillar orasida amalga oshirilgan tarjimalar ustida tadqiqotlar olib borayotgan yosh mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.



Xayrulla Xudoyorovich Hamidov – Filologiya fanlari doktori, Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti professori, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. 1963-yil 1-mayda Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanida tug’ilgan. Ma’lumoti – oliy, mutaxassisligi – rus filologi, turk tili bilimiga ega tilshunos, tarjimashunos.



Globe
EDIT

MAQOL VA IDIOMALAR TARJIMASI MUAMMOLARI

XAYRULLA HAMIDOV

Globe
EDIT



XAYRULLA HAMIDOV

MAQOL VA IDIOMALAR TARJIMASI MUAMMOLARI

Monografiya

XAYRULLA HAMIDOV

MAQOL VA IDIOMALAR TARJIMASI MUAMMOLARI

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

XAYRULLA HAMIDOV

MAQOL VA IDIOMALAR TARJIMASI MUAMMOLARI

Monografiya

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom

Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe

Managing Directors: Ieva Konstantinova, Victoria Ursu

info@omniscryptum.com

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-9-14505-6

Copyright © XAYRULLA HAMIDOV

Copyright © 2025 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum

S.R.L publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

XAYRULLA HAMIDOV

**MAQOL VA IDIOMALAR
TARJIMASI
MUAMMOLARI**

FOR AUTHOR USE ONLY

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida bajarilayotgan A-1-180 – “Tarjima va madaniyatlararo muloqot masalalariga oid o‘quv qo‘llanmalari yaratish” ilmiy loyihasi doirasida tayyorlangan ushbu tadqiqotning asosiy natijalari va xulosalari “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo‘nalishi talabalari va “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (tillar bo‘yicha)” mutaxassisligida tahsil olayotgan magistrantlar uchun foydali bo‘ladi.

Badiiy tarjimada maqol va idiomalarning berilishi bilan bog‘liq muammolar imkon doirasida ko‘rib chiqilgan mazkur tadqiqotdan nafaqat o‘zbek tilidan turk va rus tillariga va aksincha badiiy tarjimalar, balki boshqa tillar orasida amalga oshirilgan tarjimalar ustida tadqiqotlar olib borayotgan yosh mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

filologiya fanlari doktori, professor Sh.Usmanova

Taqrizchilar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent Gulchehra Rixsiyeva
filologiya fanlari nomzodi Ergash Ochilov

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashining 2017-yil
25-avgustdagi 1-sonli qarori bilan
nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Tarjima – asliyatga olib boruvchi yo‘ldir¹. Ustoz G‘.Salomov ta’biri bilan aytganda “Tarjimoni mevali daraxt niholiga qiyos qilsa bo‘ladi. Chunonchi, bir zaminda o‘‘sib turgan nihol boshqa yerga o‘‘tqazilganda ko‘karib, meva beradi”. Darhaqiqat, millatlar orasida bevosita madaniy va ma‘naviy aloqa quroli bo‘lgan badiiy tarjima vositasida dunyo xalqlarining ma‘naviy boyliklari, insonlarning ko‘p asrlik ezgu umidlari, orzu-armonlari, g‘oya va qarashlari mujassam asarlar o‘zga til sohibi bo‘lgan xalqlarga yetkaziladi. Dunyo adabiyoti namunalarining madaniy hayotimizga kirib kelishi va xalqlarning ma‘naviy jihatdan yaqinlashishida badiiy tarjimaning o‘rni beqiyosdir.

Xalqlar orasidagi madaniyat ko‘prigi hisoblangan badiiy tarjimaning san‘at darajasiga yuksalishida tarjimonning iste’dodi va tarjimaning saviyasi muhim o‘rin tutadi. Tarjimonning asl nusxani boshqa tilda qayta yaratishdagi mahorati ijodning bunday turida asosiy omildir. Tarjimon mahorati qirralarining tadqiq etilishi esa asar tarjimasining sifatini baholashga imkon beradi. Bundan tashqari, tarjimalarning badiiy qimmati unda asliyatning qay darajada aks etganligi, aniqrog‘i, asarning qanchalik adekvat qayta yaratilganligi bilan o‘lchanadi.

Tarjima har doim adabiyot bilan uzviy bog‘liqlikda taraqqiy etib kelgan. Badiiy tarjima vositasida dunyo adabiyoti namunalarining xalqlar madaniy hayotiga kirib kelishi bir xalqning boshqa bir xalq hayoti, urf-odatlari bilan yaqindan tanishishiga ko‘mak bergan.

Bugunga qadar xorijiy tillardan o‘zbek tiliga va, aksincha, tarjimalarda frazeologizmlarning berilishi mavzusida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, monografiyalar va ilmiy maqolalarda bu haqda qimmatli fikrlar berilgan. O‘zbek tarjimashunosligining asoschisi sifatida e’tirof etilgan ustoz G‘aybullay Salomovning bundan yarim asr ilgari chop ettirgan va bugungacha o‘zining ilmiy qimmatini yo‘qotmagan, o‘zbek tarjimashunoslari uchun qimmatli ilmiy manba bo‘lib kelayotgan “Til va tarjima” hamda “Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir” nomli monografiyalari o‘zbek tilidan rus va boshqa tillarga hamda aksincha tarjimalarda frazeologizm-

¹ Usmonova Sh., Hamidov H., Tarjima – asliyatga olib boruvchi yo‘ldir (So‘zboshi o‘rnida). “Bu qadimiy san‘at” tarjima maktabi talabalari almanaxi -3. – T.: ТошДШИ, 2016. 3-5 betlar.

larning berilishi masalalariga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar hisoblanadi. Ana shu noyob ilmiy asarlar asos sifatida olinib yozilgan mazkur kitobda turkchadan o‘zbekchaga, o‘zbekchadan turkcha va ruschaga o‘girilgan badiiy asarlarda maqol, matal va idiomalarning berilishi bilan bog‘liq bir qator dolzarb masalalar ko‘rib chiqiladi.

“Tilning asl qaymog‘i, uning o‘ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini ko‘rsatadigan, boshqa tillar orasida tutgan o‘rnini tayinlashda muhim omil bo‘lgan narsa – undagi maqol, matal, idioma va boshqa shu kabi ko‘chma ma’noli birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning g‘oyat murakkab va muhim ekanligi bu masalani badiiy tarjima nazariyasining asosiy muammolari qatoriga kiritishga sabab bo‘lmoqda”² – deb yozgan edi G‘.Salomov o‘zining mashhur asarida.

Chunonchi, Mustaqillik yillarida sharq adabiyotining o‘nlab nodir namunalari o‘zbek tiliga, o‘zbek adabiyotining sara asarlari esa xorijiy tillarga o‘girildi. Dunyo adabiyotining madaniy hayotimizga kirib kelishi natijasida badiiy tarjima sohasi rivojlanish bosqichiga o‘tdi.

Turk tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimalar xususida shuni aytish mumkinki, so‘nggi yillarda turk adabiyotining o‘nlab namunasi ona tilimizga o‘girildi. Ana shu davrda Turkiyada ham o‘zbek adabiyotiga qiziqish kuchaydi. Qisqa davr ichida o‘zbek adabiyotining eng sara namunalari turk tiliga o‘girilib kitobxonlarga armug‘on etildi. Jumladan, taniqli o‘zbek adibi A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Oybekning “Navoiy” romanlari, A.Qahhor hikoyalari, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar”, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini”, “Ko‘hna dunyo” romanlari, “Adolat manzili” qissasi va hikoyalari, Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” asari, S.Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi va o‘nlab hikoyalari, X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissalari, shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiyoti vakillaridan Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam va boshqa yozuvchilarning eng sara asarlari turk tiliga o‘girilib, Turkiyadagi o‘zbek adabiyoti ixlosmandlariga tortiq qilindi.

Mazkur tadqiqotda yuqorida sanab o‘tilgan asarlardan ayrimlari, shuningdek, o‘zbek tilidan rus tiliga qilingan tarjimalarda ijodkorlar erishgan yutuqlar va ayrim kamchiliklar haqida ham so‘z boradi.

² Саломов Г., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 18-б.

Soʻz yuritilayotgan sohada erishilgan yutuqlar talaygina, biroq nashr etilgan tarjimalardagi kamchilik va nuqsonlarga kelinsa, ularning ayrimlarida badiiy tarjimaga jiddiy ijod deb emas, zarurat deb qaralgani ayon boʻladi. Masalan, soʻnggi yillarda turkchadan badiiy asarlarni oʻzbek tiliga tarjima qilish ishlari yanada jadallashdi. Bunda oʻzbek tarjimonlarining hissasi katta. Biroq, oʻzbek adabiyoti namunalari turk tiliga tarjimasida bunday deyish qiyin. Chunki ayrim tarjimonlar kitobxonlarni oʻzbek yozuvchilarining asarlari bilan tanishtirishni asosiy maqsad qilib, tarjimalarning sifati, badiiy saviyasi, xususan, milliylikni tarjimada saqlanishi masalasini keyingi oʻringa qoʻygan koʻrinadilar. Turk tarjimonlarining asliyat tilidagi soʻzlarning maʼno nozikliklari, oʻzbek xalqining madaniyati, milliy oʻziga xosliklari, urf-odatlarini chuqur bilmasliklari buning asosiy sababidir. Bu toʻgʻrida tadqiqotchilar oʻz fikrlarini bayon etishgan va bu borada ilmiy munozaralar hanuz davom etmoqda.

Oʻzbek tilidan turk va rus tillariga, turk tilidan oʻzbek tiliga qilingan tarjimalar tahlilga tortilgan ushbu tadqiqotda keltirilgan misollar kitobxonlarga yaxshi tanish boʻlgan badiiy asarlardan olindi. Asarlardagi maqol, matal va iboralar Oʻzbekistonda³, Rossiyada⁴ va Turkiyada⁵ chop etilgan maqol va iboralar toʻplamlari, izohli, ikki tilli va ensiklopedik lugʻatlardan⁶ olib qiyoslandi.

Maqol, matal va idiomalar tarjimasida sohasida dunyo miqyosida, jumladan, oʻzbek tarjimashunosligida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgani maʼlum. Shunga qaramay, fan taraqqiy etgan sayin bunday birliklarning yangi qirralari, kelib chiqish manbalari, yuzaga kelish yoʻllari, leksik-grammatik va lingvomadaniy xususiyatlari bilan bogʻliq

³ Özbek-Türk Atasözleri ve Deyimleri Sözlüğü, Doç. Dr. İbrahim Yoldaşev, Tuncay Öztürk, Yursel Öztürk. –T., 1998; Турк тилидан амалий машгулотлар учун матнлар, тузувчи: Х. Ҳамидов. –Т., 2007.

⁴ Пермяков Г.Л., Пословицы и поговорки народов Востока, Москва, 1979; Фразеологический словарь русского языка, под ред. Молотова А.И., Издательство «Энциклопедия», Москва, 1968.

⁵ Adıgüzel, Hüseyin, Deyim Hazinemiz, Açıklamalı - Örnekli Türkçe Deyimler Sözlüğü, İstanbul, 1990; Aksoy O.A., Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, I-III, TDK Yayınları, Ankara, 1984; Aksoy O.A., Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, II. Deyimler Sözlüğü, İstanbul, İnkilap Yayınevi, 1994.

⁶ Albayrak, N., Ansiklopedik Halk Edebiyatı Terimleri Sözlüğü, LM Yayınları, İstanbul, 2004; Büyük Türkçe-Rusça Sözlük, Moskva, 1977; İstanbul, 1995;

muammolarni o'rganish, birliklarning tarjimasi masalalarini tadqiq etish zarurati sohada ancha ish qilish kerakligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot 4 bobdan iborat bo'lib, uning **“Maqol, matal va idiomalar tarjimasining dolzarb muammolari”** deb nomlangan I bobi 4 qismdan tashkil topgan. “Maqol, matal va idiomalarning tillardagi talqini va tarjima xususiyatlari” deb nomlangan 1-qismida maqol, matal va idiomalarga qisqacha ta'rif berilib, ularning tarjima xususiyatlari ustida fikr yuritiladi. Shuningdek, badiiy asarlarda uchraydigan maqol va turli frazeologik birliklar sinchiklab o'rganilib, tahlillar asosida birliklarning tarjimada qanday berilganligi, ijodkorlar erishgan yutuqlar va yo'l qo'ygan kamchiliklari haqida mulohazalar bildiriladi.

“Maqol va iboralar obrazli asosining tarjimada saqlanishi” deb nomlangan 2-qism frazeologik birliklar obrazli asosining nima ekanligi, o'zaro yaqin va uzoq tillar orasida tarjimini amalga oshirishda obrazli asosning qay darajada saqlanishi mumkinligi bilan bog'liq masalalarni yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda ekvivalentlik, adekvatlik va muqobilik xususida ham so'z yuritiladi.

Bobning “Maqol, matal va iboralar eskiradimi?” deb nomlangan qismida inson badiiy tafakkurining mahsuli, ming yillardan buyon qo'llanib kelayotgan frazeologik birliklarning bebaho ma'naviy boylik, qadriyat ekanligi, shunga qaramay, zamonaning o'ta tez suratlar bilan o'zgarib, taraqqiy etib borishi hozirgi avlod vakillari nutqida bunday “eskirmas” birliklarning qo'llanish doirasi qisqarib borayotgani, hatto, ba'zi maqol va iboralar faqatgina badiiy adabiyotda uchrab qolayotgani, buning asosiy sababi esa frazeologik birliklar obrazli asosining eskirganligi bo'lishi mumkinligi, buning oldi olinishi, ularning hamisha barhayot bo'lishini ta'minlash uchun nafaqat maqol, matal va iboralar lug'atlariga, balki tilning asosiy izohli lug'atiga kiritilishi, shu bilan birga, yaratilayotgan badiiy asarlarda, badiiy filmlarda keng qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratish kerakligi ta'kidlanadi.

“Badiiy saviya – tarjima mezon” deb nomlangan qismda o'zbek tiliga qilingan yangi tarjimalarning saviyasi xususida so'z yuritiladi. Unda so'nggi yillarda R.N.Guntekinning turk adabiyoti mumtoz namunalariga sirasiga kirgan, o'zbek ijodkorlari Boboxon Sharif va Miraziz A'zam tomonidan o'zbekchalashtirilib, nashr etilgan “To'kilgan yaproqlar”, “Xotin dushmani”, “Muhabbat Simfoniyasi” romanlari qisman tahlilga tortiladi.

Tadqiqotning **“Turli mavzudagi maqol, matal va idiomalarni turkchadan o‘zbekchaga o‘g‘irish masalalari”** deb nomlangan II bobi 5 qismdan iborat bo‘lib, uning “Atoqli otlarga asoslangan maqol va iboralar tarjimasida” deb nomlangan qismida o‘zbek va turk tillaridagi atoqli otlar (muqaddas nomlar, inson ismlari va joy nomlari) asosida yuzaga kelgan turkcha maqol, matal va idiomalarning ma’no xususiyatlari, yuzaga kelish yo‘llari, sabablari hamda ularning tarjimada aks ettirilishi masalalari ko‘rib chiqiladi.

“Hayvon nomlariga asoslangan turkcha maqol va idiomalar tarjimasiga doir” deb nomlangan qismda turkiy tillarda hayvon nomlariga asoslangan frazeologik birliklarning katta miqdorni tashkil etishi, ularning asosan uy hayvonlarining nomlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelganligi, birliklarning ma’no xususiyatlari, yuzaga kelish yo‘llari va sabablari, ularning tarjimada aks ettirilishi masalasi ko‘rib chiqiladi. Bobning “Ona va farzand mavzusidagi turkcha maqol va idiomalarning tarjimada berilishi” deb nomlangan qismida o‘zbek va turk tillarida keng qo‘llanishda bo‘lgan jamiyat, oila munosabatlari, ota-onaning farzand tarbiyasidagi o‘rni, xususan, ona va farzand sog‘ligi haqidagi maqol, idiomalarning lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganiladi.

“Tarjimada tilak, duo va qarq‘ishlarni berish vositalari” qismi badiiy asarda milliylikni belgilovchi omillardan sanalgan tilak, duo va qarq‘ishlarning tarjimada berilishi masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ushbu birliklar frazeologizmlar bilan bog‘langan holda ko‘rib chiqiladi. Unda O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi va uning turkcha tarjimasidan olingan ayrim gaplar amaliy material sifatida tahlilga tortiladi. “O‘zbek va turk tillarida “qil” so‘ziga asoslangan iboralarining tarjimasida” nomli qismda o‘zbek va turk tillarida “qil” (“kıl”) so‘zi va unga ma’nodosh bo‘lgan so‘zlar asosida yuzaga kelgan bir necha ibora ko‘rib chiqilib, ularni bir tildan boshqasiga o‘g‘irish masalasi muhokama qilinadi, ushbu so‘zga asoslangan ayrim frazeologik birliklar rus tilidagi muqobillari bilan ham qiyoslanadi.

“O‘zbekcha badiiy asarlardagi maqol va frazeologizmlarning turkcha va ruscha tarjimalarda berilishi” deb nomlangan III bob 3 qismdan iborat bo‘lib, unda asosiy e’tibor o‘zbekcha badiiy asarlardagi maqol va iboralarining turk va rus tillariga qilingan tarjimalari ko‘rib chiqiladi. Mazkur bobning “Abdulla Qahhor frazeologiyasi va uning tarjimada berilishi” nomli birinchi qismida taniqli o‘zbek adibi A.Qahhor asarlarining rus va turk tillariga tarjimalari o‘rganilib, ularda

qoʻllangan maqol va iboralar tarjimalarda qanday talqin etilganligi masalasi yoritilib, tarjimalarning saviyasiga munosabat bildiriladi.

“Sharof Rashidov frazeologiyasi va uning ruscha tarjimalarda qayta yaratilishi masalasi (“Gʻoliblar” romani misolida)” nomli qismda Oʻzbekistonning taraqqiyoti yoʻlida fidokorona xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan milliy adabiyotimiz hamda madaniyatimiz rivojiga hissa qoʻshgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov romanlari frazeologiyasi va uning tarjimada qayta yaratilishi masalasi adibning “Gʻoliblar” romani ruscha tarjimasi misolida koʻrib chiqildi.

“Isajon Sulton hikoyalari turk tilida (frazeologizmlar tarjimasi misolida)” deb nomlangan qismda Mustaqillik davri oʻzbek adabiyotining vakili, qissa va hikoyalari bir necha tilga oʻgirilib, xorijda ham obroʻli mukofotlarga loyiq koʻrilgan soʻz ustasi – Isajon Sultonning “Bogʻi Eram” kitobidan olingan hikoyalar turkcha tarjimalari bilan qiyoslangan holda tahlil qilinadi. Ish jarayonida chiqarilgan xulosalar oʻzbek tilidan turk tiliga badiiy tarjimalarda xos soʻzlar va frazeologizmlarning berilishi bilan bogʻliq ayrim muammoli masalalarning yoritilishiga koʻmak beradi.

Tadqiqotning soʻnggi IV bobi **“Turkcha badiiy asarlardagi maqol va frazeologizmlarning oʻzbekcha tarjimalarda berilishi”** deb nomlangan boʻlib, u 2 qismdan iborat. Uning “Umar Sayfiddin hikoyalari oʻzbek tilida” nomli birinchi qismida XX asr boshlari turk hikoyachiligining atoqli vakili Umar Sayfiddin hikoyalarining oʻzbek tiliga qilingan tarjimalari tahlilga tortilib, muallif tili va oʻziga xos uslubining qayta yaratilishidagi muammolar ustida fikr yuritiladi. “Aziz Nesin hikoyalaridagi iboralarning tarjimada ifodalanishi” nomli qismda atoqli turk hajv ustasi, yozuvchi, dramaturg A.Nesin hikoyalaridagi iboralar tahlil etilib, muallifning xalq jonli tiliga yaqin frazeologiya xazinasi oʻzbekcha tarjimalarda qanday ifoda topganligi haqida soʻz boradi.

Tadqiqotda, oʻrni bilan, oʻzbekcha maqol va iboralarning turkcha va ruscha ekvivalent hamda muqobillarini koʻrsatish, bir xil maʼnoni ifodalovchi, hatto shakl jihatdan ham bir-biriga oʻxshash maqol va iboralarning yuzaga kelish sabablari xususida mulohazalar bildiriladi.

I BOB. MAQOL, MATAL VA IDIOMALAR TARJIMASINING DOLZARB MUAMMOLARI

1.1. Maqol, matal va idiomalarning tillardagi talqini va tarjima xususiyatlari

Madaniyatning ajralmas qismi, tilning muhim qatlamini tashkil etuvchi, asrlar osha hayotda sinalib, sayqallanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan, xalqning muayyan voqea-hodisa haqidagi xulosasi, adolatli hukmi mujassam bo'lgan maqollar bebaho ma'naviy boylik si- fatida insoniyat tarixining barcha davrlari uchun mutlaq haqiqat, donolikning eng oliy nuqtasi hisoblanadi. "Xalq maqollari, matallarida bir hikmat bo'ladiki, u hikmatli so'z deb ataladi va asrlar osha og'izdan- og'izga ko'chadi" – deydi E.Vohidov⁷.

Maqollar hozirgi o'zbek tilida otalar so'zi, matal va idiomalar esa qisqa qilib iboralar, ilmiy asarlarda frazeologizmlar, frazeologik birliklar deb yuritiladi. Hatto ba'zi hollarda maqol va matal qorishtirib izohlansa, ayrim vaziyatlarda matallar ibora va boshqa idiomatik birliklar bilan aralash talqin qilinadi. Shundan bo'lsa kerak, turkiy tillar oilasiga mansub hozirgi turk adabiy tilida matal, idioma, iboralar qisqa qilib, *deyimler* deb ataladi.

"...Turkiy tillarda arabchadan o'zlashgan *mesel, sav, tabir, darb-i mesel, durub-i emsal* atamallari bilan nomlangan maqol va iboralarda turkiy xalqlarning tarix mobaynida to'plagan hayotiy tajribasi, falsafasi o'z aksini topgan. Hozirgi turk tilida maqollar *atasözleri*, iboralar esa *deyimler* deb ataladi"⁸.

Iboralarning kelib chiqishi xususida turk tadqiqotchisi Iskandar Pala shunday yozadi: "Maqollar xalqning ming yillik tajribasi natijasida ega bo'lingan hayot haqiqatlarining ixcham ifodasi bo'lsa, iboralar, asosan, bir hikoya, rivoyat yoki voqea-hodisaga asoslanadi.

⁷ Вохидов Эркин, Тўла асарлар тўплами, Тўртинчи жилд, Қиш ҳаловати, Сўз латофати. –Т., "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2016, 296-б.

⁸ Хамидов Х., Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. –Т., ТошДШИ, 2014, 110-бет.

Shuningdek, ba'zi shaxslar bilan bog'liq xotiralar, hikoyalar ham iboralarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan"⁹.

Idioma (yun. o'ziga xos ibora)ni ta'riflash mushkulligini ushbu terminga berilgan ta'riflarning xilma-xilligidan ham bilib olish mumkin. Masalan, bir ta'rifda "Idioma – muayyan tilga xos, unga o'zlashib ketgan, boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydigan nutq oboroti" deyilsa, boshqasida "Idioma – ma'nosi ayni ibora tarkibidagi so'zlarning mazmunidan kelib chiqmaydigan ibora"dir deyiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida idiomaga "ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda ma'no kasb etuvchi ixcham ibora" (*tomdan tarasha tushganday*) deb izoh beriladi¹⁰. Bizningcha, idiomaga berilgan barcha ta'riflar qaysidir jihatdan to'g'ri. Umumlashtiriladigan bo'lsa, aynan bir tilgagina xos, boshqa tillarda ayni shakl va mazmunda uchramaydigan, barqaror, majoziy ma'noga ega, semantik jihatdan bir butun, ma'nosi tarkibidagi so'zlarning mazmunidan anglashilmaydigan birikmalarni idiomalar deb atash mumkin. Agar bu ta'rif to'g'ri deb hisoblanadigan bo'lsa, yuqoridagi o'zbekcha misolning (*tomdan tarasha tushganday*) rus tilida aniq muqobili bor deyish mumkin (*как снег на голову – to'satdan boshga og'ir qor uyumi tushganday*). Yoki bo'lmasa, o'zbekchada *xamirdan qil sug'urganday* deyilsa, turkchada *tereyağından kıl çeker gibi* (saryog'dan qil sug'urganday) ruschada *как по маслу* (xuddi yog'ustidan yuritilganday) deyiladi.

Idiomalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish mumkin emasligi ta'kidlansa-da, buni mezon sifatida qabul qilish noto'g'ri. Bunday birliklar tarjima qilinayotganda, ularning obrazli asosiga aynan muvofiq keladigan variantni qidirish ma'no o'zgarishi yoki siljishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ularni muqarrar ravishda asar tarjima qilina-yotgan tildagi boshqa uzoq muqobil variantlar bilan almashtirishga ortiqcha ruju qo'yish ham uslubning siyqalashishiga, obrazning xiralahishiga olib keladi.

Tarjimashunos E.Ochilov frazeologizmlar (maqol, matal, idioma) tarjimasini fanning muammolaridan biri deb atab, taniqli rus tarjima-shunosi K.Chukovskiyning maqollarni iloji boricha so'zma-so'z tarjima

⁹ Pala İskender, İki Dirhem Bir Çekirdek, Kapı Yayınları, Bütün Eserleri, 21. –İstanbul, 2010, S.8.

¹⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –М.: “Рус тили”, 1981, 314-б.

qilishga intilish kerakligi haqida uqtirganini eslatadi. Chunki “ularda xalqning tug‘ma xususiyati, fikrlashning milliy uslubi o‘z ifodasini topgan bo‘ladi” – deb yozadi u. E.Ochilov o‘z fikrining tasdig‘i uchun G‘.Salomovning quyidagi fikrini keltirib o‘tadi: “...shunday maqol va matallar ham borki, ulardan kelib chiqadigan hikmat hijjalab qilinadigan tarjima ichidagi so‘zlarda o‘z in‘ikosini topmaydi. Ana shunday maqol va matallar juda ko‘p. Shunday qilib, boshqa tillardagi ko‘plab maqol, matal va idiomalarda aks etgan hikmatni ularning ona tilimizdagi muqobillari bilan almashtirish vositasidagina ro‘yobga chiqarish mumkin”¹¹. Bu ta‘rif ko‘proq uzoq tillardan tarjimaga tegishli. Holbuki, ruslarda mashhur *He все то русалка, что в воду ныряет* maqoli o‘zbek tiliga *Suvga sho‘ng‘iy oladigan hamma narsa ham suv parisi bo‘lavermaydi* deb, yoki *Нет дыма без огня* maqoli – *Olov bo‘tagan yerdan tutun chiqmaydi* deb o‘girilsa, kitobxonga tushunarli bo‘lishi mumkin. Biroq, *Мели, Емеля, твоя неделя* (сўзма-сўз: *Янч Емеля, сенинг ҳафтанг*) deganda rus xalqi maishiy turmushini tushunmagan kishi hech nima anglay olmaydi.

O‘zaro yaqin tillardan tarjimalarda esa vaziyat boshqacha. Masalan, turkchada ko‘chma ma’noda yomon odamlarning qabihliklari haqida aytilgan *Yılanın tabiatı bu: fırsatını buldu mu, sokar* maqolini hijjalab o‘girsak *Ilonning tabiatı shunaqa: payt topishi bilan chaqadi* bo‘ladi. Yoki, *yediği önünde yemediği arkasında* iborasini *yegani oldida yemagani orqasida* shaklida, *(birinin) ekmeğine el uzatmak* iborasini *(birining) noniga qo‘l uzatmoq*¹² shaklida, *(birinin) ekmeğine yağ sürmek* iborasini *(birining) noniga yog‘ surmoq* shaklida hijjalab o‘girish mumkin. Bunday ma’noli iboralarning so‘zma-so‘z tarjimasini anglashda o‘zbek kitobxoni hech qanday qiyinchilik sezmaydi.

Maqollarning asosiy qismi to‘la ko‘chma ma‘no kasb etadi, shunga qaramay ularning o‘z ma’nosi ham muayyan mantiqqa asoslangan bo‘ladi. Masalan, *Filler tepişirken olan çimenlere olur* (Fillar tepishar ekan bo‘ladigani maysalarga bo‘ladi) maqolini olsak, bu gapdan tabiiy holat ko‘z oldimizga keladi. Biroq ko‘chma ma‘nodagina u maqol qimmatiga ega bo‘ladi (boy-badavlat yoki mansabdor kishilar orasida ixtilof yuzaga kelsa, bundan oddiy kishilar zarar ko‘radi).

¹¹ Очилов Э., Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: ТошДШИ, 2014, 140-6.

¹² Ushbu iboraning (birining) “nonini tuya qilmoq” degan muqobili bor.

E.Ochilov o‘zining “Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug‘a-ti”da turg‘un so‘z birikmalari: maqol, matal va ibora (idioma)larni frazeologizmlar deya nomlab, bunday birliklarning tarjimasida asl nusxada-gi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib to-pish, muqobil variant topib qo‘yish va frazeologizmni aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish singari usullar qo‘llanilishini aytib, har uchala holat ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma’nosini aks et-tirish bilan kifoyalanishini ta’kidlaydi¹³.

Shu o‘rinda ilk o‘zbek romanlari muallifi A.Qodiriyning o‘zbek tili frazeologiyasi o‘z aksini topgan xazina deya e’tirof etilgan “O‘tkan kunlar” romanidan bir misol: *Boshqa tushkanni ko‘z ko‘rar, degan so‘z bor. O‘zbek oyim ham boshig‘a tushkan bu kulfatni ko‘rishka majbur edi*¹⁴. Mashhur o‘zbek maqoli qo‘llanilgan parcha rus tiliga *Свалилась беда на голову, теперь надо думать, как ее сбыть. Узбек-аим предначертано было испить сей горькой чаши...* shaklida, turk tiliga esa *Başa düşeni göz görürmüştü! Özbek Hanım da başına gelen bu belayı defetmek mecburiyetindeydi...*¹⁵ deya o‘girilgan. O‘zbekcha parchada qo‘llanilgan *Boshqa tushkanni ko‘z ko‘rar* (hozirgi o‘zbek tilida: *Boshga tushganini ko‘z ko‘radi*) maqoli rus tiliga qilingan tarjimalarda (V.Smirnova va L.Bat tarjimasida¹⁶ va, M.Safarov tarjimasida¹⁷) ham iboralar vositasida berilgan. Holbuki, o‘zbekcha maqolni ruschaga “От беды не уйти” deya o‘girish mumkin edi. Tarjimonlar ish davomida erkin harakat qilganlari ko‘rinib turibdi. Turkcha tarjimaga kelinadigan bo‘lsa, turk tarjimoni maqolni so‘zma-so‘z o‘girgan (*Başa düşeni göz görürmüştü*) bo‘lsa-da, xato qilmagan. Turk kitobxoni gap nimada ekanligini darhol fahmlab oladi. Shunga qaramay, maqolning tilda keng qo‘llanilayotgan ekvivalentini (*Başa gelen çekilir*) topib qo‘yish maqsadga muvofiq edi. Bu yerda G‘.Salomovning quyidagi so‘zlarini keltirish o‘rinli: “Badiiy asarga jilo berib turgan uning zarrachalari: maqol, matal, idiomalar va boshqa

¹³ Очилов Э., Таржимашунослик терминларининг изохли луғати. –Т.: ТошДШИ, 2014, 171-б.

¹⁴ Қодирий А., Ўтган кунлар. Тарихий роман. С. Азимов таҳрири остида. – Т.: Ўздавнашр, 1958, 134-б.

¹⁵ Kadiri A., Ötgen Künler (Geçmiş Günler), Roman, Türkiye Türkçesi D. Ahsen Batur, Selenge Yayınları. – İstanbul, 2005, S.166.

¹⁶ Кадири А., Минувшие дни. Роман / Пер. с узб. Л. Бат и В. Смирновой. –Т.: Гос. изд-во худ. лит, 1958, с. 134.

¹⁷ Кадири А., Минувшие дни. Роман / Пер. с узб. Л. Бат и В. Смирновой. –Т.: Гос. изд-во худ. лит, 1958, с. 134.

ko'chma ma'noli birikmalar hamda so'z o'yinlarini yaxshi tarjima qilish tarjimada o'sha asarning o'z badiiy qimmatini, zavqini aynan saqlashga imkon bersa, bunday iboralarni xom, chala, sun'iy tarjima qilish, pirovardida uni boshqa tilga yetaklab o'tib mayib-majruh qilishga olib keladi. Boy o'zbek tili hamma tildagi, har qanday maqol, matal, idioma va so'z o'yinini to'liq aks ettirishga qodirdir"¹⁸. Turk tili ham maqol va iboralarga boy. Badiiy jihatdan mukammal asarlarda maqol, matal va iboralarning ko'p uchrashi ham shundan. Bu tilning badiiy ifoda imkoniyatlari qancha keng ekanligini ko'rsatadi.

Taniqli o'zbek adibi O.Yoqubovning "Adolat manzili" qissasidan bir misol olamiz: *Shamol bo'lmasa terakning uchi qimirlamaydi, biz sutday pok deb yurgan direktorimizning ham ahvoli shu ekan-da, uning ham misi chiqdi-ku, oq it qora it – baribir it ekan-da!*¹⁹. Jumlaning turkcha tarjimasi quyidagicha: *Ateş olmayan yerden duman çıkmazmı. Bizim tertemiz diye bildiğimiz genel müdürümüzün meğer ne marifetleri varmış da haberimiz bile yokmuş*²⁰.

Asardan olingan birgina jumlada bir maqol, bir matal va ikki ibora qo'llanilgan: "*Bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur*" maqoliga sinonim bo'lgan "*Shamol bo'lmasa terakning uchi qimirlamaydi*" maqoli, *sutday pok* va *misi chiqmoq* iboralari va "*Oq it qora it, baribir it*" matali. Tarjimon o'zbekcha maqolning *Ateş olmayan yerden duman çıkmaz* ("*Olov bo'lmagan joydan tutun chiqmas*") degan turkcha muqobilini to'g'ri topgan. Biroq, "yomon kishilarni turga ajratib bo'lmaydi" ma'nosidagi *Oq it qora it, baribir it* mataliga munosib turkcha muqobil qidirib o'tirmay, tushirib qoldirgan. *Sutday pok deb yurmoq* iborasining ham turk tilida *sütten çıkmış ak kaşık gibi* (ma'nosi: *sutdan chiqqan oq qoshiq kabi*) degan muqobili bor edi. Turk tarjimoni buni ham '*tertemiz*' (*toptoz*) deb birgina so'z bilan o'girib qo'yaqolgan. *Misi chiqmoq* iborasini ham "*meğer ne marifetleri varmış*" (shunday mahoratlari bor ekan-ku) deya o'giran.

O'zbek va turk tillaridagi maqol va iboralar tarkibida o'zlashgan so'zlar ko'p uchraydi. Ana shunday so'zlardan biri forsha "*divor*" so'zidir. Bunga o'xshash yuzlab so'zlarning turkiy tillarning deyarli

¹⁸ Саломов Ғ., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 158-159-бетлар.

¹⁹ Ёқубов Одил, Адолат манзили, роман. –Т.: 1996. – 168 б.

²⁰ Yakuboğlu Adil, Adalet Menzili, Türkçeye çeviren Ahsen Batur, Selenge Yayınları. – İstanbul, 2005. – 213 s.

barchasiga o‘zlashib ketgani ma’lum: “*Şimdiye kadar dört duvar arasında yaşamış bu saf ve cahil kadın, insanlarda iyiliğin asıl olduğuna, nedense bu güngörmüş, saçlı sakallı idare adamı kadar inanmak istemedi ve geldiği gibi ağlaya ağlaya şirketten çıkıp gitti*”²¹. Turkcha matndan olingan ushbu gap o‘zbek tilida quyidagicha beriladi: “*Hozirga qadar to‘rt devor orasida yashagan soddadil va omi ayol ko‘pni ko‘rgan soch-soqoli oqargan bu kekxa ma‘murga o‘xshab insonlarning olijanob ekanligiga ishongisi kelmadi va yig‘lab kelganiday, yig‘lay-yig‘lay shirkatdan chiqib ketdi*”²². Bu misoldan forschadan o‘zlashgan so‘zning fonetik o‘zgarishga uchrab tillarning fonetik qoidalariga moslashgani ko‘rinib turibdi (forscha “divor”, turkcha “duvar”, o‘zbekcha “devor”).

Bir tilga xos maqol, matal, idiomalarini boshqa tildagisiga shaklan muvofiq keladigan muqobili bilan o‘g‘irish yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yaramasligi xususida G. Salomov shunday yozgan edi: “...bir tilda ma’lum ma’no anglatuvchi uning o‘ziga xos matal, idiomalarini ikkinchi tilga shu birikmalarning formal tomondangina muvofiq keladigan shakldosh varianti bilan yoki u qanday bo‘lsa aynan xuddi shunday tarjima qilib bo‘lmaydi. Basharti, bunday qilinsa, hech narsa anglatmaydigan quruq birikma yoki qo‘pol xato kelib chiqadi. Shuning uchun tarjimon o‘z etimologiyasiga ega bo‘lgan, boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydigan iboralarni yaxshi bilishi kerak”²³.

Matal rus tilidagi **поговорка** atamasiga to‘g‘ri keladi. Adabiyot-shunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘atida matallarga (поговорка) quyidagicha ta’rif beriladi: “U yoki bu hayotiy voqelikka emotsional tus beruvchi, xalq orasida tarqalgan ifodalar, xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri. Matal xalq maqoli bilan ba’zi o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, lekin o‘ziga xos jihatlari bilan undan farqlanib turadi. Maqollar nutqda yaxlit hukm sifatida qo‘llanilsa, matallar *hukmning qismi* funksiyasini bajaradi. Maqollarning tematik doirasi keng bo‘lsa, matallar aniq mavzu va qat’iy funksional qo‘llanishga ega; maqollar aniq shakliyl tuzilishga ega bo‘lsa, matallarda shakliyl qat’iylk mavjud

²¹ Güntekin R. N., Çalıkuşu, roman, 39.Baskı. –İstanbul: 1995, S.212.

²² Гунтекин Рашод Нури, Чоликуши, роман, туркчадан М. Исмоилий таржимаси. –Т.: 2002, 213-б.

²³ Саломов Г., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матаул ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 157-бет.

emas; maqollar ba'zan ko'chma, ba'zan o'z ma'nosida qo'llansa, matallar hamma vaqt ko'chma ma'noda keladi"²⁴.

O'zbek va turk maqollarida kishining vafot etgach, faqat ijobiy jihatlari esga olinishi, salbiy tomonlarining unutilishi, e'zozlanishi ta'kidlanadi. Masalan, *Kel ölüür sırma saçlı olur* (Kal o'lur, oltin sochli bo'lur) maqolining o'zbekcha muqobili "O'lding, aziz bo'lding"dir. Obrazli ifoda etilgan turkcha maqolni o'zbekchaga so'zma-so'z o'girish ifodaning yanada ishonchli, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

"Matallarning paydo bo'lishi nutqda obrazli turg'un iboralarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Matallar so'zning ko'p ma'noliligiga tayanganligi uchun frazeologik iboralarning aksi o'laroq ularda o'xshatish va qiyos kuchli bo'ladi. Ularda qiyoslanuvchi elementlardagi tafovut yaxshi saqlanadi. Matallar hamma vaqt tarkibi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, grammatik jihatdan gapning bir bo'laki bo'lib keladi. "Hayotim qil ustida turibdi", "Semizlikni qo'y ko'taradi", "Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zadi", "Bekorga mushuk oftobga chiqmaydi" kabi matallar xalq orasida son-sanoqsizdir"²⁵. Shu o'rinda *Semizlikni qo'y ko'taradi* mataliga bir misol beraylik. G'afur G'ulomning mashhur "Shum bola" qissasining A.Naumov tomonidan amalga oshirilgan ruscha tarjimasida shunday jumla kechadi: "*Semizlikni qo'y ko'tarar*", deganlaridek, *Omonga badavlatlik yoqmas edi. O'rtadagi hamma pulimiz allaqachon uch so'mdan oshib ketgani uchun Omon yangi qiliq boyvachcha qiliq chiqara boshladi*"²⁶. Parcha rus tiliga quyidagicha tarjima qilingan: "*Наши деньги завязаны у него в поясе – там набралась теперь солидная сумма, почти два рубля. И они не дают ему покоя. Правду говорят: жир полезен только барану. У Амана сразу появились замашки байского сына*"²⁷. Ushbu parcha rus tiliga erkin tarjima qilingani ko'rinib turibdi. Undagi o'zbekcha "*Semizlikni qo'y ko'tarar*" matali rus tiliga so'zma-so'z o'girilgan, *boyvachcha qiliq chiqara boshladi birikmasi* "*появились замашки байского сына*" deya to'g'ri berilgan.

²⁴ Хотамов Н., Саримсоков Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т.: "Ўқитувчи", 1983. –Б. 249.

²⁵ O'sha kitob, –Б. 250.

²⁶ G'afur G'ulom, Shum bola, qissa. –Т., G'afur G'ulom nashriyoti, 1983 (ziyouz.com), 26-b.

²⁷ Гафур Гулям, "Озорник", повесть, перевод Александра Наумова "Шарк". –Т., 2016. (ziyouz.com), с.30.

Xalqning muayyan voqea-hodisa haqidagi xulosasi mujassam bo'lgan maqol va iboralar ijodiyotning o'ziga xos badiiy ifoda uslubi aks etgan janrlari hisoblansa-da, ular baynalminal ahamiyat ham kasb etadi. Shu o'rinda G'.Salomovning mashhur kitobidan yana bir parcha keltirish o'rinli bo'ladi: "Bir xil sharoit, bir xil taqdir va qismat, o'xshash mantiqiy asoslar turli tillarda ma'nodosh birikmalarning paydo bo'lishiga olib keladi". Olim o'z fikrini quyidagi misollar bilan dalillaydi: *Ходум ткач (портной) без кафтана (to'quvchi (tikuvchi) kaftan (chopon)siz yuradi)*; *Пьет гончар из черепка (kulol mundida suv ichadi)*; *Сапожник без сапог (Etikdo'z etiksiz yuradi)*; *Плотник без дверей (duradgorning uyi eshiksiz bo'ladi)* va h. Uzoq o'tmishda hunarmandlarning o'zlari mahsulot ishlab chiqarsalar-da, bu mahsulotlardan o'zlari istifoda eta olmaganliklari yuqorida sanab o'tilgan maqol, matallarda obrazli ifoda etiladi. Chunonchi o'zbeklarda *bo'zchining – belboqqa, etikdo'zning – etikka, to'quvchining – bo'zga yolchimasligi, kulolning mundida suv ichishi* obrazli ifoda etiladi. Demak, rus va o'zbek tillarida bir-biriga o'xshash, hatto aynan bir xil maqol va matallarning mavjudligi ajablanarli hol emasligi alohida ta'kidlanadi²⁸. Keltirilgan (universal) maqollarning²⁹ turk tilidagi muqobili 'Terzi kendi söküğünü dikemezmiş' (Tikuvchi o'z kiyimidagi so'kilgan joyni tika olmaydi)dir.

Xulosa qilib aytganda, tilning muhim qatlamini tashkil etuvchi bebaho ma'naviy boylik – maqol va iboralar asrlar bo'yi xalqning hayot tajribalarida sinalib, sayqallanib avlodlarga meros o'tib kelaveradi.

²⁸ Саломов Г., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 17-бет

²⁹ G.L.Permyakovning «Пословицы и поговорки народов Востока» kitobida quyidagi universal maqollar beriladi: 'Bo'zchi belboqqa yolchimas' – o'zbekcha; 'Сапожник без сапог' (Etikdo'z etiksiz yuradi) – ruscha; 'Красильщик в некрашенных шароварах ходум' (Bo'yoqchi bo'yalmagan shalvar kiyadi) - uzbekcha; 'Плутуций циновки на голой земле умирает' (Bo'yra to'quvchi quruq yerda jon beradi) – tamil tilida; 'В доме плотника нет скамейки' (Duradgorning uyida skateyka topilmaydi) – xitoycha; 'В доме гончара не найдёшь целой посуды' (Kulolning uyida birona butun idish topilmaydi) – pushtu tilida; 'У кровельщика крыша дырявая' (lombazchining tomidan chakki oqadi) – bengal tilida va h.

1.2. Maqol va iboralar obrazli asosining tarjimada saqlanishi

Badiiy tarjimada frazeologik birliklar obrazli asosining saqlanishi mavzusi bir qator ilmiy tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan. Shunga qaramay, ushbu masala fanning dolzarb muammosi bo‘lib qolmoqda.

Maqol, matal va idiomalarning aksariyati obrazli asosga ega bo‘ladi. Agar bu o‘zaro yaqin tillar sanalgan o‘zbek va turk tillari misolida olib qaraladigan bo‘lsa, masala yanada oydinlashadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*Gilam sotsang qo‘shningga sot, bir burchagida o‘zing o‘tirasan*” maqolining obrazli asosini “gilam” so‘zi tashkil etayotgan bo‘lsa, xuddi shu ma’noda aytilgan turkcha *Bugday satarsan komşuna sat, gider bazlamasını yersin* (Bug‘doy sotsang qo‘shninga sot, borganingda chalpagini yeysan) maqolida obrazli asos “bug‘doy”dir. Ikkala tilda berilgan maqolning obrazli asosi turlicha bo‘lsa-da, ma’no yagona, ikki maqol bir-birini to‘la qoplay oladi. Ya’ni maqol vositasida qo‘shnichilik munosabatlarining muqaddasligi, jamiyatda insonlar orasidagi aloqaning muhimligi targ‘ib qilinadi. Tarjimon ushbu maqolni so‘zma-so‘z o‘g‘irganda ham kitobxon to‘la tasavvurga ega bo‘la oladi. Bundan tashqari, aynan tarjima tufayli til yana bir maqolga boyiydi.

O‘zbekchada bir ishning juda oson amalga oshirilishi *xamirdan qil sug‘urganday* iborasi vositasida obrazli ifoda etiladi (bu xususda yuqorida qisqacha so‘z yuritildi). Uning turkcha muqobili *tereyağından kıl çeker gibi (sariyog‘dan qil sug‘urganday)*. Demak, ishning oson amalga oshishi turklarda “sariyog‘dan qil sug‘urilishi”ga, o‘zbeklarda esa “xamirdan qil sug‘urilishi”ga o‘xshatilar ekan. Shu nuqtada ikki xalqda ikki xil obraz (sariyog‘ va xamir) asos olingani, lekin “qil sug‘urish” (“kıl çekmek”) qismi ikki tilda bir xil ekanligini ta’kidlash joiz³⁰. Tarjimada *tereyağından kıl çeker gibi* iborasini o‘zbekchaga “sariyog‘dan qil sug‘urganday” deb, yoki o‘zbekcha “xamirdan qil sug‘urganday” iborasini turkchaga *hamurdan kıl çeker gibi* shaklida o‘girish kitobxonga tushunarli bo‘lsa-da, baribir, uni ma’lum darajada chalg‘itishi mumkin. Chunki bu yerda badiiy tafakkurdagi farqlilik masalasi turibdi. Qolaversa, tarjimani o‘quvchi kitobxon xamir yoki sariyog‘dan qil qanday sug‘urilishini emas, ishning qanday oson bitishini tasavvur qiladi.

³⁰ Хамидов Х., Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. –Т., ТошДШИ, 2014, 78-б.

Rus tilida “*xamirdan qil sug‘urganday*” iborasiga juda yaqin ma’noda *как по маслу* (yog‘langanday) iborasi qo‘llaniladi. Biroq ayrim tarjimalarda tarjimonlar iborani so‘zma-so‘z shaklda ham beradilar. Masalan, Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidagi “*Dala havosi ... butun illatni xamirdan qil sug‘urganday tortib oladi*” jumlasini ruscha tarjimada “*Воздух полей всю болезнь вытянет, как волос из теста*” shaklida berilgan.

O‘zbek tilidagi mashhur maqollardan yana biri *Uzumning yaxshisini it yeydi* (ma’nosi: har doim yaxshi narsa yomon odamga nasib qiladi) maqolidir. Uning turkcha muqobili *Armudun iyisini ayı yer* (Nokning yaxshisini ayiq yeydi), turkmancha muqobili esa *Gavunun yahshisin sagal yer* (Qovunning yaxshisini shoqol yer)dir. Bu yerda ham badiiy tafakkurdagi farqlilik masalasi turibdi. Bu uch xalq gapirayotgan til ayni til oilasiga kirsada, obrazlar farqli (uzum – nok – qovun). Ammo tarjimaning o‘quvchi kitobxon maqolning o‘qiganda mevaning emas, hayotda eng yaxshi narsa unga loyiq bo‘lmagan kishilarga nasib qilishini tushunadi. Maqolning ruschaga tarjimasiga kelinsa, uni *Лучшие грибы медведи съедают* shaklida o‘g‘irish mumkin, biroq ruslarning badiiy tafakkurida bunday tushuncha, obraz asosida yaralgan maqol yoki matalga duch kelinmadi. Shu bois maqol ruschada qisqartirib qilib *дуракам vezem* (jinnilar omadli bo‘ladi, jinnilarga har doim omad kulib boqadi) shaklida beriladi³¹. Ayni vaziyatni turk tilidagi *Armut piş, ağzıma düş* (olma pish, og‘zimga tush – o‘zb., *Ждать, чтобы жареные голуби сами летели в рот* – rus. (so‘zma-so‘z), *Armut ağacından uzak düşmez* (olma daraxti tagiga olma tushadi – o‘zb., *Яблоко от яблони недалеко падает* – rus.)³² va boshqa maqol, iboralar misolida ham ko‘rish mumkin.

O‘zbek tilidagi *Ko‘rpanga qarab oyoq uzat* matalining turkcha ekvivalenti *Ayağını yorgana göre uzat* bo‘lsa, ruscha muqobili *По одежке протягивай ножки* (so‘zma-so‘z: *libosininga qarab oyoq‘ingni cho‘z*)dir. O‘zbek va turk tillarida aynan ekvivalent hisoblangan ushbu matalning rus tilidagi yana bir muqobili *Знай сверчок свой шесток* (so‘zma-so‘z: “*Ey, qora chigirtka, qo‘nib o‘tiradigan yeringni bil*”, ya’ni “har kim o‘z o‘rnini bilishi (hamma yerga

³¹ Баскаков А.Н., Турецко-русский словарь, Türkçe-Rusça Sözlük. –Moskova: “Russkiy yazik” Yayınevi, 1977, С.65.

³² Баскаков А.Н., Турецко-русский словарь, Türkçe-Rusça Sözlük. –Moskova: “Russkiy yazik” Yayınevi, 1977, С.65.

suqilavermasligi) kerak”. Biroq bu ikkinchi ruscha matalni o‘zbek tiliga *Ko‘rpanga qarab oyoq uzat* deb yoki turk tiliga *Ayağımı yor- gana göre uzat* deb o‘g‘irish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Uni, yaxshisi, “Haddingni bil” (turkcha “Haddini bil”) shaklida o‘g‘irgan ma’qul.

Maqollarda ko‘pincha qarama-qarshi ma’noli so‘z yoki tushunchalar yonma-yon keladi va ular fikrning yanada tushunali, yanada ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, turkchada mashhur *Bir deli kuyuya taş atmış, kırk akllı çıkaramamış* (*Bir jinni quduqqa tosh tashlabdi, qirq aqlli (toshni quduqdan) chiqara olmabdi*) maqolini oladigan bo‘lsak, uning tarkibidagi *bir deli* birikmasi *kırk akllı* birikmasiga qarama qarshi qo‘yiladi. Turk tilida ushbu maqolning *Bin yapıcı bir yıkıcıyla başa çıkamamış* (*Ming quruvchi bir buzuvchiga bas kela olmabdi*) degan sinonimi ham keng qo‘llaniladi.

O‘zbek va turk tillaridagi ko‘pchilik maqol, idiomalar obrazli asos jihatdan aynan o‘xshash, bir-biriga to‘la ekvivalent bo‘lishi mumkin. Masalan, “*Jahl chiqsa aql qochadi*” maqolining turkcha ekvivalenti *Öfkeyle kalkan zararlarla oturur* (“Jahl bilan o‘rnidan turgan zarar bilan o‘tirar”), ruscha muqobili esa “*Посеешь ветер, пожнешь бурю*” (so‘zma-so‘z: “shamol ekkan bo‘ron o‘radi”) bo‘ladi. Bu maqollarning obrazli asosini *jahl – aql* (o‘zb.), *jahl – zarar* (turk.), *shamol – bo‘ron* (rus.) so‘zlari tashkil etgan. Turkcha *Öfkeyle kalkan zararlarla oturur* (Jahl bilan o‘rnidan turgan zarar bilan qaytib joyiga o‘tiradi), *Öfkeyle yaktığın ateş döner yine seni yakar* (Jahl bilan yoqqan oloving qaytib yana o‘zingni kuydiradi), *Keskin sirke küpüne zarar verir* (O‘tkir sirka xum (idish)ni yemiradi) maqollarining so‘zma-so‘z tarjimasini o‘zbek kitobxonlari uchun tushunarli.

Turkcha *bir pire için yorgan yakmak* iborasining o‘zbek tilidagi muqobili *burgaga achchiq qilib ko‘rpani yoqmoq*. Turkcha-ruscha lug‘atda ushbu turkcha iboraning ruscha muqobili maqol shakliga ega (*Рассердившись на блох да и всю шубу в печь* (so‘zma-so‘z: *Из-за одной блохи съесть все одеяло*). (Qarang: Баскаков А.Н., Турецко-русский словарь, Türkçe-Rusça Sözlük, Moskova “Russkiy yazık” Yayınevi, 1977. c.722.).

Tarjimonlar ijod qilargan ekan, ayrim paytlarda maqollar ichiga chuqur kirib bormaydilar. Masalan, “O‘tgan kunlar” romanidan olingan *Jahl chiqsa aql qochadi* maqolining eski varianti qo‘llanilgan “*Jaholat kelsa,*

aql qochadir, qizim, – deb koyidi”³³ jumlası turkcha tarjimada quyidagicha berilgan: “*Cehalet basınca akıl çıkar gidermiş, kızım*” – *diye cevap verdi*”³⁴ (turkcha tarjima soʻzma-soʻz teskari oʻgirilsa, “Jaholat bosib kelganda, aql chiqib ketar emish, qizim” – deya javob berdi” boʻladi). Oʻzbekcha jumla rus tiliga 1958 yilda qilingan tarjimada “*Когда напастает гнев, разум покидает человека, дочь моя!*”³⁵, 2009 yilda qilingan qayta tarjimada esa “*Когда приходит гнев, разум уходит, дочь моя!*”³⁶ deb berilgan. Bu yerda tarjimonlar oʻz tillarining boy maqol va idiomalar zahirasidan yetarli darajada istifoda etmagan boʻlsalar-da, jumlaning mazmunini soʻzma-soʻz oʻgʻirish orqali ifoda eta olganlar.

Shu kabi oʻzbek tilidagi “qoʻyday yuvosh”, “musichadek beozor”, “chumoliga ham ozor bermaydigan” iboralariga turkcha *karıncayı bile incitmemek (ezmemek)* iborasi mos keladi: *Rahmetli muhtarımız gibi ben de karıncayı bile ezmem*³⁷. Ushbu gapdagi *karıncayı bile ezmemek* (soʻzma-soʻz: “chumolini ham eza olmaslik”) iborasida *ezmek* (ezmoq, yanchmoq) feʻli, oʻzbekcha muqobili tarkibida esa “ozor bermoq” feʻli keladi: *Men ham rahmatli mahalla oqsoqoli kabi chumoliga ham ozor berolmayman* (tarjima bizniki – X.H). Bu yerda ham oʻxshash vaziyatga duch kelamiz. Yaʼni, turkcha iborada “ezmoq”, yaʼni “yanchmoq”, “oʻldirmoq” feʻli, oʻzbekcha iborada esa “ozor bermoq” feʻl shakli qoʻllanilgan. Demak, tarjimada eng nozik maʼno oʻzgachaligini ham diqqatdan chetda qoldirmaslik kerak ekan.

Oʻzaro yaqin tillarda obrazli asosi umumiy boʻlgan maqol va idiomatik birikmalar koʻp uchraydi. Masalan, oʻzbek xalqida mashhur “*Soʻz koʻrki – maqol, yigit koʻrki – soqol*” deganda “soqol” keksalik, nuroniy qiyofa va izzat-hurmat ramzi hisoblanadi. Jumladan, ayni maqolning qozoqcha muqobili *Sozdin korki maqal, juzdin korki saqal* (Soʻzning koʻrki – maqol, yuzning koʻrki – soqol)dir. Hozirgi turk tilida esa,

³³ Қодирий А., Ўтган кунлар. Тарихий роман. С. Азимов тахрири остида. – Т.: Ўздавнашр, 1958, Б.264.

³⁴ Kadiri A., Ötgen Künler (Geçmiş Günler), Роман, Türkiye Türkçesi Ahsen Batur, Selenge Yayınları. – İstanbul, 2005, S.279.

³⁵ Кадири А., Минувшие дни. Роман / Пер. с узб. Л. Бат и В. Смирновой. –Т.: гос. изд-во худ. лит, 1958, С. 233.

³⁶ Кадири А., Минувшие дни, роман / Пер. с узб. Мухаммаднодира Сафарова, Главная редакция издательско-полиграфической акционерной компании “Шарк”. –Т., 2009, С.293.

³⁷ Baysal F. Sarduvan, Can Yayınları. –İstanbul, 1993, S.215.

Sakalim yok ki, sözüüm dinlensin (soʻzma-soʻz: Soqolim yoʻqki, soʻzim tinglansa). Demak, turkiy xalqlarda qadimda soqol keksalik, donolik alomati, yoshi katta boʻlmagan kishilar soqol qoʻyganda esa obroʻ-eʼtibor belgisi ham hisoblangan.

Shu bilan birga, turkiy xalqlarda “soqol” soʻzi kelgan bir qancha maqol goʻyo yuqoridagi fikrni “rad” etadi. Masalan, tatarlar *Sakali ozin keshenen akili kiska bulir* (soqoli uzun kishining aqli qisqa boʻladi) deyishsa, ozarbayjonlar “*Agar soqoliga qarab martaba bersalar, echki shayx boʻlardi*” maʼnosidagi maqolni qoʻllashadi. Turklar bu mavzuda *Sakal keçide de var* (“Soqol echkida ham bor”) deyishadi. Shu kabi, maqollarni taʼsirchan boʻlishi uchun qofiyaga solib, ohangdor qilib ham aytadilar: *Akıllı olsaydı her sakallı kişi, sakallılarla danışılardı her işi* (“Aqli boʻlsaydi har soqolli kishi, soqollilar bilan maslahatlashishardi har ishini”). Bu maqollarni ikki xil tushunish mumkin: 1) kishining mansabi hech narsani belgilamaydi (chunki oʻtmishda yosh, mansabdor kishilar ham soqol qoʻyishgan); 2) kishi keksa boʻlsa-da, ayrim yoshlar qadar aqli boʻlmasligi mumkin.

Rus xalqida ham bunga oʻxshash maqol bor ekan: *Ум борода не ждѐм* (soʻzma-soʻz: “Aql soqol chiqishini kutib turmaydi”, yaʼni “Aql yoshda emas”)³⁸. Ushbu maqol oʻzbek tilidagi “*Aql yoshda emas, boshda*» maqoliga mos keladi). Agar misollarga murojaat qilsak vaziyat yanada oydinlashadi.

Abdulla Qahhorning “Qoshchinor chiroqlari” romanidagi “*Koʻnglingga kelmasin-ku, Boʻtaboy, aql yoshda emas, boshda degan odam bilib aytgan...*”³⁹ jumlasini rus tarjimonlari “*А ты, Бутабай, не обижайся. Ведь не зря сказано: «Ум не в бороде, а в голове»*”⁴⁰ deya oʻgirib muddaodagiday ish tutishgan.

Turkiy xalqlarda “uylanmoq” yoki “turmushga chiqmoq” maʼnosida *bir yastiğa baş koymak* (“bir yostiqa bosh qoʻymoq”) iborasi uchraydi. Uning yuzaga kelishiga kelin-kuyovning qonuniy nikoh natijasida oila qurib, “bitta yostiqa bosh qoʻyishlari”, yaʼni oila qurishlari asos boʻlgan. Turkcha *bir yastıkta kocamak* (bir yostiqa qarimoq)

³⁸ Саломов Ғ., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 102-бет.

³⁹ Қаҳҳор Абдулла, Қўшчинор чироқлари, роман, Асарлар: беш жилдлик. иккинчи жилд. –Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987, 61-б.

⁴⁰ Қаҳҳар Абдулла, Огни Кошчинара, авторизованный перевод А.Садовского и С.Малашкина, <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi, с.63.

iborasining o‘zbekcha muqobili “qo‘sha qarimoq”dir. Zero bir erkak bilan ayolning qonuniy nikohsiz birga bo‘lishlari xalq orasida ijobiy qabul qilinmagan.

Yoki, o‘zbekchada mashhur bo‘lgan “baquvvat” ma’nosidagi “Tog‘ni ursa talqon qiladi” idiomasi turkcha muqobili *Taşı sıksa suyunu çıkarır* (“Toshni siqsa suvini chiqaradi”) bo‘ladi. Bu yerda ham yuqoridagi holatga duch kelamiz (turkcha iboraning yuzaga kelishiga mevaning siqilib suvi chiqarilishi asos bo‘lgan). Ya’ni turklarda erkak kishining jismonan kuchliligi mubolag‘a vositasida “toshni siqib suvini chiqarish” shaklida, o‘zbeklarda esa “tog‘ni urib talqon qilish” shaklida obrazli ifoda etiladi (“tog‘ni ursa talqon qiladi”, “ho‘kizning bo‘ynini sug‘uradi”). Chunki haqiqatda toshni siqib suvini chiqarishning ham, tog‘ni urib talqon qilishning ham iloji yo‘q. Bular mubolag‘aga asoslangan obrazli ifodalardir. Demak, turkcha-o‘zbekcha tarjimada bu ikki shaklni muqobil sifatida qo‘llash mumkin ekan.

Shu o‘rinda taniqli so‘z san’atkori, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning so‘zlarini esga olaylik: “Maqol xalq ijodi. Ijod badiiyatsiz, badiiyat mubolag‘asiz bo‘lmaydi. *Inson boshi toshdan qattiq* deymiz. Toshdan qattiq narsa yo‘qligi uchun shunday deymiz. *Tog‘ni ursa talqon qiladigan yigit*, degan gap bor. Tog‘ni maydalab bo‘lmasligi uchun bu maqol qudratli va boqiy. *Dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydigan odam* bo‘lmaydi. Soch bilan ko‘cha supurilmaydi, ko‘z yoshi bilan suv sepilmaydi. Lekin *yor yurgan ko‘chalarni supuray sochim bilan, changi chiqsa suv sepay ko‘zlardagi yoshim bilan*, deya kuylanadi. Buni lutf deyдилar. Zavqi yo‘q odam lutfni anglamaydi”⁴¹

O‘zbek tilida ko‘chma ma’noda qo‘llaniluvchi *Kerakli toshning og‘iri yo‘q* maqolining turkcha muqobili *Koça boynuzu yük değil* (“Qo‘chqorga shoxi og‘irlik qilmaydi”), *Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi* maqolining muqobili – *Cana gelen mala gelsin* [Jonga kelgan (balo) molga kelsin (ursin)].

Ta’kidlash joizki, o‘zbek tilida muqobili bo‘lmagan ko‘pchilik turkcha maqol va idiomalar so‘zma-so‘z tarjima qilinishi mumkin va uni kitobxon qiyinchiliksiz tushuna oladi. Bu fikrni G‘.Salomovning quyidagi so‘zlari tasdiqlaydi: “Ba’zi tillarda maqollarning obrazli asoslari

⁴¹ Воҳидов Эркин, Тўла асарлар тўплами, Тўртинчи жилд, Қиш ҳаловати, Сўз латофати. –Т., “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2016, 297-6.

aynan saqlangan holda tarjima qilinsa, sun'iy bo'lib chiqadi. Lekin ayrim hollarda so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan ham maqollarning ma'nosini to'liq ifodalash mumkin. Agar maqol yoki idiomaning asosi shu maqol tarjima qilinayotgan tilda ham, originaldagi kabi, umumlash-tiruvchilik, obrazlilik, shartlilik, abstraktlik xarakteriga ega bo'lsa, tarjima yaxshi natija beradi"⁴². Quyidagi misollarga e'tibor beraylik:

Çarşidan gelen üzüm çöpüne kadar tatlı olur (Bozordan kelgan uzumning cho'pi ham shirin bo'ladi);

Çam sakızı, çoban armağanı (Archa saqichi – cho'pon sovg'asi, ya'ni "Topgan gul keltirar, topmagan bir bosh piyoz");

Gördüm diyen gözü oyarlar, duydum diyen kulağı keserler (Ko'rdim degan ko'zni o'yarlar, eshitdim degan quloqni kesarlar);

Sırtı kaşınan it çobanın değneğine sürtünürmüş (Sırtı qichigan it cho'ponning tayog'iga suyanadi);

Bu guruhga tegishli bo'lgan *Görmeyenin oğlu olmuş, çekmiş çükünü koparmış* (Ko'rmagan o'g'il ko'ribdi, tortib (o'ynab) chukini uzibdi) maqoli bir ma'noda o'zbekcha "Ko'rmaganing ko'rgani qursin" maqoliga muvofiq keladi. Yoki, *Kızı rahat bıraksan ya davulcuya gider, ya zurnacıya* ("Qizingni o'z ixtiyoriga qo'ysang, yo nog'orachiga tegadi, yo surnaychiga") maqolini o'zbekchaga "Qizni o'z ixtiyoriga qo'ysang, yo karnaychiga tegadi, yo surnaychiga" shaklida berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu maqol tarkibidagi *davulcu* (nog'orachi), *zurnacı* (surnaychi) so'zlari obrazli asos sifatida olinadigan bo'lsa, o'zbek tilidagi o'xshash vaziyatdan farq qiladi. Ya'ni turklarda *davulcu* (nog'orachi), *zurnacı* (surnaychi) juftligi, o'zbeklarda esa *karnaychi-surnaychi* (karnay-surnay) juftligi qo'llaniladi.

Turli oilaga kiruvchi (uzoq) tillar orasida ham mazmunan mushtarak maqol va idiomalar uchraydi. Masalan, turkcha "tekinga kelgan narsaning kamchilik, nuqsoniga qaralmaydi" ma'nosidagi *Tekkeye gelen koyunun zayıfına semizine bakılmaz* (Xonaqohga kelgan (qurbonlik) qo'yning ori-q-semizligiga qaralmaydi) va unga ma'nodosh *Hediye atın dişine bakılmaz* ("Hadya qilingan otning tishiga qarab o'tirilmaydi") hamda uning varianti – "*Beleş atın dişine bakılmaz*" ("Tekinga kelgan otning tishiga qarab o'tirilmaydi") maqolining aynan muqobili rus tilida

⁴² Саломов Ф., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 46-бет.

ham bor: *Даренному коню в зубы не смотрят*⁴³. Bunday o‘xshashlik bejiz emas, ya’ni *Hediye atın dişine bakılmaz* maqoli turkchaga boshqa tildan o‘zlashgan bo‘lishi ham mumkin.

Turli til oilasiga mansub bo‘lsa-da, o‘zbek va rus tillaridagi ayrim maqol va idiomalar orasida o‘xshashliklar ko‘p kuzatiladi. So‘nggi yuz yil mobaynida tilimizga ruschadan juda ko‘p so‘z va atamalar qatorida ayrim maqol va idiomalar ham tarjima orqali o‘zlashib qolgan. Bularidan biri *из мухи делать слона* iborasidir (uning ruschadan o‘zlashgani ko‘pchilikka ma’lum emas). Ruscha idiomani “pashshadan fil yasamoq” yoki “pashshaday narsani filday qilib ko‘rsatmoq” shaklida tarjima qilsa bo‘ladi. Bunda hech qanday sun‘iylik yoki g‘alizlik sezilmaydi. Lekin o‘zbek tilida ayni tushuncha “ignaday narsani tuyaday qilib ko‘rsatmoq” iborasi vositasida ifodalanadi. Ruscha idiomada kichraytirish ob’ekti – “pashsha”, mubolag‘a vositasi esa “fil”, o‘zbekcha idiomada esa kichraytirish vositasi – “igna”, mubolag‘a ob’ekti – “tuya”. Lekin yuqoridagi o‘zbekcha idiomani ruschaga aynan o‘girib, “из иголки делать верблюда” deb tarjima qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Tarjima sun‘iy, ma’no g‘aliz chiqadi. Bundan tashqari, ruscha birikmaning har ikkala ob’ekti ham jonli narsaning nomini ifodalagani holda, o‘zbekcha birikmada ikkinchi obrazli asos jonli narsaning nomi “tuya”, birinchisi esa jonsiz narsaning nomi “igna” so‘zlaridan iborat. G‘.Salomov mazkur idioma xususida ruscha birikmada o‘xshatish prinsipi ko‘rilmasligi, ya’ni uning so‘zma-so‘z ma’nosi “pashshadan fil yasash”, o‘zbekcha birikmada esa o‘xshatish borligi (“ignadan tuya yasash” emas, balki “ignaday narsani tuyaday qilib ko‘rsatish” ma’nosida qo‘llanilishi)ni ta’kidlaydi⁴⁴. Ushbu iboraning turk tilida aynan muqobili mavjud: *pireyi deve yapmak* (burgadan tuya yasamoq). Turkcha-ruscha lug‘atda turkcha iboraning ruscha muqobili *делать из мухи слона* matali (поговорка), so‘zma-so‘z (igna – tuya, pire – deve, муха – слон) tarjimasi esa *делать из блохи верблюда* ekanligi yozilgan⁴⁵. Keltirilgan iboralardan yana shu narsa ma’lum bo‘ladiki, ular yuzaga kelayotganda predmet, obrazlar, xalqqa juda tanish, kundalik hayotda uchraydigan narsalar asos olingan.

⁴³ Пермяков Г.Л., Пословицы и поговорки народов Востока, Москва, 1979.

⁴⁴ *Qarang*: Саломов Ф., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 35-бет.

⁴⁵ Баскаков А.Н., Турецко-русский словарь, Türkçe-Rusça Sözlük. –М.: “Russkiy yazik” Yayınevi, 1977.c.722.

Yana bir ruscha iboraga e'tibor qaratamiz. O'ta mayda narsani katta joydan axtarishning foydasizligini ifodalovchi *искать иглу в стоге сена* iborasining turkcha muqobili *samanlıkta iğne aramak*dir. Demak, ruscha iborada igna "pichan g'arami ichidan" qidirilsa, turklar ignani "somonxonada" axtarar ekan. Ushbu iboraning o'zbek tilida ay- nan ekvivalenti mavjud emas. Shu bois uni so'zma-so'z o'girish mumkin [*somonxonada* (yoki *pichan g'aramidan*) *igna qidirmoq*].

"Maqol, matal va idiomalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda uning ma'nosini saqlash kifoya emas, balki mumkin qadar uning shakl xususiyatlarini ham aks ettirish zarur" – deb yozadi G'.Salomov⁴⁶. Masalan, o'zbekchada *Men bog'dan kelsam, sen tog'dan kelasan* idiomasi ruscha muqobili *Я про Фому, а ты – про Ерёму* yoki uning varianti *Я про Иван, а ты – про болван* ("Men Ivan desam, sen to'nka deysan") idiomasi hisoblanadi. O'zbekcha idioma tarkibida *bog'* va *tog'* so'zlari obrazli asos bo'lsa, ruscha birikma tarkibidagi obrazli asos *Фома* va *Ерёма* atoli otlaridir. *Иван* va *болван* ham ot turkumiga oid. O'zbekcha idiomani *Я про сад, ты – про горы* deb ruschaga ag'darib bo'lmagani singari, ruscha idioma tarkibidagi ismlarni ham o'zbekcha ismlar bilan almashtirib, *Men Eshmat desam, sen Toshmat deysan* deb tarjima qilib bo'lmaydi. Shuningdek, ruscha nomlarni aynan saqlab, *Men Foma desam, u Yeryoma deydi* yoki *Men Ivan desam, sen to'nka deysan* deb bo'lmaydi. Bunga o'xshash idioma turkchada ham bor (faqat u qo'pol so'z vositasida ifoda etiladi): *Ben diyorum Ankara, sen diyorsan götüm kara* (*Men deyman Anqara, sen deysan ketim qora*). Turkchada bu matalga yaqin ma'noli yana bir matal bor: *Ben diyorum hadımım, sen diyorsun kaç çocuğun var* ("Men xodim⁴⁷man desam, sen nechta bolang bor deysan"). Biroq har uch tilda obraz qanchalik farqli bo'lsa bo'lsin, ma'no, maqsad yagona, ya'ni "Gaplari poyma-poy, biri-biriga yopishmaydi, qovushmaydi". *Salkam bir soatdan beri dala shiyponida duv-duv gap borib, biri bog'dan kelsa, ikkinchisi tog'dan kelib Xosiyat xola haqida bahslashar edilar*. M. Muhamedov. *man bog'dan gapirsam, sen tog'dan kelasan*.

⁴⁶ Саломов Г., Рус тилидан ўзбекчага мақол, мatal ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 75-бет.

⁴⁷ Turkcha "hadım" so'zining lug'aviy ma'nosi "bichilgan haram xodimi" dir.

Oybek, Tanlangan asarlar. *Bog'dan gapirsang, tog'dan keladurlar!* A. Qodiriy, Kichik asarlar⁴⁸.

Dunyoning ko'pchilik tillarida "Sutdan og'zi kuygan qatigni "puf"-lab ichadi" maqoli mavjud. Jumladan, turklarda – *Sütten ağzı yanan yoğurdu üfleyerek yer* ("Sutdan og'zi kuygan qatigni "puf"-lab yeydi"), ruslarda – *Обжегшись на молоке, будешь дуть и на воду* ("Sutdan og'zing kuysa, suvni ham "puf"-laysan") kabi⁴⁹. Uch tilda bir xil ma'noda ishlatiladigan bu maqollarning obrazli asosi bir xil – "sut", lekin o'zbek va turk tillarida obrazli asos – "qatiq", rus tilida – "suv"dir. Ya'ni o'zbeklar "qatiq"ni "puf"-lab ichishsa, turklar "puf"-lab yeyishadi, ruslar esa – "suv"ni "puf"-laydilar. Bu yerda nozik ma'no farqi seziladi. Shu bois G'.Salomov bunga o'xshash maqollarni bitta andozadagi o'zbekcha maqol bilan tarjima qilaverish to'g'ri bo'lmasligini aytib, "ularni o'zbek tiliga shunday ag'darish lozimki, bunda mumkin qadar shu birikmalarning ma'no nozikligi ham o'z aksini topsin" – deya uqtiradi, *Обжегшись на молоке, будешь дуть и на воду* maqolini *Sutdan og'zi kuygan qatigni puflab ichar* deb tarjima qilish, ruscha maqolning lug'aviy ma'nosini hisobga olmaganda va u o'sha maqolning mazmuniga muvofiq vaziyatga qarab ishlatilmasa, shak-shubhasizdir. Albatta, uni "Sutdan og'zi kuygan suvni puflab ichar" deb tarjima qilish shart emas. Bunday o'rinlarda suvning o'rniga qatiq "ichiraverish" (turkcha – "yeyaverish") mumkin! Shuningdek, *Кого исколола колючка, тот осторожно шагает* maqolini ham *Ti-kan (tovoniga) kirgan (kishi) qadamini bilib bosadi* deb o'girsaxat bo'lmaydi.

O'zbek tilida "Ana gap qaerda?" degan ritorik so'roq shaklidagi iboralar bor. Buni rus tilida *Вот где зарыта собака* (so'zma-so'z: Ana (ko'rdingmi) it qaerga ko'milgan ekan!) deyishadi. G'.Salomov ushbu iboraning tarjimasi masalasida turli munozarali fikrlar borligi, u bir idioma sifatida asli nemis tilida yuzaga kelgani, so'ngra uning obrazli asosi, shakli va mazmuni aynan saqlangan holda rus tiliga tarjima qilin-

⁴⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли: 1-жилд, –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006, 416-б.

⁴⁹ Rus tilida mazkur maqolning *Битому псу только плоть покажи* (Kaltak yegan itga qamchini ko'rsatsang yetadi), *Пуганая ворона и куста боится* (Qo'rqqoq qarg'a butadan cho'chiydi), *Пуганый француз и от козы бежит* (Qo'rqqoq frantsuz echkidan cho'chiydi), *Кого исколола колючка, тот осторожно шагает* (Tovoniga tikan sanchilgan qadamini bilib bosadi) singari ma'nodosh shakllari ham qo'llaniladi.

ganligini ta'kidlar ekan (chunki buni rus tilining tabiati ko'targan, shu bois idioma nemis tilidan so'zma-so'z o'girilgan. Ammo boshqa tillarda ham aynan shunday bo'lishini talab qilish kulgili), ushbu idiomaning kontekstga ko'ra "*Hamma balo mana shunda*" yoki "*Hamma illat mana shunda*" variantlari vositasida tarjima qilish mumkinligi, shu bilan birga o'zbekcha idiomani rus tiliga so'zma-so'z o'girib bo'lmashligini uqtiradi⁵⁰.

O'xshash mazmundagi idioma turk tilida ham mavjud: *Bu değirmenin suyu nereden geliyor?* (*Bu tegirmonga suv qaerdan kelmoqda?*). E'tibor berib qaralsa, sanab o'tilgan tillarda qo'llanib kelayotgan idiomaning mazmuni bir-biriga juda yaqin. Lekin obrazni yuqoridagi nemischadan o'zlashgan maqol va uning turkcha muqobilda yaqqol sezish mumkin ("*cobaka*" va "*tegirmonning suvi*").

Turkiy xalqlar hayoti tabiat bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun o'z fikri, his-tuyg'usini so'zda ifoda qilishda tabiat hodisalari, real narsa, aniq predmetlarga tayanadi. Boshqacha aytganda, turk tili fikrni konkretlashtirish (somutlashtirma) yo'li bilan ifodalovchi tildir. Masalan, kuchli yomg'irni ifodalash uchun *bardaktan boşalırcasına* (stakandan quyganday) o'xshatishli ibora qo'llanadi. Buning o'zbekcha muqobili *chelakdan quyganday*, ruscha muqobili "льет как из ведра" bo'lar ekan⁵¹. Ushbu ibora o'zbekchaga rus tilidan o'zlashgan bo'lishi ham mumkin.

Shunga o'xshash, rus tilidan tarjima qilib o'zlashtirilgan iboralardan biri "Bo'rini oyog'i boqadi" ("Волка ноги кормят")dir. Qiziq tarafi, bunga o'xshash maqol turk xalqiga ham yaxshi ma'lum: *Kurda sormuşlar: Neden boynun kalın? Kurt cevap vermiş: Kendi işimi kendim görürüm de, ondan!*" (so'zma-so'z: "Bo'ridan so'rashibdi: Nima uchun bo'ying buncha yo'g'on? Bo'ri javob beribdi: O'z o'ljamni o'zim tashiyman-da, shuning uchun yo'g'on") kabi.

Ko'pchilik sharq tillarida, jumladan turk tilidagi qolip maqol, matallarni (пословичные клише) grammatik jihatdan uch turga bo'lish mumkin⁵²:

⁵⁰ Саломов Ғ., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 137-бет.

⁵¹ Ingliz tilida kuchli yomg'ir *It is raining cats and dogs* (mushuklar va kuchuklarday yomg'ir yog'yapti) o'xshatishli iborasi qo'llanilar ekan.

⁵² Пермяков Г.Л., Пословицы и поговорки народов Востока. –Москва: 1979, с.13

– alohida birikmalar (*ateşle barüti yanyana bırakmak* – olov bilan poroxni yonma-yon qoldirmoq)⁵³;

– mustaqil gap shaklidagi qoliplashgan gaplar (*Çeker döner sap döner, bir günü hesap döner* – ma’nosi: inson har bir amali uchun bir kun kelib hisob beradi);

– kichik sahna va hikoyachalar shaklidagi qoliplashgan gaplar:

Tuyaga: Muborak bo’lsin, seni shaxsan podshohning o’zi chaqiribdi! – deyishibdi. – Bilaman, yo Koxbga tuzga jo’natadi, yo Sharurga guruch olib kelishga (sharq.).

Eşegi düğüne çağırmışlar: “Ya odun eksik, ya su” – demiş (turk.) – Eshakni to’yga taklif qilishibdi, shunda u “Yo o’tin kam, yo – suv” – debdi. Bunday matallar xalqning qanchalik so’zga chechanligini va tilning keng imkoniyatlarini namoyish qiladi.

Yuqoridagi misollar nutqda tugallangan jumlarlar shaklida qo’llaniladi. Shunda *Ateşle barüti yanyana bırakmışsınız* (olov bilan poroxni birga qoldiribsiz) deyilganda, asosan, “bir yigit bilan bir qizni yolg’iz qoldirish” tushuniladi. Bunday birikmalar rus tilida “pogovorka”, ya’ni matallar jumlasiga kiritiladi. Yuqoridagi “*tuya*” (sharqda) va “*eşek*” (turklarda) obrazlari asos olingan o’git-jumlar rus paremiologiyasida **побасенки** (латифа, қизик ҳикояча) deb ta’rif etiladi⁵⁴.

Ba’zan tarjimonlar biron maqol yoki boshqa turdagi frazeologik birlikni o’z tiliga o’girar ekan, ularning aniq ekvivalenti yo’qligini vaj qilib, birlikning tarjima tilida mavjud, biroq ma’nosini to’la qoplay olmaydigan variantini qo’llaydilar. Bunday ish tutish tarjima tilining ifoda imkoniyatlarini chegaralab qo’yadi. G’.Salomov bu borada “Axir tilimizga ko’chma ma’noli birikmalar tarjima qilina bersa, til boyiydi. Bundan tashqari, siz o’ylab, juda yaxshi tarjima qilgan maqol yoki matal o’zbek tiliga kirib, bora-bora unga shu darajada singib ketishi mumkinki, bir vaqtlar kelib, u rus tilida mavjud o’sha maqolga ekvivalent bo’lib qoladi! Ehtimol, u bir vaqtlar asli shu birikmaning o’zidan nusxa ko’chirilganini, shu birikmaning «farzandi» ekanini ham hech kim eslay olmaydigan darajaga kelib qolar. Bu esa tarjimonning katta xizmatidir” – deya yozgan edi⁵⁵. Demak, turkchadan asar tarjima qiluvchi ijodkor o’zbek tilida ekvivalenti bo’lmagan maqol yoki idiomani cho’chimasdan o’girib

⁵³ “Оставить корову сторожить сено”

⁵⁴ Пермяков Г.Л., Пословицы и поговорки народов Востока. –Москва, 1979, с.14.

⁵⁵ Саломов Г., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 129-бет.

matnga singdirishi mumkin. Bunday yondashuv tarjimini o‘quvchi kitobxon uchun hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Masalan: *İki yiğit çıktı meydane, ikisi de birbirinden merdane* – Ikki yigit chiqdi maydona, ikkisi ham bir-biridan mardona; *Aklı köprü arayıncaya kadar deli suyu geçmiş* – Aqlli koprik qidirib topgunga qadar tentak suvdan kechibdi (O‘ychi o‘yiga yetguncha tavakkalchining ishi bitibdi); *Altın çamura düşse bile değerini kaybetmez* – Oltin loyga qorishsa-da, qiymatini yo‘qotmaydi⁵⁶; *Sırtı kaşınan it çobanın değneğine sürtünürmüs* – Yelkasi qichigan it choponning tayog‘iga suykalar emish (Sichqonning olgisi kelsa, mushuk bilan oynashadi); *Kaç sevaptan kurtulursun günahdan* – Qoch savobdan qutulasan gunohdan; *Pilavdan dönenin kaşığı kırılın* – Palovdan qaytganning qoshig‘i sinsin (Ўлдирса ош ўлдирсин) kabi.

Xulosa shuki, bir tildagi ma‘nodosh bir qancha maqol yoki idiomatik birikmaga ham o‘zbek tilidan muqobil topilmasa (yoki faqat bittagina ekvivalent variant topilsa), o‘sha ma‘nodosh birikmani faqat bittagina o‘zbekcha variant bilan tarjima qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Bu narsa tarjima tilini qashshoqlashtiradi, uning ifoda imkoniyatlarini chegaralab qo‘yadi. Demak, ma‘nodosh birikmalarning ekvivalentlari ona tilimizda bo‘lmagan shakllarini aynan tarjima qilgan ma‘qul. Bunda o‘sha ma‘nodagi birikmalardan birining o‘zbek tilida mavjudligi tarjimonga qo‘l kelishi mumkin.

1.3. Maqol, matal va iboralar eskiradimi?

Tilning o‘ziga xosligi, tabiati, kamolot darajasini ko‘rsatadigan maqol, matal va iboralar inson badiiy tafakkurining mahsuli, ming yillardan buyon qo‘llanib kelayotgan ma‘naviy boylik, milliy qadriyat hisoblanadi. Shunga qaramay, zamonaning tez suratlar bilan o‘zgarib, taraqqiy etib borishi hozirgi avlod vakillari nutqida bunday “eskirmas” birliklarning qo‘llanish doirasi, afsuski, qisqarib borayotgani, hatto, ba’zi maqol va iboralar faqatgina badiiy adabiyotda ahyon-ahyonda

⁵⁶ Rus tilidagi ekvivalenti “Алмаз и в грязи блесит” (so‘zma-so‘z: “Olmos loyda ham yaltiraydi”).

uchrab qolayotganini ko‘rsatadi⁵⁷. Buning asosiy sababi frazeologik birliklar obrazli asosining eskirganligi bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida mashhur bo‘lgan “Er-xotinning urushi – doka ro‘molning qurishi” yoki “Er-xotin – qo‘sh-ho‘kiz” maqollarini oladigan bo‘lsak, ularni eshitgach, hozirgi avlod gap nima haqda borayotganligini darrov fahmlasa-da, maqol negizida yotgan obrazni teran his qila olmasligi mumkin. Chunki, doka ro‘mol yuvib quritilmay yoki yerlarning qo‘sh-ho‘kiz yordamida haydalmay qo‘yganiga yarim, hatto salkam bir asr bo‘lgan. Shu kabi, “tayyorga ayyor” iborasiga sinonim bo‘lgan “O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, xirmonda hozir” (bir zamonlar bug‘doy o‘roq bilan o‘rilgan. Uni “o‘rib-yig‘ib olish paytida, o‘rimdan keyin yerga to‘kilib qolgan boshloqlar” mashoq deyilgan⁵⁸) yoki “Tayyor oshga bakovul” (ma‘nosi: Tayyoriga ayyor, qulay vaziyatdan foydalanib qoluvchi odam) matallarining ham vaqt o‘tgan sari qo‘llanish maydoni torayib kelayotganini ko‘rish mumkin (“bakovul” – eskirgan so‘z)⁵⁹. *Qiz bo‘yiga yetgandan keyin, Mamasaid “tayyor oshga bakovul” bo‘ldi: “Men eng yaqin tog‘aman, shuning uchun ota o‘rniga otaman”, deb da‘vo qildi.* (P.Tursun, O‘qituvchi)⁶⁰. *Tayyor oshga bakovul bo‘laman desang, hammaning ko‘ziga xunuk ko‘rinasan* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari)⁶¹.

“Maqol va matallar xalq aql-idrokinining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari, turmushdagi turli hodisa – voqealarga munosabati demakdir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlariga munosabatida yaratiladi. Xalq maqoli – xalqning mulkidir. Maqol qayg‘usi – xalq qayg‘usi. Maqol g‘azabi – xalq g‘azabi, maqol kulgusi

⁵⁷ Хамидов Х.Х., Мақол, матал ва иборалар эскирадимиз?, Ўзбекистонда филология илми ва таълими: Натижа ва истиқбол. Республика филолог-олимлари анжумани материаллари. III жилд – Самарқанд: 2016 йил 11-12 ноябрь. 44-бет.

⁵⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-жилд: –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 656-б.

⁵⁹ Ўзбек тилининг беш томлик изоҳли луғатига юқорида келтирилган мақоллардан биттаси (“Эр-хотин – кўш-хўкиз” мақоли) берилмаган.

⁶⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-жилд: –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 174-б.

⁶¹ Ushbu jumla rus tiliga *Если ты думаешь прийти на все готовенькое, на тебя поглядят косо* deb o‘g‘irilgan. Jumla erkin tarjima qilingan bo‘lsa-da, mazmun bera olingan. Shunga qaramay, maqolning quyidagiga o‘xshash muqobillarini topish mumkin edi: *Где олады, тут и ладно; где блины, тут и мы. Yoki: Где каша, там и наши* kabi.

– xalq kulgusi va maqol kinoyasi – xalq kinoyasi demakdir. Maqol yaratmagan bironta til, maqol ishlatmagan bironta xalq yo‘q.”– deb yozgan edi G‘. Salomov⁶².

Bundan ilgari faslida keltirib o‘tilgan, o‘zbek xalqida mashhur “*So‘z ko‘rki – maqol, yigit ko‘rki – soqol*” maqolini oladigan bo‘lsak, bugungi kunda, asosan, o‘z ma‘nosida qo‘llanilib, ko‘chma ma‘no kasb etmaydigan ushbu maqolni eskirgan maqol sifatida baholash, shu kabi “Ayolning sochi uzun aqli qisqa bo‘ladi” maqolini ham bu guruhga kiritish mumkin.

O‘zbek va turk tillaridagi maqol va iboralarining ko‘pchiligi bir-biriga o‘xshash. Shunga qaramay, turk tilidagi ayrim maqol, matal va iboralar o‘ziga xos, farqli, biroq ularni anglash oson. Ayniqsa, turklarda qadim zamonlardan qolgan maqollar so‘zma-so‘z o‘zbekchaga o‘girilsa-da, ularni tushunish qiyin emas. Masalan, ilgari bug‘doy, arpa o‘rib-yig‘ilgandan so‘ng, xirmonning ustidan 1-2 kun tinimsiz ot, ho‘kiz, eshak haydalib, bug‘doy va arpa poyalari yanchilgan (ko‘pincha otga og‘ir molaga o‘xshash narsa qo‘shilgan). So‘ngra shamol esa boshlagach, yanchilgan donli somon sovurilgan va doni ajratib olingan. O‘sha paytlarda *Harman döven beygirin (öküzün) ağzı bağlanmaz* (“Xo‘p haydaydigan ot (ho‘kiz)ning og‘zini bog‘lab bo‘lmaydi”) maqoli yuzaga kelgan. “Xo‘p haydagan” jonivor bug‘doy, arpa poyalarini to‘yganicha yegan va bunga to‘sqinlik qilish befoyda bo‘lgan⁶³. Ana shu asosda insonga nisbatan qo‘llaniladigan maqol yuzaga kelgan (ma‘nosi: agar inson moddiy ne‘matlar ichida yurgan bo‘lsa yoki uning yumushi shu moddiy narsalar bilan bog‘liq bo‘lsa, uni nazorat qilish yoki o‘sha narsalardan foydalanishini taqiqlash imkonsiz. Masalan, bir guruh kishi bog‘da meva terayotgan bo‘lsa, ularning meva yeyishlariga mone‘ bo‘lish qiyin). Bundan o‘zbek va turk tillaridagi eskirgan maqol, matal va iboralarining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi, chorvachilik yoki kundalik maishiy turmush mavzularida aytilganligi ma‘lum bo‘ladi.

Turkcha *‘Yük devesi bağırған olur’* yoki uning varianti bo‘lgan *‘Yükü çeken deve bozular’* (ma‘nosi: “Yuk tashuvchi tuya baqiroq

⁶² Саломов Г., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. –Т.: 1961, 7-бет.

⁶³ *Xo‘p* yoki *xo‘ptir* – g‘alla yanchish uchun ot, xo‘kiz kabi ishchi hayvonlar qo‘shib yurgiziladigan, shox-shabbdan yasalgan, ustiga odatda og‘ir yuk bostirib qo‘yiladigan molasimon mahalliy qurol. *Xo‘ptir haydamoq*.

bo'ladi") maqolini olaylik. Qadimda asosiy transport vositalaridan biri bo'lgan tuya har doim ham og'ir yuk tashimagan. Uning bo'zlashiga sabab bo'lgan holatlardan biri og'ir yuk bo'lishi mumkin. Lekin, bu gap insonga nisbatan qo'llanilganda, frazeologik ma'no yuzaga kelgan. Maqol vositasida "og'ir mehnat qilayotgan kishining "tili uzun" bo'lishi, ba'zan qilayotgan ishini minnat qilishi mumkinligi ta'kidlangan. Maqol vaqt o'tishi bilan "eskirib", tuyani faqat filmlarda, jonli tuyani esa hayvonot bog'ida ko'ra oladigan avlod nutqidan chiqib ketgan. Chunki, hozirgi va kelajak avlod yuk tashish taranporti vositasi sifatida zamonaviy avtotransportni tushunadi. Shuningdek, o'zbekcha *nonini tuya qilmoq* iborasining turk tilida ham, rus tilida ham muqobili yoq. Uning ma'nosi: "birovning narsasi, ulushi va sh.k. ga sherik bo'lmoq, undan o'marmoq"dir: *Ishonamizki, go'daklar nonini tuya qilib kelayotgan Unsin Boltaboevani og'ir tashvishdan tez xalos etib, u bilan uzil-kesil gaplashib qo'yadigan mardiy maydon topilur* (Sh.Tohirov, Teshik tomoq). *Qachongacha mahalla hisobiga kayfu safo qilib, xalq nonini tuya qiladilar* (Gazetadan)⁶⁴.

"Maqol eskiradi" degan fikrni *Atin iyisini genç, kadının iyisini ihtiyar alır*' (Otning yaxshisini yosh, xotinning yaxshisini keksa oladi) maqoli ham isbotlaydi. Amaliyot bu maqol ostidagi ma'noni ham yoshlar qiyinchilik bilan anglayotganini ko'rsatmoqda (chunki yosh yigitlarning ot olmay qo'yganiga ancha bo'lgan).

Vaqt kelib, yosh avlodga *Çarşı iti ile ava gidilmez* (Bozorda yuradigan it ovga yaramaydi) maqoli ham tushunarsiz bo'lib qolishi ehtimoldan xoli emas. Yaqin-yaqinlarga qadar sharq mamlakatlarida bozorlarda itlar bemalol kezib, tashlangan suyak, sarqit taomlar bilan oziqlanib yurishgan. Hech kimning bunday itlar bilan ishi bo'lmagan. "Yugurib-elmasdan" "rizqini terib yeb", so'ngra oftobda yastanib yotadigan itlarni ovga olib borishdan foyda bo'lmagan. Hozirgi zamonaviy orasta bozorlar, supermarketlarga o'rgangan yosh avlodga bu maqolning ma'nosini tushunish va uni nutqda qo'llashni talab qilish ham "qiyin" bo'ladi.

Ayrim turkcha maqollar tushunarli bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan o'z qimmatini yo'qotishi mumkin. Masalan, dunyoda urushlar hukm surgan davrlarda paydo bo'lgan turkcha *"Askerin parası pul, karısı dul"* (so'z-

⁶⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4-жилд: -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. -Т., 2006.

ma-so‘z: *harbiy (kishi)ning puli – sariq chaqa, xotini – tul*, ya’ni “harbiy kishining topgan puli hech nimaga arzimaydi, jangda halok bo‘ladigan bo‘lsa, xotini beva qoladi”) va uning varianti bo‘lgan “*Denizcinin parasi pul, karısı dul*” (“Dengizchining puli – chaqa, xotini – beva”) bugungi kunda qo‘llanilmay qo‘ygan. Maqol vositasida bir sharaflı kasb kamsitilib, vaziyatga bir yoqlamali munosabat bildirilgan.

Aslida, maqol, matal va iboralar hech qachon eskirmasligi kerak. Buni buyuk bobokalonlardan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t turk” asaridagi maqol va iboralar ham tasdiqlaydi. Ustoz G‘.Salomov ta’biri bilan aytganda, “Xalqimizning tarixda kechirgan mashaqqatli hayoti, og‘ir qismati, erksizlik va haqsizliklar uning maqol va matallarida o‘z aksini topgan. Shu bilan birga, xalqning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi, orzu-umidlari, niyat-istaklari ham uning maqollarida o‘z ifodasini topgan”⁶⁵. Shu bois ularning eskirib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Bundan oldin ham aytib o‘tilgan, dunyoning ko‘pchilik xalqlari frazeologik xazinasida mavjud, jumladan, turkchada “*Hediyelik atın dişine bakılmaz*” (“Hadya qilingan otning tishiga qarab o‘tirilmaydi”) maqolining obrazli asosi eskirganiga qaramay (endilikda ot kamdan-kam hadya qilinadi), uni eskirib qoldi, qo‘llanmaydi, deyish yanglish⁶⁶.

Turkiy tillarda og‘zaki nutqda nafaqat maqol va matallar, balki iboralarining ham eskirib borayotganligini kuzatish mumkin. “Maqollar xalqning ming yillik tajribasi natijasida ega bo‘lingan hayot haqiqatlarining ixcham ifodasi bo‘lsa, iboralar, asosan, bir hikoya, rivoyat yoki voqea-hodisaga asoslanadi. Shuningdek, ba’zi shaxslar bilan bog‘liq xotiralar, hikoyalar ham iboralarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan”⁶⁷ – deb yozadi turk tadqiqotchisi Iskandar Pala. Misollarga murojaat qilamiz: ko‘p yillar tahsil olgan, ilm-fan bilan shug‘ullangan kishilarga nisbatan qadim zamonlardan buyon qo‘llanib kelingan ***mürekkep yalamak***⁶⁸ (*siyoh yalamoq*) iborasi, hali matbaa

⁶⁵ Саломов Г., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 7-бет.

⁶⁶ Hozirda keltirilgan maqolning “*Beleş atın dişine bakılmaz*” (Tekin kelgan otning tishiga qarab o‘tirilmaydi), *Tekkeye gelen koyunun semizine zayıfına bakılmaz* (Xonaqohga keltirilgan qo‘yning semiz-orig‘iga qaralmaydi) degan sinonimlari bot-bot qo‘llaniladi.

⁶⁷ Pala İskender, İki Dirhem Bir Çekirdek, Kapı Yayınları, Bütün Eserleri, 21. –İstanbul: 2010, S.6.

⁶⁸ O‘sha kitob, s.165-166.

xizmati, bosmaxonalar bo‘lmagan, kitoblar hattotlar tomonidan ko‘chirilgan zamonlarda paydo bo‘lgan. Qo‘lyozma kitoblar tayyorlanayotganda qalam bir tekis, beg‘ubor yozishi uchun yozuv yoziladigan xom qog‘oz yoki terining ustiga tuxumning oqi va kraxmaldan tayyorlangan ohor to‘kilib ishlov berilgan, undan keyin silliqalanib, qog‘ozning ustiga bir tekisda surilgan. Ohor suv tegishi bilan darhol erigan. Shuning uchun hattotlar yozuvni barmoqlarini ho‘llab, imlo xatolarini o‘chirib tuzatganlar. Shu tarzda ohor tarqalib, ohor bilan birga xato harf, so‘z, hatto jumla ham o‘chirilgan. Shunda hattotning barmog‘i istar istamas tiliga tegib, labi siyoh yalaganga o‘xshab qolgan. Siyoh nam tekkach, oson erigani bois qo‘lyozma asarlarga suv tegishiga yo‘l qo‘yilmagan. Bu narsa hattotlarga juda qo‘l kelgan. Patqalamning uchida qolgan siyoh dog‘ini tozalash yoki sahifaga kichik imlo qo‘yish uchun qalam qayta siyohga botirilib, isrof bo‘lmasligi uchun uchi tilga tekkizilib siyoh eritilgan. Tabiiyki, bunday “siyoh yalagan” kishilar o‘qimishli, ziyoli hisoblangan, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatilgan⁶⁹ (hozirda bu iboraning ma‘nosini yoshlar deyarli tushunishmaydi va nutqda qo‘llanishmaydi).

Bugungi kunda deyarli iste‘molda bo‘lmagan ayrim turkcha iboralarini tashkil etuvchi komponentlar o‘zining predmet ma‘nosini yo‘qotmasa-da, ibora ostidagi frazeologik ma‘no eskirib qolgan. Masalan, “kutgan narsasiga erisha olmaslik” ma‘nosidagi turkcha *avucunu yalamak* (“hovuchini yalamoq”) iborasi ilk bor turk tilida ayollar nutqida paydo bo‘lgan⁷⁰. Bunga homilador yoki bola emizadigan ayolga ko‘ngli tusagan yeguligi vaqtida topib berilmasa, ko‘kragi shishib qolishi yoki suti kamayib ketishi mumkinligiga ishonish asos bo‘lgan. Yo‘qsillik, xastalik va boshqa sabablarga ko‘ra istagan narsasini topib iste‘mol qila olmagan ayol o‘sha narsaning mazasini tatib ko‘rayotgandek kaftini yalagan va shu tarzda istagan yeguligini totgandek bo‘lgan⁷¹.

Turk tili frazeologiyasida ilgari jargon iboralar turkumiga kiritilgan, kelib chiqish tarixi hozirda kamdan-kam kishiga ma‘lum bo‘lgan,

⁶⁹ Хамидов Х., Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. –Т., ТошДШИ, 2014., 104-бет.

⁷⁰ Pala İskender, İki Dirhem Bir Çekirdek, Kapı Yayınları, Bütün Eserleri, 21. –İstanbul, 2010. –S. 33.

⁷¹ Хамидов Х., Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. –Т., ТошДШИ, 2014., 100-бет.

iste'moldan deyarli chiqib bo'lgan *ağzına tükürmek* ("og'ziga tupurmoq") iborasining yuzaga kelishiga ayrim xurofiy urf-odatlar asos bo'lgan⁷². Qadimda ba'zi xastaliklarga uchragan kishilar dam solib "shifo" beruvchi, xalqni aldash evaziga tirikchilik qilgan johil domlarga olib borilgan. Bunday shaxslarning tumor yasashlari yoki dam solishlari uchun bir ustozdan "qo'l olishlari" kerak bo'lgan. "Ustoz"lar ramziy ma'noda shogirdlarining og'izlariga "tuf-tuf" deb qo'yishgan. Shundan keyin "shogirdlar" "ustozlari"ning vakolatlarini qo'llana olgan. Tabiiyki, buning evaziga "tupurgan" kishiga biron narsa "hadya" qilingan. Farzandlari voyaga yetgan ota-onalar yangi tug'ilgan chaqaloqlarini obro'-e'tiborli kishilar yoniga olib borib, og'izlariga tupurtirishgan va farzandlarini o'sha kishilarga o'xshashlarini niyat qilishgan. Bunday odat Onado'lida hozirgacha saqlangan. *Ağzına tükürmek* ("ağzına tüküreyim..." – "og'ziga tupuray...") iborasi orqali bironing og'ziga tupurmoqchi ekanligini ta'kidlagan kishi o'zining boshqalardan, xususan, yonida turgan kishidan ustun ekanligiga ishora qiladi. Hatto, ba'zan, mazkur iboraning zamirida do'q-po'pisa yotganini ham anglash mumkin: *Bu konuda ben onun ağzına tükürürüm* (so'zma-so'z: Men bu borada uning og'ziga tupuraman) kabi. "Og'ziga tupurmoq" iborasi haqorat ma'nosida ham qo'llaniladi⁷³.

Obrazli asosi eskirgan, o'zbekcha "yuragidan urmoq" iborasiga to'g'ri keluvchi turkcha *abayı yakmak*⁷⁴ (chakmonni yoqmoq) iborasi "oshiq bo'lib qolmoq, ko'ngil bermoq" ma'nosiga ega. Uning yuzaga kelish tarixini juda kam odam biladi. O'tmishda darvishlar orasida paydo bo'lgan bu iborada erkak va ayol o'rtasidagi ishq-muhabbat haqida so'z bormaydi ("*Ooo! Abası hayli yanıktır!*" – "O'-ho', chakmoni yonib ado bo'libdi-ku bu odamning!"). Iboraning yuzaga kelishiga quyidagi vaziyat asos bo'lgan: Qadimda darvishlar istiqomat qilgan xonaqohlarning xonalari qish oylarida gulxan yoqib isitilgan. Bu yerda darvishlar pirlaridan saboq olishgan. Shunday kechalardan birida egniga chakmon (abo) kiygan darvishlar davra qurib, pir – shayxning jo'shqin ma'ruzasini tinglar ekan, hushlaridan ketganlari ham bo'lgan. Bir kecha

⁷² Pala İskender, İki Dirhem Bir Çekirdek, Kapı Yayınları, Bütün Eserleri, 21. –İstanbul, 2010. –S. 7-8.

⁷³ Хамидов Х., Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. –Т., ТошДШИ, 2014, 102-103-бет.

⁷⁴ Pala İskender, İki Dirhem Bir Çekirdek, Kapı Yayınları, Bütün Eserleri, 21. –İstanbul, 2010. –S.3.

darveshlardan biri o'choqqa orqasini o'girib o'tirgancha o'zidan kechib, chakmoni tutay boshlaganini sezmaydi. O'z piri uchun yonishga ham tayyor darvishni ko'rgan shayx muridining chakmoni tutayotganini ko'rib, uni darhol ogohlantiradi. Keyin do'stlari orasida xijolat bo'lmasin deb uni "Haqiqiy Alloh oshig'i" deb maqtab qo'yadi. Bugungi kunda iboraga aylangan oshiqlikdan o'zligini unutib "chakmonini kuydirmoq" ma'nosidagi *abay yakmak* iborasi yuzaga kelgan⁷⁵.

Maqol va iboralarning eskirmasligi, ularning hamisha barhayot bo'lishini ta'minlash uchun nafaqat maqol va iboralar lug'atlariga, balki tilning asosiy izohli lug'atiga kiritilishi, shu bilan birga, yaratilayotgan badiiy asarlarda, televizion ko'rsatuvlar, badiiy filmlarda keng qo'llanilishiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Zero, maqol va matallar tilning bitmas-tuganmas xazinasi, oltinidir. Oltin esa hech qachon zanglamaydi.

1.4. Badiiy saviya – tarjima mezonlari

Ijod jarayonida tarjimon so'z ma'nosini anglashda faqat so'zning semantik tuzilmasini bilishdan tashqari, aslyat tilida so'zlashuvchi kishilarning badiiy tafakkuri, fikrlash tarzi va dunyoni til unsurlari yordamida bilish xususiyatlaridan ham xabardor bo'lish lozim⁷⁶. Chunki mazkur vazifalarni so'zlarning sof lingvistik tahliliga yuklash qiyin. Bu esa til hodisasining tabiati, mohiyatini chuqurroq tushunish uchun ongda "pishirib" o'z tilida o'quvchiga bekamu-ko'st uzatish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Yana shu narsa ma'lumki, muallif asar yaratishda kompozitsiya, syujet chizig'i, asar uslubi haqida bosh qotirmaydi, muallifning maqsadi voqelikni badiiy aks ettirishdangina iborat bo'lib, u beixtiyor, o'zigagina xos uslubni kashf etadi. Muallif asar yaratar ekan, har bir hodisa, vaziyat, umuman, voqelikka o'z nazari bilan qarab, asar g'oyasidan kelib chiqqan holda mos detallar tanlaydi va asar mazmunida salmoqli o'rin tutgan fikrni ifodalaydi.

⁷⁵ Хамидов Х., Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. –Т.: ТошДШИ, 2014., 103-104-бет

⁷⁶ Хамидов Х.Х., Бадий савия – таржима мезони (айрим янги таржималарнинг савияси хусусида), мақола, Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами, 3-кисм. – Т.: ТошДШИ, 2015, 50-б.

Tarjimoning vazifasi esa asar uslubi, yozuvchining iste’dodi qirralarini tarjima tilida qayta yaratishdan iborat.

Badiiy asar kabi, barkamol tarjimaning ham yagona, imkoniyatlariga boy bo‘lgan tili – umumxalq tilidir. Chunki har qanday tarjima asari alohida guruh kishilari yoki mutaxassis uchun emas, keng kitobxon ommasi uchun mo‘ljallanadi. Agar tarjimon asliyat muallifining so‘zni qanchalik katta mahorat bilan tanlaganini his eta olsa, tarjimada so‘zni shunchalik ishonchli bera oladi.

Tarjima asl nusxaga mos uslub kaliti topishni talab etadi. “Asarning kalitini topish asarning uslubi bilan g‘oyasi hamda muallif dunyoqarashi orasidagi bog‘lanishini to‘g‘ri belgilash, marom, ohang, sintaktik tarz va obrazlar silsilasiga xos xususiyatlarni to‘g‘ri tayin qila bilishga bog‘liq. Asarni tarjima qilishda maqbul uslub kaliti topilmas ekan, tarjima asl nusxaga ekvivalentlik holatida bo‘la olmaydi”⁷⁷ – deb yozadi G‘.Salomov. Boshqacha aytganda, tarjimon o‘zi tanlagan asarni qayta yaratishga kirishishdan oldin asliyat muallifining uslubi, obrazlar tizimi, asar ritmikasini belgilab olmog‘i kerak. Taniqli tarjimashunos E.Aznaurova uslubni qayta yaratish borasida shunday yozadi: “...tarjimoning vazifasi badiiy tarjimada so‘zlarni qayta tiklash emas, fikr va obrazlarni qayta yaratish, boshqa tilning til strukturasi elementlarini emas, balki intonatsiyasini, ohangini, boshqacha aytganda, stilistik forma va yo‘llarini o‘zicha emas, balki mazkur stilistik kategoriyada ifoda etilgan ma’noviy va she’riy mazmunlarni qayta tiklash hisoblanadi”⁷⁸. Olima yana shunday degan edi: “Tarjimon asl nusxaning ruhini o‘rganish vaqtida jumla va hatto abzatslarga tayanishi kerak emas, chunki ohang uyg‘unligi, ma’no va obraz mazmunining yagonaligini tekst tugallangach aniqlab olish mumkin. Bunday parchaning jumla yoki abzatsdan farqi uning badiiy adabiyot elementi bo‘lganligidir”⁷⁹. Bu fikrni izohlashga hecham hojat yo‘q.

Badiiy saviya tarjimaning asosiy mezonini ekanligi masalasi ushbu faslda R.N.Guntekinning turk adabiyoti mumtoz namunalariga sirasiga kirgan va so‘nggi yillarda birin-ketin o‘zbekchaga o‘girilib nashr etil-

⁷⁷ Саломов Г., Таржима назарияси асослари. Т.: «Ўқитувчи», 1983., –Б.83.

⁷⁸ Азнаурова Э., Бадий таржиманинг асосий проблемалари, мақола, Таржима санъати, мақолалар тўплами, Ўзбекистон Бадий адабиёт нашриёти. –Т.: 1961, 7-б.

⁷⁹ O‘sha asar, 11-б.

gan, filmlar yaratilgan “To‘kilgan yaproqlar”⁸⁰ (“Yapraq Dökümü”⁸¹) hamda “Muhabbat Simfoniyasi”⁸² (“Dudaktan Kalbe”⁸³) romanlarining tarjimalari misolida ko‘rib chiqildi.

Haqiqiy tarjimon ish jarayonida yozuvchi singari o‘z ishiga ijodiy yondashadi. So‘zni so‘z bilan emas, uning zamiridagi ma’noni, obrazni, his-tuyg‘uni berishga harakat qiladi.

Tarjimon asliyat uslubini saqlashga harakat qilgan matnlar tahliliga e’tibor qaratamiz: *“Muteessir olmayın... İnsanlarda iyilik asıldır. Şimdiye kadar dört duvar arasında yaşamış bu saf ve cahil kadın, insanlarda iyiliğin asıl olduğuna, nedense bu güngörmüş, saçlı sakallı idare adamı kadar inanmak istemedi ve geldiği gibi ağlaya ağlaya şirketten çıkıp gitti”*⁸⁴. Ushbu jumla o‘zbekchaga quyidagicha o‘girilgan: *“Ko‘p siqilavermang... Insonlar oldindan olijanob. Hozirga qadar to‘rt devor orasida yashagan soddadil va omi ayol ko‘pni ko‘rgan, soch-soqoli oqargan bu keksa ma’murga o‘xshab insonlarning olijanob ekanligiga ishongisi kelmadi va yig‘lab kelganiday, yig‘lay-yig‘lay shirkatdan chiqib ketdi”*⁸⁵. O‘zbekcha matnda tarjimonning individualligi o‘z aksini topgan, asliyatning badiiy uslubiy yaxlitligini qayta yaratishdagi mahorati namoyon bo‘lgan.

O‘zbek va turk tillari bir-biriga yaqin tillar bo‘lgani bois ayrim o‘rinlarda so‘zma-so‘z tarjima ham samara berishi mumkinligini tarjimon yaxshi biladi. Endi turk adibining “Yapraq Dökümü” (“To‘kilgan yaproqlar”) romanidan olingan bir jumla va uning o‘zbekcha tarjimasiga e’tibor beramiz: *“Bu sözlerde bir yalan varsa günahı söyleyenlerin boynunaydı”*⁸⁶ gapi *“Bu gaplarda qandaydir*

⁸⁰ Гунтекин Р.Н., Тўкилган япроқлар, роман, туркчадан Б.М.Шариф таржимаси. – Т., “Янги аср авлоди”, 2013.

⁸¹ Güntekin R.N., Yapraq Dökümü, [mutlukitap@hotmail.com](mailto:kitapsevenler@gmail.com). <mailto:kitapsevenler@gmail.com>

⁸² Гунтекин Р.Н., Муҳаббат симфонияси, роман, М.Аъзам таржимаси, Ф.Фулом нашриёти. -Т., 2011.

⁸³ Güntekin R.N., Dudaktan Kalbe, [mutlukitap@hotmail.com](mailto:kitapsevenler@gmail.com). <mailto:kitapsevenler@gmail.com>

⁸⁴ Güntekin R.N., Yapraq Dökümü, [mutlukitap@hotmail.com](mailto:kitapsevenler@gmail.com). <mailto:kitapsevenler@gmail.com>, S.12.

⁸⁵ Гунтекин Р.Н., Тўкилган япроқлар, роман. –Т.: 2013, 213-6.

⁸⁶ Güntekin R.N., Yapraq Dökümü, [mutlukitap@hotmail.com](mailto:kitapsevenler@gmail.com). <mailto:kitapsevenler@gmail.com>, S.94.

yolg'on bo'lsa, gunohi so'zlaganlarning bo'ynida"⁸⁷ shaklida to'g'ri berilgan. "*Günahı boynuna*" iborasi "*gunohi bo'ynida*" shaklida so'zma-so'z o'girilganini ham ijobiy qabul qilish mumkin.

Badiiy tarjimada asliyat uslubining berilishi va bunda so'z tanlash masalasini taniqli tarjimon Miraziz A'zam tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan "Dudaktan Kalbe" ("Muhabbat Simfoniyasi") romani misolida ko'rib chiqishga, R.N.Guntekin uslubi o'zbek tilida qay saviyada qayta yarata olinganligi xususida fikr yuritish, tarjimon erishgan yutuq va yo'l qo'ygan kamchiliklarini aniq misollar yordamida ko'rsatishga, ayrim o'rinlarda xolis takliflar berishga urinib ko'ramiz.

Umuman olganda, "Dudaktan Kalbe" romanini tarjima qilish bilan M.A'zam o'zbek adabiyotining bitta badiiy asar ("Muhabbat Simfoniyasi")ga boyishiga, o'zbek kitobxonlarini teleserial orqali tanishgan savimli qahramonlari bilan kitob orqali yaqindan tanishtirishga muvaffaq bo'lgan. Tarjimaning tahsinga sazovor yutuqlari talaygina. Biroq tarjimada asliyat uslubi, badiiylilikning berilishi borasida ayrim tortishuvli jihatlar ham yo'q emas. Gap shundaki, o'zbek va turk xalqlari og'zaki ijodidagi ruhiy yaqinlik, ikki xalq ijodiy fantaziyasidagi uyg'unlik, urfodat va udumlarning o'xshashligi tarjimonga juda qo'l kelgan. Turkcha romanning o'zbek tilida jaranglagani sabablaridan biri shu. Lekin, ayrim milliy xos so'zlar yoki o'ziga xos vaziyatlar ikki xalq kitobxoniga har doim ham baravar "tushunarli" bo'lmasligi mumkin. Buni tarjimon har doim diqqat markazida tutmog'i lozim. Misollarga murojaat qilamiz:

*"Fakat her aşk gibi bu da nihayet meydana çıkmış, dedikodu bütün İzmir'e yayılmıştı"*⁸⁸ gapidagi *aşk* so'zining kontekstdagi ma'nosi "ishq hikoyasi", "sevgi tarixi"dir. O'zbekcha tarjimada ushbu gap "*Lekin har qanday savdo kabi bu savdo ham nihoyat o'rta chiqqan, ovozası bütün İzmir'ga yoyilgandı*"⁸⁹ shaklida berilgan. "*Aşk*" so'zini "*Böylelikle genç kıza ümitsiz aşkını, İzmir'e de bu çirkin vakayı unutturacaklarını umuyorlardı*"⁹⁰ jumlasida ham uchratamiz. Bu gap o'zbek tiliga "*Shu tariqa yosh qizga umidsiz savdosini, İzmir'ga esa bu çirkin voqeani unuttira olishlarini umid qilardilar*"⁹¹ deb o'girilgan. Tarjimon ikkala gapni ham so'zma-

⁸⁷ Гунтекин Р.Н., Тўқилган япроқлар, роман. –Т.: 2013, 333-6.

⁸⁸ Güntekin R.N., Dudaktan Kalbe, mutlukitap@hotmail.com. 20-b.

⁸⁹ Гунтекин Р.Н., Муҳаббат симфонияси, роман, М.Аъзам таржимаси, Ғ.Ғулом нашриёти. -Т., 2011, 15-6.

⁹⁰ Güntekin R.N., Dudaktan Kalbe, mutlukitap@hotmail.com., 21-6.

⁹¹ Гунтекин Р.Н., Муҳаббат симфонияси, роман, М.Аъзам таржимаси, Ғ.Ғулом нашриёти. -Т., 2011,15-6.

soʻz oʻgʻirgan. Shunga yarasha, ikkala gapda kelgan “*aşk*” soʻzini, hech boʻlmaganda “*ishq*” yoki “*ishq savdosi*” deb oʻgʻirganda tarjima oʻzbekcha chiqqan boʻlardi. Chunki, “*aşk*” soʻzining maʼnosi “kuchli sevgi va bogʻliqlik tuygʻusi, cheksiz muhabbat”dir. Shularni hisobga olib, birinchi gapni “*Lekin har qanday ishq savdosi kabi ularning muhabbat afsonasi ham nihoyat oshkor boʻlgan, mish-mishlar butun Izmirga yoyilgan edi*” shaklida, ikkinchi gapni esa “*Shu tariqa yosh qiz umidsiz muhabbatini, Izmir esa bu chirkin voqeani unutadi deb umid qilishgan edi*” shaklida oʻgʻirgan maʼqul edi.

Roman tarjimasida tarjimonning soʻzma-soʻzlikka berilib ketishi yoki ayrim soʻzlarni realiya sifatida tarjimasiz oʻtkazishi oqibatida yuzaga kelgan nuqson juda koʻp uchraydi. Quyidagi jumla tarjimasiga eʼtibor beramiz: “*Artık aklım kesti... Yeğenim çalgıcı olacak, düğünlerde çingenelerle beraber keriz havası çalacak*”⁹². “*Ortiq aqlim ishlamay qoldi... Jiyanim cholgʻuchi boʻladi, toʻy-hashamlarda chinganalar bilan birga tarnov musiqasi (yaʼni tarnovday sharillaydigan musiqa) chaladi*”⁹³. Gap tarjimasini tahlil etishdan oldin undagi ayrim turkcha soʻz va iboralarning maʼnosini aniqlashtirib olish kerak. Turkchada “*çingene*” degani “loʻli” demakdir. Yoki *aklı kesmek* iborasining maʼnosi “bir narsaning boʻlishi, roʻy berishiga toʻla amin boʻlmoq”dir. Lekin tarjimon xos soʻz (realiya) boʻlmagan “*çingene*” soʻzini oʻgʻirishda meʼyorni sal buzgan. “*Çingene*” soʻzi yot ekzotik belgiga aylanib, kitobxonni chalgʻitishi mumkinligini inobatga olmagan. Chunki realiya deb hisoblangan soʻz ekvivalent topilmaganda va tarjima qilishning iloji boʻlmagandagina avval izoh berilib, tarjimasiz koʻchirilishi mumkin. Yoki, “*aqlim yetdi*”, “hammasini tushundim” maʼnosidagi “*Artık aklım kesti*” (ibora) jumlasini “*Ortiq aqlim ishlamay qoldi...*” deb koʻchirib qoʻygan. Holbuki, “*artık akli kesmek*” degani “*kallasi ishlay boshlamoq*” demakdir. Shularni hisobga olib jumlani “*Nihoyat angladim... Jiyanim cholgʻuchi boʻlmoqchi, toʻyma-toʻy kezib loʻlilar bilan tarnov musiqasi chalmoqchi ekan*” deb oʻgʻirsa tarjima muvaffaqiyatli chiqqan boʻlar edi. Yoki, turkcha asardagi “*Hele Kenan'ı bir türlü sevmiyordu*”⁹⁴ gapini tarjimon “*Hamon Kanonni negadir sevmasdi*” deb notoʻgʻri oʻgʻiradi⁹⁵. Qolaversa, oʻzbek tilida bunday gap yoʻq. Gapni sodda qilib “*U Kanonni seva olmasdi*” deb

⁹² Güntekin R.N., Dudaktan Kalbe, mutlukitap@hotmail.com. S.35.

⁹³ Гунтекин Р.Н., Мухаббат симфонияси. -Т., 2011, 24-6.

⁹⁴ Güntekin R.N., Dudaktan Kalbe, mutlukitap@hotmail.com. S.25.

⁹⁵ Гунтекин Р.Н., Мухаббат симфонияси. -Т., 2011, 24-6.

o‘g‘irish mumkin edi. “Muhabbat simfoniyasi” asarida bunday misollar juda ko‘p uchraydi.

Fikrimizni yana bir misol bilan nihoyalaymiz: “*Saip Paşa, bir gün bağı komşusu Münir Beyle sabah kahvesini içiyordu: ‘İrfan-ı âlinize büyük hürmet ve itimadım bulunduğunu bilirsiniz, dedi... Mühim bir mesele için zat-ı âlileriyle müsavere etmek istiyorum...*”⁹⁶. Yuqori uslubda yozilgan ushbu parcha o‘zbekchaga quyidagicha o‘g‘irilgan: “*Soib Posho bir kun bog‘ qo‘shnisi Munirbey bilan saboh qahvasi ichardi. ‘Oliy irfoningizga katta hurmat va ishonchim borligini bilasiz, – dedi. – Muhim bir masala yuzasidan zoti oliyingiz bilan maslahatlashishni istayman*”⁹⁷. Asliytdagi “*paşa*” so‘zi turk tilida bir xos so‘z hisoblanadi. Shu bois uni “*poshsho*” deb (“Posho” emas) o‘g‘irish to‘g‘ridir. “*Sabah*”ni esa “ertalab” deb o‘g‘irish lozim edi. Shunda yuqoridagi parcha o‘zbekchada quyidagicha berilishi mumkin edi: “*Soib poshsho bir kun ertalab yon qo‘shnisi Munir bey bilan qahva ichib o‘tirar edi: ‘Aqlu zakovatingizga ehtiromim va ishonchim cheksizligini yaxshi bilasiz, – dedi, – Muhim bir masala yuzasidan zoti oliyingiz bilan maslahatlashishni ma’qul ko‘rdim*”.

Xulosa o‘rnida taniqli ustozlarimizning mavzuga doir ayrim fikrlarini keltirishi lozim topdik. Taniqli olim va shoir Abdulla Sher shunday deydi: “Faqatgina xorijiy tillarni bilish – tarjimon bo‘ldi, – degani emas. Tarjimon – bir vaqtning o‘zida olim, adib, juda ziyrak va fasohatli mutaxassis bo‘lishi kerak. Afsuski, bu yuksak talablarga bugungi hamma tarjimonlar loyiq, deya olmaymiz. Shu jihatdan olganda, bugun tarjima tanqidiga bo‘lgan ehtiyoj katta. Mana shu barcha kamchilik va muammolarni jamlab turib, ularning yechimini izlagan holda tarjima sohasini rivojlantirish kelgusida mukammal, zalvorli, yetuk, yuqori saviyali kitobxon tarbiyasiga hissa bo‘lib qo‘shiladigan asarlar yaratilishiga ko‘mak bo‘ladi, deya umid qilish mumkin”⁹⁸. Yoki, ustoz G‘.Salomov “Tilning tarjimaviy quvvatini aniqlashdagi sub’ektiv holat har bir alohida olingan tarjimonning qobiliyati bilan o‘lchanishi lozim bo‘lgan problemaga borib taqaladi. Masalan, biron asar o‘zbek tiliga asl nusxasiga qaraganda bo‘sh ag‘darilgan bo‘lsa, bu – tilning qusuri emas, balki tarjimonnikidir. Chunki har bir tarjimaning sifati, aksariyat, tarjimonning iste’dodiga bog‘liqdir” yoki bo‘lmasa, “Tarjima matnini

⁹⁶ Güntekin R.N., Dudaktan Kalbe, mutlukitap@hotmail.com. S.35.

⁹⁷ Гунтекин Р.Н., Мухаббат симфонияси. -Т., 2011, 24-б.

⁹⁸ Бадий таржима: бугун ва эртага, мақола, Олтин қалам, газета, октябрь, 2015. 19(219)-сон.

yaratish bilan ijodiy jarayon nihoyasiga yetmaydi, matn – tarjima yaratish ishining intihosi maqsadiga kirmaydi. Tarjima ham, xuddi asl nusxa singari, uni kitobxonlar o‘qigan taqdirdagina o‘zining ijtimoiy funksiyasini bajaradi” – deb yozgan edi.

FOR AUTHOR USE ONLY

II BOB. TURLI MAVZUDAGI MAQOL, MATAL VA IDIOMALARNI TURKCHADAN O'ZBEKCHAGA O'GIRISH MASALALARI

2.1. Atoqli otlarga asoslangan maqol va iboralar tarjiması xususida

Atoqli otlar asosida yuzaga kelgan maqol va iboralar ustida olib borilgan tadqiqotlarda⁹⁹ atoqli otlarning xalq maqollariga qaraganda, matal va iboralarda ko'proq uchrashi ta'kidlanadi. Buning asosiy sababi esa maqollarning umumlashgan, matal va iboralarning esa xususiy ma'noga ega bo'lgan birliklar ekanligidir. Maqol va idiomalarni bitmas-tuganmas boylikka qiyoslagan turk olimi Karim Yund shunday yozadi: "Maqollar endigina yer qa'ridan qazib olingan ma'danga o'xshaydi. Ilm chirog'i ostida ularga ishlov berish va ta'sirli jihatları, nozik qirralarini namoyon qilish kerak"¹⁰⁰.

Tadqiqotning ushbu faslida hozirgi turk tilidagi atoqli otlar (muqaddas nomlar, inson ismlari va joy nomlari) asosida yuzaga kelgan maqol va idiomatik birliklarning ma'no xususiyatlari, yuzaga kelish yo'llari, sabablari, va albatta, ularning tarjimada aks ettirilishi masalalari ko'rib chiqiladi.

Tarjimashunos G'.Salomov "Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir" nomli risolasida shunday yozgan edi: "...obrazli asosi kishi nomlaridan iborat maqol, matal, idioma va so'z o'yinlarini bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Bu qiyinchiliklar shundan iboratki, agar biz tarjimada "oddiy" maqol bilan ish ko'rsak, uning ekvivalenti yoinki muqobil varianti bilan almashtiramiz, agar bo'lmasa, uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda o'z tilimizga tarjima qilib, ba'zan yangi maqol yasaymiz"¹⁰¹.

⁹⁹ Yund, Kerim, Atasözlerinde Kişi Adları, Türk Yurdu, Cilt: 6, Sayı: 334, Ankara, 1967, S. 18-24; Türkmen, Sayfullah, Atasözü ve Deyimlerde Yaşayan Kişi Adları, Dil Araştırmaları, Uluslararası Hakemli Dergi, Ankara, Sayı: 4 Bahar, 2009, S. 101-119.

¹⁰⁰ Yund, Kerim, Atasözlerinde Kişi Adları, Türk Yurdu, Cilt: 6, Sayı: 334, Ankara, 1967, S. 18.

¹⁰¹ Саломов Ғ., Рус тилидан ўзбекчага мақол, мата́л ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 63-64-бетлар.

O'zbek va turk she'riyatida Layli va Majnun (turk. *Leyla ile Mecnun*), Yusuf va Zulayho (turk. *Yusuf ile Züleyha*) ismlari ishq-muhabbat ramzi bo'lib qolgan. Latifa janrida Xo'ja Nasriddin (*Nasretdin Hoca*) dono, hozirjavob kishi obrazini gavdalantiradi. Maqol va iboralarda esa, atoqli otlar, xususan, kishi ismlari bir ramz sifatida qo'llanadi. Bular, asosan, barchaga ma'lum bo'lgan muqaddas nomlar, tarixda o'chmas iz qoldirgan shaxslar ismi, og'zaki nutqda xalqqa yaxshi tanish bo'lgan soddadil kishilar obrazi, ba'zi joy nomlaridir. Unutmaslik kerakki, ba'zi iboralarda mashhur shaxs ismi keltirilmasada, uning kim ekanligi (deylik, Xo'ja Nasriddin) anglashilib turadi¹⁰². Masalan, turk tilida *Ye kürküm, ye!* ("Ye, po'stinim, ye!") o'zbekcha muqobili – "Ye, to'nim, ye!") iborasi ostida o'zbek va turk xalqlarida mashhur latifa yotadi¹⁰³.

Frazeologik birliklarda atoqli otlarni qo'llashdan asosiy maqsad, barchaga ma'lum bo'lgan nomlarni maqol va iboralarga muhrlash orqali ifodalarning barchaga tushunarli, qisqa, lo'nda, qofiyali va, albatta, ta'sirchan bo'lishini ta'minlash hisoblanadi.

Atoqli otlar asosida yuzaga kelgan turkcha maqol, matal va iboralarni quyidagi guruhga bo'lib o'rganish ishni ancha qulaylashtiradi: 1) muqaddas nomlar asosida yuzaga kelgan turkcha maqol va iboralar; 2) barchaga ma'lum inson ismlari asosida yuzaga kelgan maqol va iboralar; 3) joy nomlari asosiy komponent bo'lib kelgan maqol va iboralar.

Birinchi guruhga kiritilgan muqaddas nomlar qo'llangan frazeologik birliklarning salmoqli qismini Alloh nomi bilan bog'liq turk maqol va iboralari tashkil etadi: *Allah bilir, kul da sezer* (Alloh biladi, lekin qul (inson) ham sezadi), *Allah dağları bile alçaklı yükseklı yaratmış* (Alloh tog'larni ham baland-past qilib yaratgan), *Davacın hakim ise, yardımcın Allah olsun* (Senga da'vo qilayotgan kishi qozi bo'lsa, faqat Allohdan yordam so'ra), *Allah'ın belası* (Allohnin balosi), *Allah'ın rahmetine kavuşmak* (Allohnin rahmatiga erishmoq, ya'ni vafot etmoq) kabi. Bunday maqol va iboralarda obrazli vositalardan keng foydalaniladi. Masalan: *Allah deldiği boğazı aç bırakmaz* (so'zmaso'z: Alloh (o'zi) teshgan tomoqni (hech qachon) och qoldirmaydi) deganda, Alloh insonni rizqi bilan yaratganligi, hech

¹⁰² Хамидов Х., Турк тилида атоқли отлар иштирокида юзага келган мақол ва иборалар, Шарқшунослик. –Т.: ТошДШИ, 2011. №1. 13-19 б.

¹⁰³ Qarang: Хамидов Х., Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. –Т.: ТошДШИ, 2014, 108-б.

qachon uni och qoldirmasligi koʻzda tutiladi. Inson organizmining mavjud dunyoga mos, tabiat bilan uygʻun holda yaratilganligi, nafaqat inson, balki barcha jonzotlarning ogʻiz va tomoq orqali oziqlanishi ana shu shaklan moʻʼjaz, sodda, mazmunan taʼsirchan maqol orqali ifoda etilganki, bu turk tilining ifoda imkoniyatlari naqadar keng ekanligini koʻrsatadi. Kuchli obrazlilikni *Allah dert verir, dermanını da verir* (Alloh dard bersa, darmonini ham beradi), *Allah gümüş kapıyı kaparsa, altın kapıyı açar* (Alloh kumush eshikni yopsa, (albatta) oltin eshikni ochadi), *Allah kimisine keş verir dış vermez, kimisine dış verir keş vermez* (soʻzma-soʻz: Alloh kimgadir qattiq pishloq beradi, tish bermaydi, kimgadir tish beradi, qattiq pishloq bermaydi) kabi maqollar misolida ham kuzatish mumkin.

Yaratganning nomiga asoslangan turkcha iboralarning koʻpchiligi tilda qoliplashib qolgan turgʻun birikmalar, duolar (baʼzan, qargʻish va duoibadlar)dir: *Allah bilir* (Xudo biladi), *Allahʼın cezası* (Allohnin jazosi), *Allah belasını (cezasını) versin!* (Alloh balosini (jazosini) bersin!), *Allah kahretsin!* (Alloh qahr etsin!), *Allahʼa emanet (ol)!*; *Allah muhafaza!* (Allohga topshirdim; Alloh oʻzi asrasin! Alloh oʻz panohida asrasin!) kabi. Baʼzi turkcha iboralarda *Allah* nomi oʻrnida *Tanrı, Hak* yoki *Yaradan (Yaratın)* soʻzi keladi: *Süzeğen ineğe Tanrı boynuz vermez* (Suzagʻon sigirga tangri shox bermaydi). Maʼnosi: “Alloh yomonlik qilishga moyil odamning imkoniyatlarini cheklab qoʻygan boʻladi”. Yoki: *Halkka hizmet Hakka hizmet* (Xalqqa xizmat – Haqqa xizmatdir), *Hak bellediğin yolda yalnız gidersin* (Haq yoʻlini tanlagan boʻlsang, yolgʻiz oʻzing yurasan), *Yaradılmışı hoş gördük, Yaradandan ötürü* (Yaratilgan (inson)ni xush koʻrdik, Yaratgan tufayli) kabi. Atoqli otlar asosida yuzaga kelgan maqol va iboralarning baʼzilarida Odam Ato va paygʻambarlar ismi uchraydi. Masalan, Hazrati Odam (a.s.) ham ilk inson, ham ilk paygʻambar ismi sifatida turk tilining lugʻat tarkibidan munosib oʻrin olgan. Ushbu muborak nom umumlashib, “inson, odam” maʼnosi kasb etgan: *Âdemʼin çektiği dili belâsı* (“İnsanın başına ne gelirse dilinden gelir”) deganda “Insonning boshiga nima balo kelsa, tili tufayli” ekanligi anglashiladi. Yoki, tilda *Hazret-I Âdem kıyafeti* (onadan yangi tugʻilganday, yaʼni qip-yalangʻoch), *âdem elması* (erkaklarda boʻyinning old qismida boʻrtib turgan narsa, hiqildoq) iboralari keng qoʻllanadi.

Shuningdek, rivoyatlarga koʻra, salkam ming yil umr koʻrgan, ilk kemani yasagan kishi sifatida tilga olinadigan Hazrati Nuh (a.s.) ismi

Nuh der, peygamber demez (Nuh der, payg‘ambar demas), Nuh zamani (juda qadim zamon “Nuh zamoni”), *Nuh nebiden kalma* (juda eski, o‘ta eski, modadan qolgan) iboralarida qo‘llaniladi. Bulardan *Nuh der, peygamber demez* iborasi qaysar, o‘z e‘tiqodi, biror narsa haqidagi shaxsiy fikrini osonlikcha o‘zgartirmaydigan kishiga nisbatan qo‘llaniladi. Ya‘ni, qaysar odamning “Nuh” deyishi mumkinligi, lekin unga Nuh ismiga “payg‘ambar” so‘zini qo‘shib aytirish yoki Nuh (a.s.)ning payg‘ambarligini tan oldirish qiyinligi asos olingan.

Turk tilida ham o‘zbek tilida bo‘lganidek, ba‘zi muqaddas ismlar qo‘llangan maqol va iboralarda Hazrati Xizr ismi (*Xizrni yo‘qlamoq*) uchraydi: *Kul sıkışmayınca Hızır yetişmezmiş (Qul qiynalib qolmaganuncha Xizr yetib kelmaydi)*. Ushbu maqol vositasida “qiyinchilikka uchragan inson sabr qilsa, albatta, Allohdan yordam kelishi” uqtiriladi.

Ikkinchi guruhga barchaga ma‘lum va mashhur bo‘lgan inson ismlari asosida yuzaga kelgan maqol, matal va iboralarni kiritish mumkin. Bunday birliklarda kishilarning shaxsiy va ijtimoiy hayotda, moddiy turmush va mehnat faoliyati davomida boshqa kishilar bilan munosabatlari, bunday munosabatlarning ijobiy ham, salbiy ham bo‘lishi mumkinligi e‘tiborga olingan.

Inson ismlari asosida yuzaga kelgan maqol va iboralarda xalqqa ma‘lum va mashhur olimlar, mutafakkirlar va podshohlarning ismi kechadi. Masalan, o‘z nomi va ishlari bilan xalqqa mashhur kishilardan *Süleyman* ismi bir necha maqol va iborada qo‘llanilgan: *Dünya Hazret-i Süleyman’a kalmamış; Dünya Sultan Süleyman’a kalmamış (Bu dunyo Hazrati (shoh) Sulaymonga qolmagan)*. Ma‘nosi: “Hech kim bu dunyoda abadiy emas, hamma bir kun vaqti-soati yetib, bu foniy dunyodan ko‘z yumadi”. Yoki: *Mühür kimdeyse Süleyman odur* deganda, mansab, hokimiyatga ega bo‘lgan kishining qo‘li har doim balandligi ta‘kidlanadi (*Muhr kimda bo‘lsa, Sulaymon o‘shadir*, ya‘ni “bir ishda vakolat kimda bo‘lsa, kuch-qudrat undadir”). Sulaymon – barchaga ma‘lum va mashhur, «Misrdan Firat daryosiga qadar bo‘lgan katta hududga hukmronlik qilgan, jinlar va insonlardan tarkib topgan qudratli armiyaga ega bo‘lib, dunyoning eng muhtasham saroyidan mamlakatni boshqargan»¹⁰⁴ Hazrati Sulaymondur.

¹⁰⁴ Albayrak, N., Ansiklopedik Halk Edebiyatı Terimleri Sözlüğü, LM Yayınları, İstanbul, 2004, 476-477;

Usmonli Turkiyasida ma'lum va mashhur bo'lgan islom ulamolari, qozikalonlar ismi ham ba'zi frazeologik birliklarga kiritilgan. Masalan, *Abdurrahman Çelebi* "o'qimishli, taqvodor, obro'li" shaxs obrazidir: *Koyunun olmadığı yerde keçiyе Abdurrahman Çelebi derler (Qo'y bo'lmagan joyda echkiga Abdurahmon Chalabiy derlar)* matali "istalgan sifatga ega bo'lgan kishi yoki narsa bo'lmagach, undan pastroq xususiyat (sifat)ga ega bo'lgan narsaga ham rozi bo'linadi" ma'nosida qo'llanadi (o'zbek tilidagi muqobili "*bulbul bo'lmagan joyda qurbaqa ham o'zini sayroqi bulbuldek his qiladi*"; rus tilidagisi "*на безрыбье и рак – рыба*", ya'ni "*baliq bo'lmagan joyda qisqichbaqa ham baliq o'rniga o'tadi*") va h.

Ba'zi frazeologik birliklarda dunyoning mashhur faylasuf, hakimlarning ismi asos olingan. Bulardan biri Gippokrat ismidir. Qizig'i shundaki, Gippokrat ismi XX asr oxirida paydo bo'lgan yangi turkcha ibora tarkibida qo'llanilgan: *Bir Hippokrat yemini eksik* (so'zma-so'z: Bir Gippokrat qasami yetishmaydi). Ushbu ibora "shifokor diplomi bo'lmasa ham bir shifokordan qolishmaydigan kishi"ga nisbatan qo'llaniladi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, iboralarda arab va fors, hatto ba'zi yevropa tillaridan turk tiliga kirgan kishi ismlari ham keng qo'llaniladi. Ana shunday ismlardan biri *Kirkordir: Bizim evde yallanırsın, Kirkor'un bağında mı ürürsün* (so'zma-so'z: Bizning uyda qorningni to'yg'azasan-u, Kirkorning bog'ida akillaysanmi?). Ma'nosi: "Yaxshilikni bizdan ko'rasan-u, begonalarga xizmat qilasanmi?" kabi.

Iboralar xalq badiiy tafakkurining mahsuli bo'lgani bois, ularda xalqqa yaxshi tanish bo'lgan, og'zaki nutqda o'rtnashib qolgan ismlar ko'proq qo'llanadi. Chunki frazeologik birlik tarkibida oddiy xalqqa yaxshi ma'lum bo'lmagan obraz uchrasa, u birlik tor doirada qolib, yo'q bo'lib ketishi mumkin. Masalan, xalq tilida keng qo'llaniluvchi *Kambersiz düğün olmaz; Kambersiz düğün olur mu? (Qambarsiz to'y bo'lmaydi; Qambarsiz to'y bo'ladimi?)* iborasi arab tilidan turk tiliga o'zlashgan *kanber* so'zi asosida shakllangan. *Kanber (Kamber - Qambar)* so'zining ma'nosi "sodiq qul, bir boy uyining sodiq xizmatkori"dir.¹⁰⁵ Ushbu ibora chaqirilsa-chaqirilmasa to'y-hashamdan qolmaydigan past tabaqa kishilarga qarata aytiladi. Shuningdek, turkcha

¹⁰⁵ Albayrak, N., Ansiklopedik Halk Edebiyatı Terimleri sözlüğü, LM Yayınları, Ankara, İstanbul, 2004.

iboralar tarkibiga mashhur O‘mar ismi ham kirib qolgan: *Çocuklar başı Deli Ömer* – “bolalar o‘ynayotganda ularga qo‘shilib-qorishib ketadigan, bolalarni to‘plab bachkana ishlar bilan shug‘ullanishni yoqtiradigan katta yoshli kishi” (*bolalar boshi devona O‘mar*) va h.

Xalq orasida yaxshi ma‘lum iboralarning ba‘zilarida *Ali* ismi, ba‘zilarida esa *Ali* bilan birga *Veli* ismi qo‘llaniladi: *Ali’nin kùlahını Veli’ye, Veli’nin kùlahını Ali’ye giydirmek* (bisotida hech narsasi yo‘q, ammo birining puli yoki molini olib boshqasiga, undan qaytarib olib, yana birinchisiga berish va shu yo‘sinda ish bitirishga urinish, ya‘ni ‘hiylanayrang bilan ish yuritish’ (*kùlah giydirmek*). Yoki: *Aliler, Veliler, alem dolusu deliler* (so‘zma-so‘z: Alilar, Valilar, dunyoni bosdi devonalar), *Ali’si deli, Veli’si deli, kırılanın hepsi deli* (ma’nosi: “Bu yerda aqlli odamning o‘zi yo‘q, hammasi aqldan ozib qolgan”) va h. Bunday iboralarda *Ali* va *Veli* ismlari unchalik muhim ahamiyat kasb etmaydi, ular faqat ifodaning chiroyli bo‘lishi, ohang, qofiya uchun qo‘llaniladi.

Ali va *Vali* ismlari o‘zbekcha iboralar tarkibida ham birga keladi. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida shunday jumla kechadi: “*Bu kutish kunlarimda na uchundir yonimdag‘i xalfa shogirdlar bilan bo‘laturg‘an muomalalarim ham o‘zgara boshlag‘an, ya‘ni so‘zlarim dag‘al va tundlikka aylangan, go‘yo buning ila Alining kekini Validan olar edim*”¹⁰⁶. *Ali* va *Vali* ismlari qo‘llanilgan ibora ishtirok etgan ushbu jumla turkchaga quyidagicha o‘girilgan: “*Yanımdaki kalfalara da sert muamele etmeye başlamıştım. Senin anlıyacağın, canımın sıkısını onlardan alıyordum*”¹⁰⁷. Turk tarjimoni asliyatdan olingan gapning umumiy mazmunini tarjimada bera olgan, biroq ayrim so‘z va birkmalar tushirib qoldirilgan. Shu jumladan, parchaning *Alining kekini Validan olar edim* qismi ham tarjima qilinmagan. Parchaning aynan shu qismi ruscha tarjimada “...стал груб с учениками и подмастерьми, как будто хотел сорвать на них зло”¹⁰⁸ deb berilgan. Umuman, tarjimonlar “biridan alaminini olish uchun boshqasiga zahrini sochmoq” ma’nosidagi ibora ishlatilgan asliyat jumlasining mazmunini deyarli

¹⁰⁶ Қодирий А., Ўтган кунлар. Тарихий роман. С. Азимов таҳрири остида. – Т.: Ўздавнашр, 1958, 193-бет.

¹⁰⁷ Kadiri A., Ötgen Künler (Geçmiş Günler), Roman, Türkiye Türkçesi A.Batur, Selenge Yayınları. –İstanbul, 2005, s.206.

¹⁰⁸ Кадыри А., Минувшие дни, роман / Пер. с узб. Л.Бат и В.Смирновой. –Т.: 1958, с.169; Кадыри А., Минувшие дни, роман / Пер. с узб. М.Сафарова, “Шарк”. – Т.:2009, с. 193.

qoplay oladigan muqobil jumla yaratgan bo'lsalar-da, gap asliyatdagidek jaranglamagan, so'zlar tushirib qoldirilgan, nimadir xira. "*Alining kekini Validan olmoq*" iborasining ruscha muqobilini izlash befoyda bo'lishi mumkin, biroq uning turk tilidagi muqobilini topish kerak edi.

Ali ismi asosida yuzaga kelgan ba'zi turkcha iboralarning farqli variantlari ham tilda mavjud. Masalan, *Ali kiran baş kesen* ("bir joy, mahallaning zo'ravoni", "kallakesar") iborasini oladigan bo'lsak, turk tilining frazeologiyasiga oid ba'zi tadqiqotlarda ushbu iboraning *Dalı kiran başı keser* ("daraxt shoxini sindirgan kishi inson boshini ham kesishi mumkin" ma'nosida) iborasidan o'zlashtirilganligi, uning *Dalı kiran baş keser*¹⁰⁹ shakli ham qo'llanilishi aytiladi¹¹⁰.

Ali ismi qo'llanilgan o'zbekcha maqol va iboralardan yana biri *Ali Xo'ja*, *Xo'ja Ali* iborasi bo'lib, uning ma'nosi: "turli xil narsa kabi ko'rinsa-da, aslida bir xil narsa" yoki "bir ishni turli shaklda amalga oshirish mumkin" ("bunday qilsa ham bo'ladi, boshqacha qilsa ham bo'ladi"). Ushbu ibora turk tilida ham ayni ma'noda qo'llanadi: *Ha Hoca Ali, ha Ali Hoca*¹¹¹.

Ba'zan turkcha iboralarda *Ali* ismi bilan birga *Güllü* (Gulli – qiz ismi) ham qo'lanadi: *Ali evlendi, Güllü gelin oldu* ("Ali uylandi, Gulli kelin bo'ldi", ya'ni "oradan qancha suvlar oqib ketdi", "bir voqeadan keyin oradan ko'p vaqt o'tdi, zamon o'zgardi").

Xalq tilida ayollar ismi ishtirok etgan iboralar talaygina. Ularda, ko'pincha, ayollarning fe'l-atvori, yurish-turishi, xatti-harakati obrazli ifodalanadi: *Erkek Fatma* (erkakshoda Fotima, ya'ni "tashqi ko'rinishi, kiyinishi erkakcha bo'lgan ayol"), *Abayı yaktı Fatmacığın bezine* ("Oshiq bo'ldi Fotimaginganing latta-puttasiga") "birining libosi, jozibasiga qarab oshiq bo'lmoq", "kiyimiga uchmoq", *alık Raziye* – "sodda, go'l qiz yoki ayol", *deli Raziye* – "devonasifat harakat qiluvchi erka-tantiq qiz yoki ayol", *gam tutmaz tasasız Raziye* – "g'am chekmas beg'am Roziya", ya'ni "hech narsaga parvo qilmaydigan, birovdan xafa bo'lmaydigan, "dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydigan" qiz yoki

¹⁰⁹ Iboraning dastlab yuzaga kelishiga Usmonli podshohi Fotih Sulton Mahmadning "O'rmonlarimdan bir butoq kesganning boshini kesaman" degan so'zi asos bo'lganligi ta'kidlanadi.

¹¹⁰ Türkmen, Sayfullah, Atasözü ve Deyimlerde Yaşayan Kişi Adları, Dil Araştırmaları, Uluslararası Hakemli Dergi, Ankara, Sayı: 4 Bahar, 2009, S. 114.

¹¹¹ Aksoy, O.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, I-III, TDK Yayınları, Ankara, 1984, 701.

ayol”), *Düttürü Leylâ* – “tor, kalta va beo‘xshov kiyingan qiz yoki ayol” kabi. Bu misollar turkcha maqol, iboralarning xalq orasida qanchalik mashhur ekanligi, og‘zaki va yozma badiiy nutqqa qanchalik o‘rnashib qolganligini ko‘rsatadi.

“Umumiy qoida sifatida shuni aytish kerakki, obrazli asosi kishi nomlaridan iborat idiomalarni so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Demak, obrazli asosi kishi nomlaridan iborat birikmalar – maqol, matal va idiomalarni bir tildan ikkinchi tilga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi”¹¹² – deb yozgan edi G‘. Salomov.

Atoqli otlar qo‘llanilgan turkcha maqol, matal va iboralarning uchinchi guruhini joy nomlari asosida yuzaga kelgan birliklar tashkil etadi. Bunday birliklarda Turkiyaning o‘zida joylashgan mahalliy joy nomlari kam uchraydi. Masalan, Istanbulning eng katta tumanlaridan biri bo‘lgan Uskudar nomi qo‘llangan *Atı olan Üsküdar’ı geçti* (Oti bor Uskudardan o‘tib bo‘ldi) iborasi “Imkon topgan odam allaqachon ishini bitirib bo‘ldi” (“birovlar ishini bitirib bo‘ldi, sen kech qolding”) ma’nosida qo‘llanadi. Nega endi Uskudar? Chunki Uskudar tumani Usmoniylar davrida Osiyo bilan Yevropani ajratib turgan Istanbul bo‘g‘ozi yoqasida joylashgan eng chekka tuman bo‘lgan. Uskudardan o‘tish “katta masofani bosib chegaradan o‘tib olish”ni anglatgan.

Turkiyaning eng yirik shahri, Usmonli imperiyasining yuzlarcha yil poytaxti bo‘lgan Istanbul kentining ham o‘z ibora va matallari bo‘ib, ular asosan, og‘zaki nutqda qo‘llanadi. Masalan, *Burası İstanbul* deganda, “Bu yerni Istanbul deydilar, har narsa bo‘lishi mumkin, hayron bo‘ish o‘rinsiz” ekanligi tushuniladi. Shunga o‘xshash *Burası Türkiye* (Bu yerni Turkiya deydilar) deganda ham ayni ma’no anglashiladi. Yoki: *İstanbul’un havasına, parasına güvenme* (Istanbulning ob-havosi, puliga ishonma) deganda, bu shaharning faqat beqaror ob-havosi yoki puliga ishonmaslik kerakligi emas, balki u yerda har narsa bo‘lishi mumkinligi, inson o‘ziga o‘ta ehtiyot bo‘lishi lozimligi uqtiriladi.

Turkcha maqol va iboralarda ko‘proq Turkiyadan tashqarida joylashgan geografik nomlar (Makka, Bag‘dod, Yaman, Shom, Halab, Karbalo va boshqa shahar va joy nomlari) qo‘llaniladi. Buning asosiy sababi sanab o‘tilgan shahar va joylarning, asosan, Turkiyaga yaqin joylashganligi va usmoniylar imperiyasi kuchaygan davrlarda bu shaharlar

¹¹² Саломов Ф., Рус тилидан ўзбекчага мақол, мatal ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 65-бетлар.

bilan oʻrnatilgan munosabatlardir. Masalan, *Kerbela'ya dönme*k (Karbaloga aylanmoq) degani “chanqamoq, suvsiz qolmoq, qurib, Karbalo dashtiga aylanmoq”dir.

Maqolda qaysi mamlakat, qaysi shahar nomi qoʻllangan boʻlmasin, u oʻsha davrning eng obod va barchaga maʼlum va mashhur shahri boʻlgan. Yaʼni uzoqda joylashgan shahar ham bir obraz sifatida, ham qofiya uchun qoʻllanilgan. Maqol tarkibida koʻp uchraydigan shahar nomlaridan biri Bagʻdoddir: *Haklı söz haksızı Bağdat'tan çevirir* (Haq soʻz notoʻgʻri yoʻldan ketayotgan kishini toʻxtab, toʻgʻri yoʻldan borishga majbur qiladi). Yoki: *Çanakta merhemin olsun, Bağdat'tan kel gelir* (“Idishda malhaming boʻlsin, Bagʻdoddan kal keladi”). Uning maʼnosi: “Inson zarur boʻlgan narsani nima qilib boʻlsa, qaerdan boʻlsa ham topadi”, yoki “Agar bisotingda insonlarga foydasi tegadigan narsang boʻlsa, albatta, bir kun uni ehtiyojmand biri soʻrab keladi”. Mazkur maqolning turk tilida bir necha varianti bor: *Çanakta balın olsun, Yemen'den arı gelir* (“Idishda asaling boʻlsin, Yamandan ari keladi”), *Pekmez gibi malın olsun, Antakya'dan sinek gelir* (“Murabbong boʻlsin, Antakiyadan pashsha uchib keladi”) kabi.

Turk tilida qoʻllaniluvchi bir iborada oʻz davrida dunyoning yirik madaniyat markazlaridan biri hisoblangan, Suriya davlatining poytaxti Shom (Damashq) shahri nomi uchraydi: *Ne Şam'ın şekeri, ne Arap'ın yüzü* (soʻzma-soʻz: *na Damashqning popuk qandi, na arabning yuzi*). Toʻla koʻchma maʼno kasb etuvchi, hech qanday kamsitish maʼnosiga ega boʻlmagan ushbu iborani quyidagicha qabul qilish toʻgʻri boʻladi: “Birining yuzini koʻrmaslik uchun inson oʻz foydasidan ham voz kechishga tayyor boʻladi”. Bu ibora maʼno jihatdan oʻzbekcha “Och qornim, tinch qulogʻim” iborasiga qaysidir jihati bilan mos keladi.

Tahlil etilgan maqol, matal va iboralar hozirgi zamon turk tilida keng qoʻllanadi va oʻz qimmatini yoʻqotmaydi. Xulosa qilib aytganda, turklarning keng makon va zamon ichida toʻplagan tajribasi, badiiy tafakkuri va chuqur falsafasini oʻzida mujassamlantirgan, xalq milliy va madaniy xazinasining salmoqli bir qismini tashkil etuvchi maqol, matal va iboralar ustida olib borilgan tadqiqotlar, turk tili taraqqiyotida alohida pogʻonani tashkil etadi va bunday bebaho maʼnaviy boylikning kelajak avlodlarga mukammal shaklda meros qoldirilishida muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Ana shunday yoʻnalishda ish olib borish Oʻzbekistonda turkshunoslik, frazeologiya va hozirgi zamon turk tili leksikasini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. Hayvon nomlariga asoslangan turkcha maqol va idiomalar tarjimasiga doir

Hayvonot olami, xususan uy hayvonlari azaldan insoniyat moddiy turmushining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Xususan, "chorvachilik bilan shug'ullangan turkiy xalqlar *qo'y (koyun), echki (keçi), tovuq (tavuk), sigir (inek), ot (at), tuya (deve), eshak (eşek), it (köpek)* kabi xonaki hayvonlarning tana tuzilishi haqida boshqa xalqlardan ko'ra kengroq anatomik bilimlarga ega bo'lishgan. Shu bois mazkur soha bilan bog'liq atamalar, xonaki hayvonlarning nomi, ularga xos xatti-harakatlar kundalik nutqda, xususan, turkcha maqol va iboralarda yaqqol aks etgan"¹¹³. Bu birliklar insonga xos turli holatlar, xatti-harakatlar, tashqi qiyofa va kishilar orasida yuzaga keluvchi turli munosabatlarni obrazli ifodalashga xizmat qilgan. Masalan, turkcha *öküz altında buzağı aramak* ('*ho'kizning tagidan buzoqni qidirmoq*') iborasidan 'har qanday xayrli ishning tagidan bir nuqson qidirmoq' (o'zb. "*qildan qiyiq qidirmoq*") ma'nosi anglashilsa, *hayvanlar koklaşa koklaşa, insanlar konuşa konuşa* iborasi orqali "ongli mavjudot bo'lgan insonlarning faqat til vositasida o'zaro muloqot qilishlari" ta'kidlanadi.

Hayvon va parranda nomlari ko'p xalqlarda yaxshilik, olijanoblik, mardlik, saxiylik, ba'zan esa yomonlik, ayyorlik, vahshiylik, qo'pollik timsoli sifatida maqol va idiomalarga o'rnashib qolgan. G'.Salomov bu borada shunday yozadi: "...yomonlik, zararkunandalik timsoli – ilon, chayon; vahshiylik timsoli – bo'ri; yovvoshlik timsoli – musicha (shuning uchun uni "musichai beozor" deydilar), qo'y; mehnatsevarlik timsoli – chumoli va asalari; kattalik timsoli – fil, tuya; ayyorlik timsoli – tulki; qo'pollik timsoli – ayiq; befarhmlik va befarosatlik timsoli – eshak, cho'chqa; tinchlik timsoli – kaptar; go'zallik timsoli – tovuş; xushxonlik timsoli – bulbuldir. Ammo turli xalqlarda o'xshatish ob'ektlari... o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi ham mumkin"¹¹⁴. Masalan, o'zbek tilida musichaning nomi – *musichaday beozor*, ya'ni "birovga zarari tegmaydigan, yuvosh", koreys tilida, *sigirday beozor*.

¹¹³ Хамидов Х. Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. –Т.: ТошДШИ, 2014, 120-бет.

¹¹⁴ Саломов Ғ., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 29-бет.

Shuningdek, hindcha asarlarda sigir obrazi nafosat, mehribonlik, onalik mehri timsoli sifatida talqin qilinadi. Qadimgi misrliklar ham sigirni muqaddas hayvon deb bilganlar, Gomer asarlarida sigir ma'shuqa go'zalligi ramzi sifatida talqin qilinadi. Hatto uning asarlarida eshak va chivinlarning ham jasorat timsoli sifatida gavdalandirilgan ekan¹¹⁵.

Turkiy xalqlarda mardlik, himmat, oliyjanoblik sifatleri ot yoki arslon obrazi timsolida beriladi. "Demak, biron narsa yoki hodisaning obrazli asosiga qanday hayvon yoki parrandaning nomini qabul qilishda har bir xalq o'z zavqi va didiga ega ekan. Bu o'sha xalqning tarixiy takomili, urf-odatleri, geografik va iqtisodiy sharoitleri, axloq me'yorleri, falsafiy va diniy qarashleri bilan chambarchas bog'liqdir"¹¹⁶. Chunonchi, o'zbeklar o'z farzandini tuyaning bolasi (bo'ta, bo'tam, bo'talog'im); otning bolasi (toychoq, toychog'im, toy bola), qo'yning bolasi (qo'zichoq, qo'zichog'im)ga o'xshatadi, ammo, masalan, sigirning bolasi nomiga nisbat berib "buzoqcham"; eshakning bolasiga nisbat berib "xo'tikcham" demaydi. Chunki buni o'zbek kishisi o'z farzandi uchun erkalash emas, haqorat deb biladi. Xuddi shuningdek, turklar o'z farzandiga "yavrum" (*yavru* – hayvon va qushning bolasi) deydi. Arslon va uning bolasi (arslan parçasi); buqacha (tosun, tosunum), qo'yning bolasi (kuzu, kuzum)ga, qo'chqorga (koç, koçum) o'xshatadi, biroq it, mushuk yoki eshakning bolasi, hatto (o'zbeklardan farqli o'laroq) ot va tuyaning bolasiga ham nisbat berib erkalamaydi.

Rus va Yevropa xalqlari tillarida ota-onalarning o'z bolalarini erkalatib qush bolasi (птичка, голубчик), mushuk bolasi (котёнок), cho'chqa bolasi (поросенок, "поросётушка")ga nisbat berib erkalatishleri yaxshi ma'lum. O'zbek va turk xalqlarida esa bolaga nisbatan bunday so'zlarni qo'llash haqorat hisoblanadi.

G'.Salomov, o'zbek tilida baxtli, ezgu ish yoki erkalatish ma'nolarini o'zida aks ettiradigan, obrazli asosi "cho'chqa" so'zidan iborat bironta ham matal yoki idiomatik ibora yo'qligi, fransuz, ingliz va rus tillarida "cho'chqa" so'zi erkalash ma'nolarida (rus tilida "cho'chqa» so'zi ayrim hollarda aqlsizlik, nodonlik, befarosatlik ma'nolarini ifodalovchi birikmalarning obrazli asosi sifatida) namoyon bo'lishi, bunday hollarda, iboralarni aynan tarjima qilish ma'qul ekanligi, nemis tilida esa "cho'chqa" so'zi salbiy hodisalar obrazi bo'lib kelishi bilan birga,

¹¹⁵ O'sha kitob, 30-b.

¹¹⁶ O'sha kitob, 31-b.

baxt, omad keltiruvchi ramz sifatida ham ishlatilishi, tarjimon esa bu soʻzlar ishtirok etgan birikmalarning obrazli asoslarini oʻz tilida anʼana-naga aylangan hayvon yoki parrandalarning obrazlari bilan almash-tirishga majbur boʻlishi, demak, tilda turli-tuman oʻxshatish va sifat-lashlarning asosida nimaning obrazini ishlatish anʼana boʻlib kelgan boʻlsa, tarjimada ham shunga rioya qilish zarurligini taʼkidlaydi¹¹⁷.

“Koʻchma maʼnoli birikmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qil-ganda har qanday holatda ham ularning obrazli asoslari aynan muvofiq keladigan bir variant bilangina tarjima qilish baʼzan sunʼiylikka olib ke-lishi mumkin. Shu bilan birga, har qanday sharoitda ham muqarrar ra-vishda bunday birikmalarni asar tarjima qilinayotgan tildagi boshqa mu-qobil variantlar bilan koʻr-koʻrona almashtiraverish uslub chalkash-ligiga, tarjima tilining chegaralanib, qashshoq boʻlib qolishiga, bir xil qolipdagi siyqasi chiqqan maqol yoki idiomalarning uzluksiz takrorla-nishiga olib keladi. Shuning uchun qanday voqea tasvirlayotganiga qa-rab, hatto bir maqol yoki matalni har xil tarjima qilish mumkin. Tarjima nazariyasi har qanday holat uchun ham muvofiq kelaveradigan, oldindan tayyorlangan qandaydir retsept hozirlab berolmaydi”¹¹⁸.

“Maqol yoki idiomani kontekstdan ajratgan holda tarjima qilish qiyin. Bir maqol yoxud matal turli asarlarda, turli voqealar ichida, qan-day shaxs tomonidan aytilayotganiga qarab, har xil tarjima qilinishi mumkin. Lekin shuni aniq aytish mumkinki, hamma tilda ham yo-monlik, vahshiylik, ablahlik, xoinlik timsoli sifatida: ilon, chayon, boʻ-ri, ari va boshqa shunga oʻxshash kishiga bevosita ziyon keltiradigan jonivorlarning nomi qabul qilingan”¹¹⁹. Masalan: “*Yilandan korkmam yalandan korktuğum kadar*” (*Ilondan qoʻrqmayman yolgʻondan qoʻrqqanchalik*) matalida asosiy urgʻu insonning ilondan qoʻrqishiga emas, yolgʻondan qoʻrqishiga beriladi. Matalning birinchi qismi (“*Yilandan korkmam*”) taʼsirni kuchaytirish, ohang va qofiya uchun toʻqilgan. Oʻzbek va rus tillarida ushbu matalning aynan muqobili uchramaydi. Uni oʻzbekchaga matn kontekstidan kelib chiqqan holda soʻzma-soʻz “*Ilondan qoʻrqmayman yolgʻondan qoʻrqqanchalik*”) shaklida oʻgirish mumkin.

¹¹⁷ Oʻsha kitob, 28-29-betlar.

¹¹⁸ Oʻsha kitob, 38-bet.

¹¹⁹ Oʻsha kitob, 34-bet.

Bir qator turkcha maqol va matallarda chayon (akrep) yomonlik timsoli bo'lib keladi: *Akrabanin akrobaya akrep etmez ettiğini* (*Aqraboning aqraboga qilganini aqrab ham qilmas*). Ko'rinib turibdiki, turk tilida fonetik xususiyatlari bilan maqolga ohangdorlik, ta'sir kuchi baxsh etgan, "qarindoshlarning bir-birlariga qiladigan yomonliklarini vahshiy chayon ham qila olmaydi" ma'nosidagi maqolning muqobili o'zbek tilida uchramaydi. Shu bois buni ham o'zbekchaga matn kontekstidan kelib chiqqan holda so'zma-so'z o'girish mumkin.

Ba'zi turkcha maqollarda vahshiylik timsoli, kishiga ziyon keltiruvchi jonivorlar nomiga qurilgan ayrim matallarning ba'zida ijobiy ma'no kasb etishi ham kuzatiladi. Masalan, "*Kurda neden boynun kalın demişler, "Kendi işimi kendim görürüm de ondan"– demiş*" (so'zma-so'z: "Bo'ridan so'rashibdi: Nima uchun bo'ying buncha yo'g'on? Bo'ri javob beribdi: O'z o'ljamni o'zim tashiyman-da, shuning uchun yo'g'on") maqoliga e'tibor bersak, unda bo'rining kun kechirish uchun zahmat chekishi obrazli ifoda etiladi.

O'zbek va turk tillaridagi ayrim maqol va iboralarda 'it', 'kuchuk' ('köpek', 'it') so'zlari asos olingan: "*It ulur, bir-birini bulur*" ("It uliydi, bir-birini topadi", ya'ni "ko'r-ko'rni qorong'uda topadi"); "*it ite, it de kuyruğuna*" ("it itga, it esa quyruğ'iga"); "*at izi it izine karışmak*" ("ot izi it izi bilan qorishib ketmoq", ya'ni "bir ish (vaziyat)ning boshioxiri topilmasligi", "aralash – quralash"); "*dünyayı başına yıkmak*" ("*itning kunini boshiga solmoq*") kabi. Taniqli o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi va uning turkcha tarjimasidan bir necha misol keltiramiz: "*Mana, oxiri nima bo'ldi... Kecha itni kunini boshimga soldi, aylanay!*"¹²⁰ Tarjimasi: "*İşte ne oldu... Dün o köpek yavrusunu başıma sardı, kurban olduğum*"¹²¹. Ko'rinib turibdiki, tarjimon o'zbekcha iboraning ma'nosini anglamagan: "*Itning kunini boshimga soldi*" iborasini tarjimada "*Itning bolasi bilan boshimga tushirdi*" deb bergan. Yana bir misol: "*Hozir kiymasayiz, qachon kiyasiz! Ikki-uch yildan keyin chalpakka o'rab tashlasa, it qaramaydigan bo'p qolasiz. O'zizziyam o'ylang mundaq*"¹²². O'zbek tilida keng qo'llaniluvchi "*chalpakka o'rab tashlasa, it qaramaydi*" iborasi qatnashgan o'zbekcha jumla turk tiliga quyidagicha

¹²⁰ Hoshimov O., "Dunyoning ishlari" –T.: 2005, 71-b.

¹²¹ Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayınevi. –İstanbul, Mart, 2014, S.83.

¹²² Hoshimov O., "Dunyoning ishlari" –T.: 2005, 198-b.

o'girilgan: *"Şimdi giymeyeceksiniz de ne zaman giyeceksiniz? İki üç yıl sonra deriye sarıp atsa köpekler dönüp bakmaz. Siz de böyle düşünün"*¹²³. Jumlanı o'girishda tarjimon ancha erkin harakat qilgan. Agar turkcha tarjima teskari o'girilsa, quyidagi ko'rinishni oladi: *"Hozir kiymasangiz, qachon kiyasiz! Ikki-uch yildan keyin teriga o'rab tashlasa, it o'girilib qaramaydi. Siz ana shuni o'ylang"*. Bunday misollardan ko'plab keltirish mumkin¹²⁴.

O'zbekcha maqol va iboralarning turkcha va ruscha ekvivalent yoki muqobillari bo'lishi tabiiy. Aynan bir xil ma'noni ifodalovchi, hatto shakl jihatdan ham bir-biriga juda o'xshash maqol va iboralar haqida G'.Salomov shunday yozgan: *"Albatta, bir-biriga qardosh tillarda o'xshash maqol va matallar hamda idiomalarning uchrashi hech kimni ajablantirmaydi. Chunki azaldan bir-biriga qarindosh bo'lib, bir territoriya va bir xil sharoitda yashab kelgan xalqlarning tillarida o'xshashlik bo'lmasligi mumkin ham emas"*¹²⁵. Demak, qadimdan o'zaro yaqin bo'lgan, biroq asrlar o'tishi bilan farqli hududlarga joylashib qolgan turk xalqi va azaldan muayyan hududda muqim yashab kelayotgan o'zbek xalqining maqol, matal va iboralari orasidagi yaqinlikning asosiy sababi ham shu bo'lsa kerak.

2.3. Ona va farzand mavzusidagi turkcha maqol va idiomalarning tarjimada berilishi¹²⁶

Turkcha maqol va idiomalarning salmoqli qismi jamiyat, oila munosabatlari, ota-onaning farzand tarbiyasidagi o'rni, xususan, ona va farzand salomatligi haqida aytilgan. Maqol va idiomalarda oila raisi hisoblangan erkak kishi uy-ro'zg'orning moddiy ta'minotchisi, ayol esa oilaning farzand dunyoga keltiruvchi a'zosi, uyning bekasi sifatida tilga

¹²³ Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayınevi. –İstanbul, Mart, 2014, S.212.

¹²⁴ Qarang: Шабанов Ж.К., Ҳамидов Х.Х., Уй ҳайвонлари номига асосланган мақол ва ибораларнинг таржимада берилиши, мақола, Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами, 2-қисм. – Т.: ТошДШИ, 2014., 68-81

¹²⁵ Саломов Ф., Рус тилидан ўзбекчага мақол, мatal ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 144-бет.

¹²⁶ Ҳамидов Х.Х., Она ва фарзанд мавзусидаги туркча мақол ва идиомаларнинг ўзбекча таржимада берилиши, Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. Илмий тўплам 7. – Т.: ТошДШИ, 2016, 227-233-бетлар.

olinadi. Ayol kishi o‘z turmush o‘rtog‘ini sevishdan tashqari, uni ro‘zg‘orni but qilish, oilani moddiy jihatdan ta‘minlash uchun mas‘ul shaxs sifatida ko‘rishadi, erkak kishi esa ayolining sog‘lom bo‘lishi, to‘kis farzandlar dunyoga keltirishini istaydi: *Karı kocayı var sever, koca karıyı sağ sever* (so‘zma-so‘z: *Xotin erni bor sevadi, er xotinini sog‘ sevadi*) maqoli vositasida ifoda etiladi...

Turkcha maqol va idiomalardan farzand, xususan, o‘g‘il bola dunyoga kelishi bilan ayolning oiladagi mavqei yanada yuksalishi, bundan tashqari, farzand dunyoga kelgan kundan boshlab qat‘iy belgilangan qoidalar va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanishi lozimligi ta‘kidlanadi.

Qadimda turklarda qiz va o‘g‘il farzand alohida holda oila, maktab va ijtimoiy muhitda “biologik” jinsiyatlari hisobga olingan holda o‘stirilgan. O‘g‘il bola va qiz bola orasidagi farqli xususiyatlar har doim otalarning diqqat markazida turgan. Qiz farzanddan yaxshi turmush o‘rtog‘i, yaxshi ona, orasta uy bekasi chiqishini kutgan jamiyat, o‘g‘il boladan “toparman-tutarman” er, omadli, oqil va “qo‘li ochiq” oila boquvchisi, mamlakatni mudofaa qiluvchi posbon bo‘lishni talab etgan.

Xalq oilada farzand dunyoga kelishi hech qanday moddiy qiyinchilik tug‘dirmasligi, ya‘ni bolaning rizqi o‘zi bilan birga kelishini maqol vositasida obrazli ifoda etgan: *Ağilda oğlak doğsa, ovada otu biter* (*Og‘ilda uloqcha tug‘ilsa, yaylovda o‘t unib chiqadi*). O‘zbekistonning ayrim viloyatlarida ushbu turkcha maqolning *Og‘ilda uloq tug‘ilsa, yaylovda shuvoq bitadi* muqobili uchraydi. Bunda xalqning milliy o‘ziga xosligi nafaqat badiiy tafakkuri, balki e‘tiqodi kuchli ekanligi ham namoyon bo‘ladi.

Dunyoga kelgan farzandning voyaga yetgunga qadar onaga bog‘liq bo‘lishi *Et tirnaktan, çocuk anadan ayrılmaz* (so‘zma-so‘z: *Et tirnoqdan, bola onadan ayrilmas*) maqolida aks etgan.

Bola organizmining tinimsiz rivojlanuvchi, tabiiy to‘yimli mahsulotlarga ehtiyoj sezuvchi organizm ekanligi, qolaversa, otalarning o‘z farzandiga halol luqma yedirishi kerakligi *Çocuğun yediği helal, giydiği – haram* (so‘zma-so‘z: *Bolaning yegani halol, kiygani – harom*) maqolida aks etgan. Maqolning ikkinchi qismi (*kiygani – harom*) qofiya uchun keltirilgan bo‘lsa-da, unda bolaning usti but bo‘lishi yetarli ekani, tanasining tez o‘sishi bois unga olingan qimmatbaho libos vaqti kelib tor bo‘lib qolishi natijasida sarflangan mablag‘ o‘zini oqlamasligi, bunda tejamkor bo‘lish lozimligi uqtiriladi.

Ta'lim-tarbiyaning kichik yoshlardan boshlanishi zarurligi, voyaga yetgach qancha urinilmasin befoyda bo'lishi ko'p xalqlarda bo'lgani singari turklarda ham maqollar vositasida ta'kidlanadi: *Ağaç yaşken eğilir* (so'zma-so'z: *daraxt yosh ekan egiladi*).

Bola ma'lum bir yoshga kirgach, uni savodxon qilish ota-onaning burchi, majburiyatiga kirgan. Buning uchun esa mablag' kerak. Bu vaziyat ham xalq badiiy tafakkuri mahsuli bo'lgan maqollarda o'z ifodasini topgan: *Çocuğu babanın akçasıyla ananın bohçası okutur* (so'zma-so'z: *Bolani otaning aqchasi va onaning bo'xchasi o'qitadi*, ya'ni ota ilm olayotgan farzandini moddiy tomondan ta'minlashi kerak bo'lsa, ona - orasta yurishi, kiyinishi uchun mas'uldır).

Ota-ona va farzand mavzusida aytilgan ayrim turkcha maqollarning aniq muqobillari o'zbek tilida bo'lmasa-da, so'zma-so'z tarjimasi kitobxonga qiyinchiliksiz tushunarli bo'lishi mumkin. Masalan, *Oğlunu seven hocaya verir, kızını seven kocaya* (O'g'lini sevadigan odam uni domlaga beradi, qizini sevadigan – erga beradi) maqolining muqobili o'zbek tilida uchramaydi, lekin uning tarjimasi o'zbek kitobxoniga to'la tushunarli (ma'nosi: O'g'lini yaxshi ko'rgan ota-ona uning savodini chiqarish, o'qimishli qilish uchun domlaga berishi, qizini yaxshi ko'rgan ota-ona esa uning baxtli bo'lishi uchun yaxshi kuyovga turmushga bershini kerak). Yoki, farzandning qorni to'q, usti but qilib voyaga yetkazilishi hamda kattalarning bola yonida har bir gapni o'ylab gapirishi lozimligi *Aç bırakma, hırsız edersin, çok söyleme, arsız edersin* maqoli orqali uqtirilgan (*"Och qoldirma, o'g'ri qilasan, ko'p gapirma, orsiz qilasan"*). Bu maqol ham o'zbek o'quvchisiga izohsiz tushunarli.

Farzand parvarishi va tarbiyasi mavzusi iboralar orqali ham ifoda etilgan. Masalan, *el bebek gül bebek (büyütmek)* iborasi (so'zma-so'z: *qo'l bola, gul bola*)ning ma'nosi farzandni "oq yuvib oq tarab katta qilmoq", tarbiya bermoqdir.

Turklar qadimdan chorvadorlik bilan shug'ullanib kelgan xalq bo'lgani bois ko'pchilik maqol va idiomalari hayvonot nomi va hatti-harakatiga qiyosan yaralgan. Asosan ko'chma ma'noda qo'llaniluvchi bunday birliklarda insonlar, jumladan, ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarga ham urg'u beriladi: *"Eşeğe: "Sıpan oldu" demişler, "Sırtımdan yükümü alacak değil ya, önümden yemimi alacak" demiş"* (so'zma-so'z: *"Eshakka: "Xo'tik tug'ibsan" debdilar, "Ustimdagi yukni olarmidi, oldimdagi yemimni oladi-da"* – deb javob beribdi"). Demak, ayrim ota-onalar "farzand o'stirgan bilan ulardan hech qanday naf yo'q"

degan xulosa bilan yashar ekan. Buni turk xalqi o'z maqolida obrazli qilib ifoda etgan. Yoki, *Yumurta çıkmış da, kabuğunu beğenmemiş* (so'zma-so'z: (jo'ja) "tuxumdan yorib chiqqach, (tuxum) po'chog'i ko'ziga yomon ko'rinibdi") deganda, ayrim farzandlar ulg'aygach o'z ota-onasiga past nazar bilan qarashi mumkinligi anglashiladi. Bundan xalqning o'z-o'ziga nechog'li tanqidiy qarashi anglashiladi.

Juda ko'p xalqlarda uchraydigan *Ağlamayan çocuğa meme vermezler* (*Bola yig'lamasa, onasi sut bermaydi*) mazmunidagi (universal) maqol va "Agar bir tomon bir narsani talab qilmasa, ikkinchi tomon uning talabini bajarmaydi" ma'nosida qo'llanadi.

Turk xalqi maqol, matal va iboralari orqali o'z milliy mentalitetiga xos ko'p jihatlarini namoyon etgan. Jumladan, o'g'il bolaning ulg'aygach, o'ziga munosib qizga uylanishi, farovon turmush kechirish, oilani boqish uchun o'qib, munosib ish topish va yetarli maosh olish uchun g'ayrat ko'rsatishi kerakligi *Aşını, eşini, işini bil* (*oshingni, eshing (umr yo'ldoshing)ni, ishingni bil*) maqoli vositasida, erkak kishining oilani boqish uchun barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishi zarurligi *Er olan ekmeğini taştan çıkarır* (*Er kishi nonini tosh orasidan chiqaradi*) maqoli orqali ta'kidlanadi. Shuningdek, maqollarda qiz voyaga yetgach, munosib joyga uzatish, bo'lajak kuyovning tagli-zotli oiladan bo'lishiga alohida e'tibor berish kerakligi uqtiriladi. Shundan bo'lsa kerak, *Kendinden küçükten kız al, kendinden büyüğe kız verme* (so'zma-so'z: *O'zingdan kichikdan qiz ol, o'zingdan kattaga qiz berma*). Antiteza shaklida qurilgan ushbu maqolda "iloji boricha o'g'ilni kelib chiqishi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan sal pastroq tabaqa, hech bo'lmaganda, teng tabaqadan bo'lgan qizga uylantirish, qizni iqtisodiy-ijtimoiy kelib chiqishi teng tabaqadan bo'lgan yigitga uzatish" lozimligi aytib o'tiladi. Shu bilan birga *Çobana verme kızı, ya koyun güttürür, ya kuzu* (so'zma-so'z: *Cho'ponga berma qizni, yo qo'y boqtiradi, yo qo'zi*) deganda kuyovning tagli-zotli oiladan bo'lishi, ijtimoiy kelib chiqishiga e'tibor berilishi zarurligi ham uqtiriladi.

Turk maqollarida erkaklarga xos salbiy jihatlar ham oshkora e'tirof etiladiki, bunday holat boshqa xalq maqollarida kamdan-kam uchraydi. Masalan, qofiyaga solingan *Karım hasta olacağına ben olayım, ben öleceğime karım ölsün* (so'zma-so'z: "Xotinim xasta bo'lgandan ko'ra men xasta bo'lay, men o'lgandan ko'ra xotinim o'lsin") maqoli orqali ayrim erkaklarga xos salbiy jihatlar ochib beriladi. Maqolga boshqa tomondan qaralsa, erkak kishining kasal ayoliga qarashi qiyinligi, undan

ko'ra o'zi kasal bo'lishni afzal ko'rishi (chunki ayol kishi kasal erga qarashni uddasidan chiqqa oladi), ammo hayot-mamot masalasi turganda erkakning mulohazaga borishi, ya'ni o'lishni istamasligi ayon bo'ladi. E'tirof xarakteridagi bunday maqollardan o'nlab keltirish mumkin: *Erkek karısını gömer, dönerken de bıyığını burar* (so'zma-so'z: "Erkak xotinini ko'mar, (qabristondan) qaytar ekan mo'ylovini burar"). Qofiyaga solingan bu maqol vositasida ko'pchilik erkaklarning ayoli dunyodan o'tgach, hamon boshqa ayolga uylanishni rejalashtirishi, buning jamiyat tomonidan ham odatiy hol sifatida qabul qilinishi mumkinligi anglashiladi.

Maqollarda ayolning hayotda o'z o'rnini topishi, jamiyatda o'z mavqeini egallab, to'laqonli shaxs sifatida namoyon bo'lishi ko'pincha erkak kishiga bog'liqligi aytiladi (*İyi koca karyı gül, yaprak; kötü koca kül, toprak yapar. – Yaxshi er xotinni gul-yaproq etar, yomon er xotinni kul-tuproq etar*) kabi.

Xulosa qilib aytganda, turk tilida ota-ona va farzand bilan bog'liq maqol, matal va iboralar qay yo'sin, qay mazmunda ijod etilgan bo'lmasin, ular xalq badiiy tafakkurining mahsuli bo'lib, tilning cheksiz ifoda imkoniyatlarini o'zida namoyon etadi. Ajdodlarning katta hayot tajribasi va kuzatishlariga asoslangan bunday birliklar kundalik hayotda insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishga xizmat qiladi. Oila, er-xotin munosabatlari, ota-onaning farzand va uning tarbiyasidagi o'rni, xususan, ona va farzandining sog'ligi mavzusida aytilgan maqol va idiomalar turk tili xalq og'zaki ijodi va frazeologik xazinasida salmoqli o'rin egallaydi. Ularning tadqiq etilishi nafaqat tilni chuqur o'rganish, balki xalqning milliy o'ziga xosligi, mentaliteti, badiiy tafakkuri, tarixi va madaniyatini bilib olishga ko'mak beradi. Qolaversa, bunday ma'naviy boylikni chuqur egallagan mutaxassis o'zbek va turk tillari orasida badiiy tarjimani amalga oshirayotganda muvaffaqiyatga erishadi.

2.4. Tarjimada tilak, duo va qarg'ishlarni berish vositalari

Badiiy asarda milliylikni belgilovchi omillardan sanalgan tilak, duo va qarg'ishlar mavzusida fanda, jumladan, turk tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar bizga yaxshi ma'lum. Biroq o'zbekcha tilak, duo va qarg'ishlarning turkcha tarjimalarda berilishi masalasi esa tarjima-

shunoslikda alohida mavzu sifatida olib, ko‘rib chiqilmagan. Ularning shakllanishi, semantik, formal-sintaktik tahlili, xususan, frazeologik birikmalarga aylangan tilak va qarg‘ishlarning tarjimada berilishi masalalari mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Bu bilan bog‘liq muammolarning o‘rganilishi o‘zbek xalqining falsafasi, milliy o‘ziga xosligi, psixologiyasi, mentalitetini chuqur bilish hamda ikki xalq badiiy tafakkuridagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash orqali badiiy tarjimada duch kelinayotgan muammolarni aniqlab, ularning yechimini topishga ko‘mak beradi. Mavzuning o‘zgachaligi yana shundaki, o‘zbek va turk tillarida tilak, duo va qarg‘ishlar bir-biriga o‘xshash narsadek ko‘rinsada, sinchiklab kuzatilganda, orada farqliliklar borligi yaqqol seziladi.

Har millatning o‘z milliy qadriyatlari, ana shu qadriyatlar ichida og‘zaki nutqda keng qo‘llanib kelayotgan va yozma adabiyotda aks etgan tilak, duolari bor. Birikma va gap shaklidagi bunday nutq vositalarining badiiy tarjimada berilishi masalalari ko‘rib chiqilgan mazkur faslda taniqli o‘zbek adibi O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasining turkcha tarjimasi amaliy material sifatida olindi. Milliylik ruhi chuqur singdirilgan mazkur asarni tahlil etish jarayonida yuzdan ortiq tilak, duo va qarg‘ish ifodalari borligi aniqlandi. Shundan kelib chiqqan holda ushbu faslda tilak va qarg‘ishlarning tarjimada berilishi masalasi muxtasar tarzda ko‘rib chiqildi. Nazariy xulosalar chiqarishda P.N.Boratav¹²⁷, M.Ergin¹²⁸, Marinier¹²⁹, Abdurahmon Go‘zal¹³⁰, L.Akalin¹³¹, A.Karrel¹³² kabi turk olimlarining tadqiqotlariga tayanildi.

Insonning o‘zi yoki atrofdagilarga bildiradigan ezgu niyati, iliq so‘zlariga tilak deyiladi. So‘z birikmalari yoki gap shaklida bo‘lgan “tilak” atama sifatida “duo”ga sinonimdir. Shu boisdan ularni bir-biridan alohida ajratgan holda ko‘rib chiqish har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Arabchadan o‘zlashgan “duo” (olqish) so‘zining lug‘aviy ma‘nosi Yaratganga hamdu sano, xitob, jamiyatning moddiy farovonligi va insonlarning ma‘naviy saodatini tilab qilingan iltijodir. Turk tilidagi “dua”, “hayirdua” so‘zlarining sinonimi “niyaz, yalvarış,

¹²⁷ Boratav P.N. “100 Soruda Türk Halk Edebiyatı”, Gerçek Yayınevi. –İstanbul, 1982.

¹²⁸ Ergin M., Dede Korkut Kitabı, I. C. –Ankara: 1997.

¹²⁹ Marinier, “Dua Üzerine Düşünceler” (Psikofizyolojik Sebepleri ve Sonuçları). –İzmir: 1991.

¹³⁰ Abdurahman Güzel, “Dede Korkut Hikayeleri Bağlamında Dua” –İstanbul: 1982.

¹³¹ Akalin L.Sami, “Alkışlar kargışlar”, Kültür bakanlığı. –Ankara: 1990.

¹³² Carrel A., “Dua”, Yağmur Yay., 4. Basım. –İstanbul, 2001.

yakariş”dir. Masalan: “Allah dirlik düzenlik versin” (“Olloh tinchlik hotirjamlik bersin”); “Allah sağ gözü/eli sol göze/ele mühtaç etmesin” (“Olloh o’ng ko’z/qo’lni chap ko’z/qo’lga muhtoj etmasin”) kabi. Tilak va duo tushunchalari orasidagi nisbiy farq shundaki, tilakda, ko’pincha, inson(lar)ga yaxshilik bevosita tilanadi, duoda esa inson(lar)ga yaxshilik, marhamat Yaratgandan so’raladi:

“Ermon buva mamnun jilmayadi: – Peshin bo’p qoldi deng, qoravoy? Barakalla! Umringizdan baraka toping, Poshsha qizim sizlarning rohatingizni ko’rsinlar. Shunday deydi-da,... cho’kkalab o’tirgancha ovozi chiqaradi. – Ilohi omi-in! Yurtimiz tinch bo’lsin, u dunyoyu bu dunyo qirg’inbarot bo’lmasin, Ollohu akbar”¹³³. Parchaning birinchi qismida ajratib ko’rsatilgan jumlaning tilak deb ataydigan bo’lsak, ikkinchi qismida ajratib ko’rsatilgan jumla duo sifatida qabul qilinishi mumkin bo’ladi. U turkcha tarjimada quyidagicha berilgan: “Erman Dede şaşırmiş gibi bakıyor, mutlu bir gülümsemeyle: – Öğle oldu desenize kara öğlan. Maşallah. Omrünüz uzun olsun. Güzel kızım sizin iyi günlerinizi görsün. Böyle söylerken ... o bağdaş kurup oturarak sesini yükseltirdi: “İlahi, amin! Yurdumuz huzurlu olsun. Dünyanın hiçbir yerinde savaşlar, katliamlar olmasın. Allahü ekber”¹³⁴. Parcha turk tiliga ishonchli o’girilgan, lekin ba’zi o’rinlarda juz’iy kamchiliklarga duch kelinadi. Masalan, “poshsha qizim” birikmasi “güzel kızım” (“go’zal qizim”) deb o’girilgan. Bu yaxshi, lekin birikmaning turkchada “hanım kızım” muqobili ham bor edi. Yoki, “Ilohi omi-in!” birikmasining turkcha tarjimada “İlahi, amin!” shaklida so’zma-so’z berilishi o’rinli emas. Chunki turklarda duodan oldin “İlahi, amin!” deyilmaydi. Tilak va duo ko’p hollarda biri-biri bilan uyg’unlashib ketganligiga qaramay, ularni bir-biridan farqlab, ajratib turadigan ayrim jihatlari bor. Masalan, turklarda farzand dunyoga kelganda, chaqaloqning ota-onasiga “Allah analı babalı büyütsün” (so’zma-so’z: “Onali-otali katta bo’lsin”, ya’ni “Umri bilan bergan bo’lsin”), yoki “Her şey gönlünüzce olsun!” (“O’ylagan niyatingizga yeting”) kabi tilak bildirilganda “Teşekkür ederiz” deya javob beriladi. Kishi vafot etganda uning yaqinlariga “Başınız sağ olsun! Allah rahmet eylesin! Allah sabır versin!” (so’zma-so’z: “Boshingiz omon bo’lsin!

¹³³ Hoshimov O., “Dunyoning ishlari” –T.: 2005, 57-b.

¹³⁴ Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayınevi. –İstanbul: Mart, 2014, S.70.

Oллоҳ rahmat qilsin! Oллоҳ sabr bersin!) deya hamdardlik bildirilganda, “*Dostlar sağ olsun*” (“Do‘stlar omon bo‘lishsin”) deb javob qaytariladi. Janozaga kelganlarga “*Hakkınızı helâl edin, ağalar!*” (tarjimasi: *Rozi bo‘lingiz, og‘alar!*) deyilganda “*Helâl olsun!*” (tarjimasi: *Rozimiz!*) deb javob beriladi. Duo o‘qilganda esa javob talab qilinmaydi.

Misol: “...*Oyım oyga tikilib turib ohista pichirlar edi:*

Oymomaxon xulla, qanotlari tilla.

Subxon allo sizga, umr bersin bizga...”¹³⁵

Yuqorida yozuvchi tomonidan she‘riy tarzda (xalq qo‘shig‘i vositasida) ifodalangan tilak shaklidagi duo ishtirok etgan parcha turk tiliga quyidagicha o‘girilgan:

“...*Annem ayakta, aya bakarak yavaşça fısıldardı:*

Ay anamız giyinmiş, Kanatları altın.

Sübhānallah Rabbim size, Ömür veresin bize...”¹³⁶

Tarjimon asliyatdagi ohangni talab darajasida ifodalashga muvaffaq bo‘la olmagan, she‘riy satrlarda qofiya saqlanmagan bo‘lsa-da, tilak turkcha tarjimada ishonchli bera olingan.

Turk tilida “tilak” va “duo” so‘zlarining sinonimi “olqish”dir. Bu haqda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ot-it turk” asarida ham so‘z yuritilgan¹³⁷. Unga ko‘ra, olqish “bir insonning yaxshiliklarini tilga olib ko‘kka ko‘tarish, maqtash demakdir. Bundan sanab o‘tilgan atamalarning turkiy tillarda qadimdan qo‘llanib kelinganligi ma‘lum bo‘ladi. Turk olimi P.N.Boratav “olqish” va “tilak”ning “duo”dan farqli o‘laroq, bir insonga ezgu niyatlar bildirish, yaxshiliklarini eslatib o‘tish ekanligi, duoda yolg‘iz Oллоhga iltijo, insonning o‘zi uchun bildiradigan istaklar ekanligini aytib o‘tgan¹³⁸.

“Dunyoning ishlari” qissasi ijobiy pesonajlaridan biri – Ermon buvaning nutqi har doim ma‘naviyat, odob-axloq, chuqur vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan duolarga boy: “*Oxirida Ermon buva dasturxonga fотиha o‘qiydi: – Yaratgan ne‘matingga shukur! – deydi ingichka ovozda. – Ilohi omi-in! Yurtimiz tinch bo‘lsin, u dunyoyu bu dunyo qirg‘inbarot*

¹³⁵ Hoshimov O‘., “Dunyoning ishlari” –T.: 2005, 7-b.

¹³⁶ Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayinevi. –İstanbul: Mart, 2014, S.15.

¹³⁷ Kaşgarlı Mahmud, Divan-ı lügatit-Türk, çev. Besim Atalay. –İstanbul: 1997.

¹³⁸ Boratav P.N. “100 Soruda Türk Halk Edebiyatı”, Gerçek Yayinevi. –İstanbul: 1982, S.129.

*bo'lmasin, ollohu akbar!"*¹³⁹ Asarda bir necha marotaba Ermon bobo tilidan aytilgan duo jumlası turkchaga ishonchli qilib o'gırilgan. Jumladan, yuqorida keltirilgan parcha turkcha matnda quyidagicha berilgan: *"Yemek sonunda Erman Dede fatiha okurdu: "Yarattığın nimetlere şükürler olsun" derdi incecik sesiyle. "İlahi, âmin. Yurdumuz huzurlu olsun. Dünyanın hiçbir yerinde savaşlar, katliamlar olmasın. Allahü ekber!"*¹⁴⁰.

Umuman olganda, o'zbek va turk tillaridagi tilak va duolar o'xshash va o'zaro farqli jihatları bilan ming yillar ichida shakllanib, xalqlarning milliy qadriyatları va badiiy tafakkurini o'zida ifoda etib, sayqallanib kelgan ma'naviy xazinadir.

Tilak va duoga qarama-qarshi ma'nodagi birliklarga *beddua* (*qarg'ish; duoyibad*) deyiladi. Forschadan o'zlashgan "bad" (turkcha – 'bed') old qo'shimchasining lug'aviy ma'nosi "yomon", "o'ta salbiy" bo'lib, la'nat va g'azab ifodaci hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilidagi "Padaringa la'nat" – og'ir qarg'ish sanaladi: *"Padaringga la'nat! – dedi dadam sekin, ammo tahdidli ohangda"*¹⁴¹. Tarjimon o'zbekcha qarg'ishni turkcha muqobil vositasida berishga muvaffaq bo'lgan: *"Babam, yavaş lâkin tehditkâr bir tavırla: "Ceddine lanet senin!.."*¹⁴² Jumla ruschaga quyidagicha o'gırilgan: *"Проклятье! – выругался отец тихо. – Взрослая женщина, а хуже маленькой".* Bunda *"Padaringga la'nat!"* qarg'ish iborasi rus tiliga *Проклятье! (la'nat)* tarzida o'gırilgan. Chunki, rus tilida "Пусть будет проклят твой отец" degan qarg'ish yo'q. Tarjimada ifodaning muqobili berilgan.

"Dunyoning ishlari" qissasidan olingan yana bir parchaga e'tibor qaratamiz. Ushbu parchada o'zbek tilida mavjud bir nechta qarg'ish so'z va jumla joy olgan: " – Nima bo'ldi o'zi, ovsinjon? – dedi onam sekingina. – Kecha mani shundoq so'kdi, shundoq so'kdi, yigitgina o'lgur! – Kelinoyi ikki qo'li bilan sharaqlatib soniga shapatiladi. – Onamni so'kdi-ya, bo'yginang go'rda chirigur. – Qo'ying, xafa bo'lmang, – deb onam uni yupatishga urindi. – Nimaga xafa bo'lmas ekanman? – Kelinoyi yana ham qattiqroq shang'illay boshladi. –

¹³⁹ Hoshimov O'., "Dunyoning ishlari" – T.: 2005, 58-b.

¹⁴⁰ Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayınevi. – İstanbul: Mart, 2014, S.71.

¹⁴¹ Hoshimov O'., "Dunyoning ishlari" – T.: 2005, 21-b.

¹⁴² Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayınevi. – İstanbul: Mart, 2014, S.34.

«...Pardoz-andoz qilgandan ko'ra ovqatingga qarasang o'lasanmi!» deydi-ya, go'rso'xta! Ha, pardoz qilsam, o'ynashimga qipmanmi, qirchiningdan qiyilgur! Qirmochmi, balomi, zahringga yeyavermaysanmi, vergina yutgur! Hah, onamni so'kkan tillaring tanglayingga yopishgur! ...Voy, tilimni gapirgan tillaring jodida qiyma-qiyma bo'lsin-a. Yeldek kelib, seldek olmasa aslo rozimasman!

– Qo'ying, ovsinjon, –onam ma'yus jilmaydi. –Oshsiz uy bor, urishsiz uy yo'q... Qarg'amang bechorani.

– Voy nega qarg'amas ekanman? Og'zi-burningdan laxta-laxta qoning kelgurni, nega qarg'amas ekanman?..”¹⁴³

Parchadan qarg'ish so'zlar o'zbek tilida, asosan, ayollar nutqida uchrashi ayon bo'ladi. Afsuski, bu hol ba'zi ayollarda madaniy saviyaning o'ta pastligini ko'rsatish bilan birga, johillik, nafratni jilovlay olmaslik insonni beandisha so'zlar aytishga majbur qilishini ham ko'rsatadi. Ikki o'zbek ayoli, ikki farqli obraz o'rtasidagi dialogik nutqda ikki xil madaniy saviya: og'ir-vazmin, farosatli, andishali ayol va johil ayol gavalantirilgan parcha turk tiliga quyidagicha o'girilgan:

“Ne oldu elti, ne var? Dedi. Akşam bana öyle hakaret etti, öyle ağır sözler söyledi ki erkekliğe sığmaz. Yenge iki eliyle dizlerinin üstüne vurup: Anama sövdü ya, boyu devrilip karda çürüsün.

– Bırak, üzülme, dedi annem yumuşatmaya çalışarak.

– Nasıl üzülmem? Yenge, tekrar daha şiddetli bağırmaya başladı:

– “...Süslenip kırıtaacağına yemeğinle ilgilenen olmaz mı” dedi hortlayası! Evet, süsleniyorum ama oynaşıma mı süsleniyorum? Çoluk çocuğundan bulsun. Gırmaç mı ne zıkkım yiyeceksen ye zıkkımlan. Anama söven dillerin damağına yapıssın kalsın. ...Vay! Dilim hakkında konuşan dillerin harman makinesinde dilim dilim olsun emi. Elinde, avucunda ne varsa yel gibi gelip sel gibi gitmezse asla hakkımı helâl etmem! Annem hüznünlü bir gülümsemeyle:

– Bırak böyle söyleme elti. Aşsız ev var, kavgasız ev yok. Beddua etme biçareye.

– Vay! Neden beddua etmeyecekmişim? Agzından burnundan lapa lapa kan gelsin. Niye beddua etmeyecekmişim?..”¹⁴⁴

¹⁴³ Hoshimov O'., “Dunyoning ishlari” –T.: 2005, 40-b.

¹⁴⁴ Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayınevi. –İstanbul: Mart, 2014, S.54.

O'zbekcha matndagi *"Yigitgina o'lgur!"* birikmasi turkchada *"erkekliğe sığmaz"* ("erkak kishiga munosib emas"), *"bo'yginang go'rda chirigur"* qarg'ishi *"Boyu devrilip karda çürüsün"* (so'zma-so'z: "Bo'yi ag'darilib qorda chirisin") shaklida, o'zbek tiliga fors-tojikchadan o'zlashgan *"go'ringda kuygur"* ma'nosida qo'llaniluvchi *"go'rso'xta"* qarg'ish so'zi turkchaga *"hortlayası"* ("arvohga aylangur") deb, *"Qirchiningdan qiyilgur!"* qarg'ishi *"Çoluk çocuğundan bulsun!"* (so'zma-so'z: "Bola-chaqasidan topsin!") deb o'girilgan (turk tarjimoni bu yerda bir narsani hisobga olmagan ko'rinadi. Ayol kishi o'z erini o'g'ziga kelgan so'zni aytib qarg'ashi mumkin, biroq hech qachon "bolangdan top" deb qarg'amaydi). *"Yergina yutgur!"* qarg'ish birikmasi esa turkcha tarjimada berilmay qolgan va h. Tahlil shuni ko'rsatadiki, tarjimon *"...tillaring tanglayinga yopishgur!"* *"...tillaring jodida qiyma-qiyma bo'lsin"*, *"Yeldek kelib, seldek olsin..."*, *"Og'zi-burningdan laxta-laxta qoning kelgur..."* qarg'ishlarini o'girar ekan o'zbekcha qarg'ishlarning tub mohiyatiga yetib borishga harakat qilgan bo'lsa-da, ayrim o'rinlarda e'tiborsizlikka yo'l qo'ygan. Masalan, o'zbek tilida kam qo'llaniladigan, *"Juvon o'lgur!"*, *"Yigit o'lgur!"*, *"Juvonmarg bo'lgur!"* qarg'ishlariga sinonim hisoblangan *"Qirchiningdan qiyilgur!"* qarg'ishi tarkibidagi "yosh nihol; navqiron" ma'nosidagi "qirchin" so'zining tub ma'nosiga yuzaki qaragani bois tarjimai ko'ngildagidek chiqmagan.

Qarg'ishlarning ayrimlari ibtidoiy tasavvurlar bilan bog'liq. Aniqrog'i, ularning salmoqli qismi bir kishining boshqasiga o'lim tilash uchun aytilishi jihatidan ajralib turadi. Bu xil qarg'ishlarda o'lim tilash kishiga to'ppa-to'g'ri yoki murdani dafn etish uchun qo'llaniladigan narsalarni aytish orqali bayon etiladi. O'lim tilagini ifoda etuvchi qarg'ishlar og'ir qarg'ish hisoblanadi. Endi yuqoridagi qarg'ish ifodalangan parchaning ruschaga qanday tarjima qilinganiga e'tibor qarataylik: *"А он мне и говорит, сгорит бы ему в могиле: «Чем краситься без конца, лучше бы за едой смотрела! Ну и что с того, что я крашусь, для кого я, спрашивается, крашусь?»— говорю я ему. Мое дело приготовить, а твое — кушать, Так вот кушай, что тебе дают, и помалкивай!». А то «подгорела»! Чтоб язык у него отсох, которым он, мою мать поносил! Надо бы его язык на куски изрезать! Чтоб Аллах забрал себе его несчастную душу! Чтоб у него изо рта и из носа хлынула кровь, как же такого не*

проклинать?”¹⁴⁵ Asliyatlardagi “go‘rso‘xta” (fors-tojikcha go‘r+so‘xta, ya‘ni “qabrda yonish”, “go‘ringda kuygur” so‘zi “сгореть бы ему в могиле” (qabrda yonsin) shaklida o‘girilgan. “*Qirchiningdan qiyilgur*” qarg‘ish birikmasi (“*qirchin*” – yosh nihol, navqiron) tarjimada berilamay qolgan.

Asar qanchalik kuchli uslubda yozilgan bo‘lmasin, undagi ba’zi iboralar, xususan tilak, duo va qarg‘ishlarning tarjimada qayta yaratilishi muammosi saqlanib qolaveradi. Bunday birliklarni tarjima qilish uchun ijodkorning ohoriy asar tilini mukammal bilishi yetarli bo‘lmaydi. U o‘zi o‘girayotgan asar tilida so‘zlashuvchi millatning madaniyati, urf-odatlari, mentalitetini yaxshi bilishi lozim.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, o‘zbek va turk tillarida tilak, duo va qarg‘ish so‘z va birikmalarning yuzaga kelishiga nafaqat din, balki xalqning milliy o‘ziga xosligi, mentaliteti, badiiy tafakkuri ham muhim omil bo‘lib hisoblanadi. “Dunyoning ishlari” qissasining turkcha tarjimasini tahlil etilgan personajlar nutqida nihoyatda ko‘p qo‘llangan tilak, duo va qarg‘ish so‘z va jumllarini o‘girishda tarjimon yetarlicha puxta ish olib bormaganligiga amin bo‘lindi. Shundan kelib chiqqan holda badiiy tarjimada tilak, duo va qarg‘ish so‘z va jumllar tarjimasini bilan bog‘liq muammolarning bir asar misolida ko‘rib chiqish imkonsizligi, tili, madaniyati, tarixi, dini bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘zbek va turk xalqlari tilida keng qo‘llanib kelinayotgan bunday birliklarning semantikasi, grammatik shakllanish qonuniyatlari, sintaktik tuzilishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘rganish tarjimashunoslikning ham muhim masalasi sanalishi va uning alohida tadqiqot mavzusini tashkil etishiga amin bo‘lindi. Bu borada kelajakda qilinadigan ishlar o‘zbekcha-turkcha va turkcha-o‘zbekcha tarjimachilik bilan bog‘liq bir qator nazariy va amaliy masalalarning o‘z yechimini topishiga ko‘mak beradi. Shu o‘rinda O‘tkir Hoshimovning “Nur” gazetasi bosh muharriri H.Nizomov bilan suhbatida aytgan so‘zlarini keltirishni lozim topdik: “Ko‘p adib va shoirlarimizning asarlari qator jahon xalqlari tillariga o‘girilgan. Biroq bu hali yetarli emas. Bizga malakali tarjimonlar kerak. Hozir chet tillari bo‘yicha ko‘p yosh mutaxassislar tayyorlanmoqda. Ammo badiiy asar tarjimoni faqat tilni bilishi yetarli emas. U ijodkor ham bo‘lishi shart. Tarjimon asarning mazmuninigina emas, muhimi uning ruhini boshqa tilda ifoda eta bilishi kerak. Har bir milliy asarda ruh, jon bo‘ladi!

¹⁴⁵ Хашимов У., “Дела земные” –Т.: 1988, с.35.

“Jon”ni tarjima qilish esa juda qiyin. Agar shu ish izga tushsa, o‘zbek adabiyoti jahonga mashhur bo‘lishi shubhasiz”.

2.5. O‘zbek va turk tillarida “qil” so‘ziga asoslangan iboralarining tarjimasi xususida

Frazeologik birlik tarkibidagi obrazli asosni tashkil etuvchi so‘z ko‘p hollarda birlikning kalit so‘zi bo‘lmasligi mumkin. Frazeologik birliklarni tadqiq etishda ularning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan kalit so‘zlar mavzusiga alohida e‘tibor qaratiladi¹⁴⁶. G‘.Salomovning “Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir” nomli monografiyasida bu mavzu batafsil ko‘rib chiqilgan.

Ushbu faslda o‘zbek va turk tillarida “qil” (“kıl”) so‘zi va unga ma‘nodosh bo‘lgan so‘zlar asosida yuzaga kelgan iboralar ko‘rib chiqildi, ayrimlarining rus tilidagi muqobillari ham keltirildi)

Bir ishning juda oson amalga oshirilishi turk tilida *tereyağından kıl çeker gibi* (*xamirdan qil sug‘urganday*) iborasi vositasida ifoda etilishi yuqorida ta’kidlangan edi. Quyida fikrimizni aniq misol asosida tasdiqlashga harakat qilamiz: “*Doğrusu Hamid için zor bir durumdu. Meseleyi tereyağından kıl çeker gibi halletmek isteyen Hamid, böyle bir durumda hasımlarıyla yüz yüze geleceğini ve yüzündeki maskenin düşeceğini biliyordu*”¹⁴⁷ “*Tereyağından kıl çeker gibi*”, “*yüz yüze gelmek*” “*yüzündeki maske düşmek*” iboraları qo‘llangan ushbu parcha A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani turkcha tarjimasidan olindi. Uning asliyatdagi shakli quyidagicha: “*Masalaning bu tomoni ham Homid uchun yomon edi. Farishtadek sof holda qolmoqchi bo‘lgan Homidning bu hol sirrini ochar, yuzidagi niqobini olishg‘a, raqiblar ila yuzma-yuz kelishka majbur etar edi*”¹⁴⁸. Ko‘rinadiki, turk tarjimoni

¹⁴⁶ Хамидов Х.Х., Ўзбек ва турк тилларида “қил” сўзига асосланган иборалар ва уларнинг таржимаси масаласи, мақола, “Kitobxonlik madaniyati va badiiy tarjima mahorati”, Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand: 2017 yil 2-iyun, 290-6.

¹⁴⁷ Kadiri A., Ötgen Künler (Geçmiş Günler), Roman, Türkiye Türkçesi A.Batur, Selenge Yayınları. –İstanbul: 2005, s.101.

¹⁴⁸ Qodiriy A., O‘tkan kunlar, roman, “Sharq” Nashr.-matbaa aksiyadorlik kom-si Bosh tahr-ti. –T.: 2012, 94-b.

parchani o‘g‘irishda erkin harakat qilgan, iboralarning muqobillarini topishga uringan, biroq tarjima matnidagi *tereyağından kıl çeker gibi* iborasining asli o‘zbekcha matnda yo‘q. Tarjimon jummalarni birlashtirib, umumiy mazmun bergan va so‘ngra ikki jumlagacha ajratgan.

O‘zbek tilida “juda yaqin sirdosh, inoq do‘st” ma’nosida “Oralaridan qil (ham) o‘tmaydi” iborasi qo‘llaniladi (*Bu ikki do‘stning orasidan qil o‘tmaydi*). Bu obrazli iboraning turkcha muqobili “aralarından su sızmamak” (so‘zma-so‘z: “oralaridan suv sizmaslik”)dir. Demak, insonlar orasidagi bunday munosabat o‘zbeklarda “qil o‘tmasligi”ga, turklarda esa eng sizuvchan modda hisoblangan suv ham “sizmasligi”ga o‘xshatilar ekan. Holbuki, bu iboralar aynan tarjima qilinsa ham o‘zbek va turk kitobxoniga bir xilda tushunarli bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, tarjima sirasida o‘zaro muqobillar (“oralaridan qil o‘tmaydi” – “aralarından su sızmamak”)ning tanlab olinishi eng to‘g‘ri yo‘ldir. Bunda ham badiiy tafakkurdagi farqlilik masalasi ko‘ndalang bo‘ladi.

O‘zbek va turk tillarida “qil” (“kıl”) so‘ziga asoslangan, nutqda keng qo‘llanilib, ham shakl, ham ma’no jihatdan bir xil bo‘lgan iboralar bor. Bulardan biri *qilni qirq yormoq* (*kılı kırk yarmak*) iborasidir. Ma’nosi: bir narsani puxta va sinchiklab tekshirmoq, maqbul yo‘lini topmoq (ishning ko‘zini bilmoq)dir: “*Senin gibi kılı kırk yaran bir kıza name beğendirme başarısından dolayı sevdiğiniz beyefendiyi kutlarım*” (*H.R.Gürpınar*) – “*Senday qilni qirq yoradigan bir qizga yoqadigan noma yoza olgani uchun bu yigitni tabriklayman*” (*tarjima bizniki – X.H.*) Ushbu iboraning rus tilidagi izohi “перебирать по волоску, копаться, скрупулёзно разбираться в чём, изучать во всех подробностях”dir. Uning so‘zma-so‘z tarjimasida esa “рассекать волосок на сорок частей”dir. Biroq ushbu ibora rus tilida frazeologizm shaklida qo‘llanilmaydi.

“*Bütün şehir şaşkın vaziyette. Kılı kırk yaran ilim adamları bile bu işi çözemедiler*”¹⁴⁹. Bu jumla “O‘tkan kunlar” romanining turkcha tarjimasidan olingan. Uning asliyat shakli quyidagicha: “*Bu ishka butun shahar hayron. Qilni qirq yoradig‘an donolar ham bir narsa to‘qiy*

¹⁴⁹ Kadiri A., Ötgen Künler (Geçmiş Günler), Roman, Türkiye Türkçesi A.Batur, Selenge Yayınları. –İstanbul: 2005, S.269.

olmaydirlar..”¹⁵⁰ Bunday to‘la muvofiqlik mazkur iboraning o‘zbek va turk tillarida qadimdan qo‘llanib kelinayotganini ko‘rsatadi.

“Kil” so‘zi ishtirokida nutqda faol qo‘llaniladigan yana bir ibora *kılı kıpırdamamak* (so‘zma-so‘z: qili qimirlamaslik) va uning varianti *kılını (bile) kıpırdatmamak* (*kimildatmamak, oynatmamak*) (so‘zma-so‘z: qilini (hatto) qimirlamaslik (o‘ynatmaslik) bo‘lib, uning ruscha izohi: бровью не повести, оставаться безучастным к чему-л. “Он и бровью не повел” (so‘zma-so‘z: Uning hatto qoshi ham qimirlamadi). “Holatida hech qanday o‘zgarish yuz bermaslik, parvo qilmaslik; pinagini buzmaslik; bir hodisa qarshisida loqayd qolmoq, zarra qadar qarshilik ko‘rsatmaslik” ma‘nosidagi ushbu ibora o‘zbek tilida o‘zining aynan ekvivalentiga ega emas: “*Meyhanesinde kafayı çekmekte olduğunu söyleseydi kılı bile kıpırdamazdı*” (S.F.Abasıyanık). Tarjiması: *Mayxonada otamlashayotganini aytganida, pinagini ham buzmasdi* (tarjima bizniki – X.H.). “*Hikmet bey yaman adam, dikkat ettim, hiç istifini bozmadı, kılı kıpırdamadı*” (H.Taner). Tarjiması: *Hikmat bey yomon odam, e‘tibor berdim, parvo qilmadi, pinagini ham buzgani yo‘q* (tarjima bizniki – X.H.). Yoki: *Nasıl oluyor da bütün bu olaylar onların kıllarını kıpırdatmıyor.* Tarjiması: *Qanday qilib bo‘layotgan buncha hodisa ularga zarracha ta‘sir qilmasligi mumkin?* (tarjima bizniki – X.H).

O‘zbek va turk tillaridagi ko‘pchilik maqol, idiomalar obrazli asosi yoki kalit so‘zga ko‘ra o‘xshash, bir-biriga to‘la ekvivalent bo‘lishi mumkin. Biroq, shunday iboralar borki, ularning o‘zbek tilida ekvivalenti mavjud emas. Masalan, *boynu kıldan ince olmak* (so‘zma-so‘z: “bo‘yni qildan ingichka bo‘lmoq”), ya‘ni “nohaq ekanligi anglashilganda beriladigan har qanday jazoga so‘zsiz rozi bo‘lmoq”: *Eğer efendim, bir kelime yalanım varsa hükümete karşı boynum kıldan incedir.* (H.R.Gürpınar) Tarjiması: *Agar yolg‘on gapirayotgan bo‘lsam, hukumat oldida bo‘ynim qildan ingichkadir* (tarjima bizniki – X.H).

Kıldan nem kapmak (so‘zma-so‘z: qildan nam tortmoq, ya‘ni “o‘ta his qiluvchan, tez xafa bo‘luvchi”). O‘zbek tilida kamdan-kam qo‘llaniluvchi “namkash devor” iborasini uning muqobil sifatida qabul qilish mumkin. Demak, tarjimonlar bu ikki shaklni muqobili sifatida cho‘chimasdan qo‘llashlari mumkin bo‘ladi. Qolaversa, o‘zbek tilida

¹⁵⁰ Qodiriy A., O‘tkan kunlar, roman, “Sharq” Nashr.-matbaa aksiyadorlik kom-si Bosh tahr-ti. –T.: 2012, 259-b.

muqobili bo‘lmagan ko‘pchilik turkcha maqol va idiomalar so‘zma-so‘z tarjima qilinsa ham ularni o‘zbek kitobxoni qiyinchiliksiz tushuna oladi. Masalan: *tüyleri diken diken olmak* (so‘zma-so‘z: tuklari tikan tikan bo‘lmoq); *tüyleri ürpermek* (so‘zma-so‘z: tuklari hurpaymoq); *her telden çalmak* (so‘zma-so‘z: har tor (sim) dan chalmoq, ya’ni qo‘lidan hamma ish kelmoq) kabi.

Endi katta ruscha-turkcha lug‘at (Büyük Rusça-Türkçe Sözlük)da **волос, волосок** (turkcha: **kıl, tüy, tel**) so‘zlariga berilgan izohlar sirasida keltirilgan ruscha iboralar va ularning turkcha muqobillariga e’tibor qaratamiz¹⁵¹: *Волосы стали дыбом* (o‘zb: tepa sochi tikka bo‘lmoq) – *tüyleri ürperdi, tüyleri diken diken oldu*; *Краснеть до корней волос* (o‘zb: sochlarining tomiriga qadar qizarib ketmoq) – *gözlerinin içine kadar kızarmak, kıpkırmızı olmak*; *Рвать на себе волосы* (o‘zb: sochlarini yulmoq) – *saçını başını yolmak, kafasını taştan taşla vurmak* (o‘zb: boshini toshdan toshga urmoq); *Не допустить, чтобы (у него) с головы упал хотя бы один волос* (o‘zb: boshidan hatto bir dona sochi tushishiga yo‘l qo‘ymaslik) – *kılına bile dokundurmak*; *Быть на волоске (от чего-либо)* (o‘zb: qil ustida turmoq) – *bir şeyin olmasına kıl (kadar) kalmak*; *Он был на волоске от смерти* (o‘zb: hayoti qil ustida turmoq) – *ölmesine kıl (kadar) kalmıştı, ölmesine ramak kalmıştı, öleyazıyordu*; *Висеть (держаться) на волоске* (o‘zb: qilga osilib turmoq) – *ramuk ipliğine bağlı olmak*; *He тронуть волоска (у кого-либо)* (o‘zb: boshidagi bir tola sochini tushirmaslik) – *birinin başının bir telini düşürmemek* kabi.

Katta turkcha-ruscha lug‘at (Büyük Türkçe-Rusça Sözlük)da sanab o‘tilgan turkcha iboralarining ruscha muqobillarini topish mumkin¹⁵²: *tüyleri diken diken olmak* – *чувствовать (испытывать) отвращение (страх и т.н.)*; *tüyleri ürpermek* – *волосы стали дыбом* (дрожать всем телом); *her telden çalmak* – *знать обо всем, быть мастером на все руки* kabi.

Xulosa qilinadigan bo‘lsa, o‘zbek, turk va rus tillarida maqol, matal yoki boshqa turdagi frazeologik birliklarda kalit so‘z, obrazli asos bo‘lgan yuzlab so‘zlar olinib, yuqoridagi (“kıl” so‘zi ishtirokida nutqda

¹⁵¹ Büyük Rusça-Türkçe Sözlük. –M.: «Russkiy yazık», Multilingual. –İstanbul: 1995.

¹⁵² Büyük Türkçe-Rusça Sözlük. –M.: «Russkiy yazık», 1977, Multilingual. –İstanbul: 1994.

faol qoʻllaniladigan frazeologizmlar) yoʻsinda tadqiq etilishi tarjimachilikda mavjud boʻlgan koʻplab muammolarning hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

III BOB. O‘ZBEKCHA BADIY ASARLARDAGI MAQOL VA FRAZEOLOGIZMLARNING TURKCHA VA RUSCHA TARJIMALARDA BERILISHI

3.1. Abdulla Qahhor frazeologiyasi va uning tarjimada berilishi

Taniqli o‘zbek adibi Abdulla Qahhor asarlari dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan. Ushbu faslda adibning rus tiliga tarjima qilingan “Qo‘shchinor chiroqlari” romani va turk tiliga o‘girilgan hikoyalaridagi maqol, matal va iboralar xususida so‘z boradi.

“Qo‘shchinor chiroqlari”¹⁵³ romani nashr etilganidan so‘ng ko‘p vaqt o‘tmay rus tarjimonlari A.Sadovskiy va S.Malashkinlar tomonidan ruschaga o‘girildi va muallif tomonidan ma’qullanib nashr etildi (“Огни Кошчинара”¹⁵⁴). Romanni, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘zbek tili maqol, matal va iboralari xazinasi deyish mumkin. Uning ilk sahifalaridan so‘nggi sahifasiga qadar muallif va personajlar nutqida o‘zbekcha maqol va iboralardan o‘rinli foydalanilgan. Quyida bunday birliklarning tarjimada qanday berilganligi haqida fikr yuritiladi.

Adib asarlarini sinchiklab mutolaa qilinganimizda o‘nlab maqol, hikmatli so‘zlar, yuzlab matal va iboralarga duch kelindi. Hatto asarning ilk jumlası mashhur o‘zbek maqoli bilan boshlanishi kishini hayratga soladi: “Qazisan, qartasan, oxir, aslingga tortasan! – dedi kampir omborni qulflayotib. – Endi jir bitdi-da! Bitta ko‘ylak ikkita bo‘ldi! Uvada, isliqi to‘n, chilvir belbog‘ning xumori tutgandir!..”¹⁵⁵. O‘zbek xalqi orasida mashhur bo‘lgan bir maqol va uch ibora qo‘llanilgan mazkur parcha rus tiliga “–Как волка ни корми, он все в лес глядит, – затирая кладовую на замок, ворчала старуха. – Зажирел от хорошей жизни, вот и бесится. Видно, соскучился по рваному халату и веревочному поясу, в лохмотьях ходить захотел” deb o‘girilgan¹⁵⁶.

¹⁵³ Каххор А., Қўшчинор чироқлари, роман, Асарлар: беш жилдлик. II жилд. –Т.: Фафур Фулом нашриёти. 1987.

¹⁵⁴ Каххар А., Огни Кошчинара, авторизованный перевод А.Садовского и С.Малашкина, <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi, 268 с.

¹⁵⁵ Каххор А., Қўшчинор чироқлари, роман, Асарлар: беш жилдлик. II жилд. –Т.: Фафур Фулом нашриёти. 1987, 4-б.

¹⁵⁶ Каххар А., Огни Кошчинара, авторизованный перевод А.Садовского и С.Малашкина, <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi, с.3.

Rus tarjimonlari o‘zbekcha maqol va iboralarning ruscha muqobilini topishga harakat qilishgan. *Qazisan, qartasan, axir, aslingga tortasan!* maqoli *Как волка ни корми, он все в лес глядит* (ma’nosi: Bo‘rini qancha boqsang boq, baribir ko‘zini o‘rmondan uzmaydi) deb, *jir bitmoq* iborasini *зажиреть от хорошей жизни* (ma’nosi: shohona hayotdan semirib ketmoq) iborasi, *xumori tutmoq* iborasini esa *соскучился* (sog‘inmoq) fe’li va *захотел ходить* (yurmoqchi bo‘ldi) erkin fe’l birikmasi vositasida berilgan.

“...tarjimada, asar qaysi tilga tarjima qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha xalqning hududi, tabiiy sharoitlari yoxud urf-odatlar va milliy xususiyatlari emas, balki u qaysi tildan tarjima qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha xalqning hududi, tabiiy sharoitlari va milliy xususiyatlarini aks ettirish kerak”¹⁵⁷ – deb yozgan edi o‘zbek tarjimashunosi G‘.Salomov o‘zining “Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir” nomli risolasida. Olim bu borada yana quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Lekin bundan hamma maqollarni ham ular aks etgan xalqning tabiiy sharoitiga qarab so‘zma-so‘z tarjima qilish kerak degan xulosa kelib chiqmaydi, chunki maqol – so‘zlarning harfma-harf ma’nosida tushuniladigan birikma emas, balki har qanday maqol ham, umuman, so‘z kabi, abstraktlashgan, umumiy tushunchalar belgisidir”¹⁵⁸.

Olim XX asrning 60-yillaridayoq so‘z borayotgan maqol tarjimasi xususida o‘z munosabatini bildirgani diqqatga sazovor: “Yozuvchi A.Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari” romanidagi *Qazisan-qartasan, oxir aslingga tortasan!* maqoli rus tiliga *Сколько волка ни корми, он все в лес глядит* deb tarjima qilingan ekan, o‘rmon O‘zbekiston hududi uchun xos emas, shuning uchun bu tarjima noto‘g‘ri deb o‘ylash kulgili bo‘lar edi”¹⁵⁹. Demak, biz yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, parchani ishonchli tarjima qilingan deb xulosa qila olamiz. Bundan tashqari, o‘zbekcha nutqda ko‘p uchraydigan “jir bitmoq” birikmasi ibora xususiyatiga ega. Tarjimonlar ana shu qisqa gap (*Endi jir bitdi-da!*) ning ma’nosini to‘la qoplash uchun murakkab jumla qo‘llashga majbur bo‘lganlar: *Зажирел от хорошей жизни, вот и бесится*. Bu ruscha jumla teskari o‘girilsa, “Farovon hayotdan semirib ketgan, mana endi

¹⁵⁷ Саломов Г., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 48-бет.

¹⁵⁸ O‘sha kitob, 49-бет.

¹⁵⁹ O‘sha kitob, 49-бет.

quturmoqda” bo’ladi. Tarjimonlar gapning ta’sirli chiqishi uchun bor imkoniyatlarini ishga solishgan. Buni oddiygina “*dedi*” (kampir) fe’lini “*ворчала*” (*старуха*) deb, “*qulflayotib*” ravishdoshini “*запирая на замок*” shaklida berilganligida ham ko’rish mumkin.

Romanning ilk sahifasida yana bir maqolli, iborali jumлага duch kelamiz: “*Siddiqjon qaynanasidan bu xildagi ta’nalarni ko’p eshitgan, lekin sira gap qaytarmagan edi, bu safar zaharxanda qilib: – O’zi to’y-maganning sarqiti qorin og’ritadi, onajon, sizdan ortdi-yu, bizga jir bitdimi! – dedi*”¹⁶⁰. Bu jumлада ham bir maqol, uch ibora qo’llanilgan. Uning ruscha tarjimasi quyidagicha: “*Сидыкджан не раз слышал такие слова от тещи, но никогда не возражал ей, будто они относились не к нему, а к кому-то другому. Сегодня он не выдержал и ответил теще едко, насмешливо: – От остатков еды ненасытного, мать, не очень-то разжиреешь*”¹⁶¹. O’zbek tilida tez-tez uchrab turadigan “*gap qaytarmaslik*” iborasi tarjimada *не возражать* (“e’tiroz bildiraslik”) fe’li vositasida, “*semirmoq*” ma’nosidagi “*jir bitmoq*” iborasi esa *разжиреть* fe’li vositasida berilgan. O’zi to’y-maganning sarqiti qorin og’ritadi maqoli ruschaga so’zma-so’z (*От остатков еды ненасытного, не очень-то разжиреешь*) o’girilgan bo’lsa-da, tarjimaning ishonchli chiqishini ta’minlagan.

A.Qahhorning tarjimonlik faoliyatini tadqiq etgan olim Sh.Karimov shunday yozadi: “Abdulla Qahhor o’zga xalq adabiyotida voqea bo’lishga ulgurgan umrboqiy asar nufuziga sazovor bo’lgan qissa, roman yoki hikoyani tarjimada o’rtamiyona asar holiga tushmasligi uchun kurashar va boshqa hamkasblaridan ham buni qat’iy talab qilar edi. Ayni paytda o’z asarlarining boshqa tillarda asliyatdagi darajasini saqlab qolishni tarjima mezonini deb qarashlarini uqtirar edi”¹⁶². Darhaqiqat, A.Qahhor “Qo’shchinor chiroqlari” va boshqa asarlarining ruscha tarjimalarini o’z nazaridan kechirgan va tegishli mulohazalarini bildirgani tarjimashunoslarga yaxshi ma’lum.

¹⁶⁰ Қаҳҳор А., Қўшчинор чироқлари, роман, Асарлар: беш жилдлик. II жилд. –Т.: Ғафур Ғулом нашриёти. 1987.4-б.

¹⁶¹ Каххар А., Огни Кошчинара, авторизованный перевод А.Садовского и С.Малашкина, <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi, с.3.

¹⁶² Каримов Ш. Абдулла Қаҳҳор ижоди хорижий таржимонлар талқинида, Мақола, Шарқ юлдузи, 2015 йил, 4-сон, 144-бет.

Ma'lumki, yozuvchi xalq jonli tilida ifoda etilgan, ommaga tushunarli adabiy til vositasida asar yaratadi. U obraz va tiplar, xarakter va manzaralar yaratar ekan, ularning tub mohiyatini ochib beruvchi so'z va iboralar tanlab, ularning o'z va ko'chma ma'nolarini aniqlaydi, sinonimlarini topadi, umumxalq tilining gap qurilishi usullari va boshqa vositalardan keng foydalangan holda asar g'oyasiga mos shakl tanlaydi. U o'z qahramonlarining xatti-harakatlarini tasvirlar ekan, ularning ichki kechinmalari, his-tuyg'ularini obrazlar vositasida ifodalashga intiladi. Bu intilish uni shunchaki aniq predmetli ifoda vositalarini emas, intonatsion-ritmik ifoda vositalarini tanlab olish, beixtiyor, hatto ongli ravishda har bir so'zning tovush va tus bo'yog'i, so'zning emotsional xossalarini hisobga olishga majbur qiladi. Badiiy asar tarjimoni ham san'atkor sifatida ana shu jarayonni o'z ijodida takrorlaydi, original asarni tarjima tilida qayta yaratadi¹⁶³. Shu o'rinda A.Qahhorning so'z qo'llash mahorati o'z aksini topgan yana bir jumlasiga e'tibor qaratamiz:

“–E, o'l, ityaloq! Daydi itning tumshug'ini yog' qilmay o'l! Itga bersang oshingni, itlar g'ajir boshingni! Koshki o'z boshini g'ajisa!”¹⁶⁴. Tarjimon ushbu jumlanı “–Лучше бы тебе, сука, сдохнуть, чем приласкать бродячего пса. Он отгрызет тебе голову. Добро бы только твою одну”¹⁶⁵ shaklida o'girib, uning umumiy mazmunini bera olgan. Biroq, sinchiklab qaralsa, ayrim sezilmas nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek tilida **ityaloq** (itga ovqat beriladigan idish, itning tuvagi; shu idishga nisbatli haqorat, so'kish¹⁶⁶) so'zi so'kinish, haqorat so'z hisoblanadi, rus tilida ham **сука** so'zi (urg'ochi it, qanjiq) haqorat ma'nosida qo'llaniladi. Ammo bu so'zlarni qo'llashdan maqsad bir kishini haqorat qilish bo'lsa-da, tarjimon ularning ma'nolari bir xil emasligiga e'tibor berishi kerak edi. “Yaloqi”, “ityaloq” sўzlari русчада “1. плошка, посуда для собаки; 2. приживальщик, прихлебатель, прихвостень, подхалим”дир (Abdulla Qahhor so'zni

¹⁶³ Хамидов Х.Х., Бадий таржимада сўз танлаш муаммосига доир // Шарқ-шунослик. – Т.: ТошДШИ, 2013. №1. – Б. 7-15.

¹⁶⁴ Қахҳор А., Қўшчинор чироклари, роман, Асарлар: беш жилдлик. II жилд. –Т.: Ғафур Ғулом нашриёти. 1987.4-б.

¹⁶⁵ Қахҳар А., Огни Кошчинара, авторизованный перевод А.Садовского и С.Малашкина, <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi, с.4.

¹⁶⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдди, II жилд: - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006.

“qanjiq” ma’nosida emas, laganbardor, yuvindixo‘r ma’nosida ishlatgan). Yana bir o‘rinda adib “*ityaloq*” so‘zining ma’nodoshi bo‘lgan “yuvindixo‘r” so‘zini qo‘llaydi. “... *Bu yerdagi o‘rtoqlaring seni, sen yuvindixo‘rni hamqishlog‘imiz degani or qilishadi!*”¹⁶⁷. (ruscha tarjiması: “*Ведь здесь, в нашем кишлаке, прежние твои товарищи считают тебя кулацким прихлебателем, они стыдятся назвать тебя своим земляком*”¹⁶⁸). Tarjimonlar qisqa va lo‘nda jumlanı erkin ravishda kengaytirib, o‘zlaridan so‘zlar qo‘shganlar. Ehtimol, umumiy kontekstdan kelib chiqqan holda shunday ish tutgan bo‘lishlari ham mumkin, biroq A.Qahhorga xos ixcham, lekin chuqur ma’no, mazmunga ega bo‘lgan gaplarnı uzundan-uzoq ifodalar bilan almashtirmaslik kerak edi.

A.Qahhor romanining har ikki jumladan birida maqol, matal yoki ibora uchraydi. Masalan, bir obraz tilidan *Hali ham bulturgi eshmatmiz* degan ibora ishlatilgan. O‘z tadqiqotida bu iboraga alohida e‘tibor qaratgan G‘.Salomov shunday deydi: “Albatta, bu so‘z o‘z nutqida shu idiomani ishlatgan odamning nomi Eshmat ekanligini bildirmaydi – uning nomi Bo‘taboy aka. Bu idioma “oldin qanday bo‘lsak, hozir ham shundaymiz, hech bir o‘zgarish yo‘q” degan ma’noda ishlatilgan. Ruslarda Ivan qanday sevimli nom bo‘lsa, o‘zbeklarda ham Eshmat, Toshmat shunday tipik nomlardir. Lekin bu idiomatik iborani «Мы остались прошлогодными же иванами» deb tarjima qilib bo‘lmaydi. Zotan, “Qo‘shchinor chiroqlari” romanining tarjimonlari buni aynan saqlab, so‘ngra havolada izoh berish bilan to‘g‘ri qilganlar. Ammo, ko‘pincha, tarjimada obrazli asoslari kishi nomlaridan iborat idiomalarnı aynan saqlab, so‘ngra izoh bergandan ham ko‘ra, uning boshqa ekvivalenti, ya’ni kishi nomlarisiz yasalgan birikma bilan berish maqsadga muvofiqdir”¹⁶⁹.

G‘. Salomov bu xususda obrazli asosi kishi nomlaridan iborat maqol, matal, idioma va so‘z o‘yinlarini bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish ko‘p qiyinchiliklar tug‘dirishini ta’kidlar ekan, “...agar tarjimada “oddiy” maqol bilan ish ko‘rilsa, uning ekvivalenti yoki muqobil

¹⁶⁷ Qahhor A., Q‘shchinor chiroqlari, roman, Asarlar: besh jildlik. II jild. –T.: Gafor F‘lom nashriyati. 1987. 8-6.

¹⁶⁸ Kaxhar A., Ognı Koshchinara, avtorizovannıy perevod A.Sadovskogo i S.Malashkina, <http://www.ziyouz.com.kutubxonasi>, s.8.

¹⁶⁹ Salomov F., Rus tilidan ‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarnı tarjima kiliş masalasiga doir, ‘zFA nashriyati. – T.: 1961, 73-bet.

varianti bilan almashtirilishi, agar bo‘lmasa, uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda tarjima qilinib, yangi maqol yasalishi mumkinligi”ni aytadi¹⁷⁰.

Yana bir misol: “... *Xayr, mayli, odam jahl ustida har narsa deydi, men bunga xafa bo‘lmayman. Tilini tishlab olgan odam tishini sug‘urib tashlamaydi*”¹⁷¹. O‘zbek xalqi orasida mashhur “*Burunni sassiq deb kesib bo‘lmas*” maqolining sinonimi ishlatilgan jumla ruschaga “*Я знаю, человек в гневе может всякое наговорить, и на это обижаться не следует. Я и не обижаюсь. Если кто нечаянно укусил свой язык, то не вырывать же ему зубы*”¹⁷² deb tarjima qilingan. Maqol ruschada ishonchli berilgan, so‘zlar o‘rinli qo‘llanilgan.

Yoki, “*Sidiqjon iljaydi: –Ko‘r hassasini bir marta yo‘qotadi*”¹⁷³ jumlasiga e‘tibor qilamiz. Undagi maqol *Sutdan og‘zi kuygan, qatiqni ham puflab ichadi* maqoliga ma‘nodoshdir, ya‘ni “inson bir marta xato qilgach, bundan xulosa chiqarib, takror qilmaslikka harakat qiladi”. Jumla ruscha tarjimada quyidagicha berilgan: *Сидыкджан принужденно улыбнулся: –Ноги моей не будет в его доме!*¹⁷⁴. Tarjimada o‘zbekcha maqol kontekstdan kelib chiqilgan holda “(u uyni) yelkamning chuquri ko‘rsin” ma‘nosidagi ruscha ibora vositasida berilgan. Agar o‘zbekcha maqol aynan tarjima qilinsa “Слепой теряет посох (трость) лишь один раз” bo‘ladi. Ushbu maqolning yanada aniqroq muqobili izlansa, “Сапер ошибается один раз” degan shaklini ham topish mumkin. Shunga qaramay, tarjimon “xotinini g‘oyibona “uch taloq” qilib, uyga qaytmaslikka ahd qilgan” Sidiqjonning vaziyatidan kelib chiqib, ma‘qul yo‘l tutgan deyish mumkin.

Romanda adib qo‘llagan yana bir matal e‘tiborni tortadi: *Tayyor oshga bakovul bo‘laman desang, hammaning ko‘ziga xunuk ko‘rinasan*. Tarjimasi: *Если ты думаешь прийти на все готовенькое, на тебя поглядят косо*. Ruschaga erkin o‘girilgan bu jumlada asliyat mazmuni o‘z ifodasini topgan. Shunga qaramay, tarjimon o‘zbekcha matalning

¹⁷⁰ O‘sha kitob, 63-64-betlar.

¹⁷¹ Каххор А., Қўшчинор чироқлари, роман, Асарлар: беш жилдлик. II жилд. –Т.: Фафур Фулом нашриёти. 1987. 12-б.

¹⁷² Каххар А., Огни Кошчинара, авторизованный перевод А.Садовского и С.Малашкина, <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi, с.12.

¹⁷³ Каххор А., Қўшчинор чироқлари, роман, Асарлар: беш жилдлик. II жилд. –Т.: Фафур Фулом нашриёти. 1987.21-б.

¹⁷⁴ Каххар А., Огни Кошчинара, авторизованный перевод А.Садовского и С.Малашкина, <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi, с.20.

rus tilida mavjud bo‘lgan muqobilini (*Где олады, тут и ладно; Где блины, тут и мы; Где каша, там и наши*) topishga harakat qilishi kerak edi.

“Qo‘shchinor”da yana bir maqolga duch kelamiz: “*G‘alchani izzat qilsang chorig‘i bilan to‘rga chiqadi*” U ruscha tarjimada quyidagicha berilgan: “*Окажи уважение бродяге он в сапогах заберется на почетное место*”. Tarjimada ma‘no to‘la aks etgan, biroq “o‘z tilidan boshqa tilga tushunmaydigan; gap-so‘zni tezda anglab, uqib ololmaydigan odam” ma‘nosidagi “g‘alcha” so‘zi “бродяга” deya berilgan. Holbuki, “бродяга” “daydi” degani, ba‘zan esa “darvesh, miskin” ma‘nolarida ham keladi. Shu bois “g‘alcha” so‘zini ruschada *глупец, тупой, debil, лопух* yoki shunga o‘xshash so‘zlardan biri vositasida berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Qolaversa, “choriq” ham ruschada “сапор” (“etik”) emas. Bunday misollar asarda juda ko‘p uchraydi. Lekin imkoniyatfdan kelib chiqqan holda quyida “Qo‘shchinor”dan olingan bir necha maqol, matal va ibora qatnashgan jumlarlar va ularning ruscha tarjimalarini (tahlilsiz) keltirishni ma‘qul topdik:

“Qo‘shchinor chiroqlari”	«Огни Кошчинара»
<i>Har kimning go‘ri boshqa (56-b).</i>	<i>У каждого своя могила (с.281).</i>
<i>Bu to‘g‘rida ham senga qoyilman. Yog‘ochning bo‘shini qurt yeydi (41-b).</i>	<i>И тут я доволен тобою, сынок. Мягкое дерево разъедают черви (с.267).</i>
<i>“Bo‘taboy akamning labiga uchug toshmaganiga hayronman. Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r... (60-b)</i>	<i>Удивляюсь, к чему наш председатель передавал тут кулацкие сплетни? Говорят: «Если уж и веблюда собьет с ног ветер, то козла, как перышко, понесет в небо»... (с.287)</i>
<i>“Bu kishi “tushuntirish kerak” deyдилar, to‘g‘ri, lekin “gapni aytgin uqqanga, jonni jonga suqqanga; gapni aytib netarsan, onasi bemahal tuqqanga!” (60-b).</i>	<i>– Бутабай-ака говорит: «Надо разъяснять...» Это верно. Но разъяснять надо тому, кто понимает, тому, чья душа близка твоей душе, а какой толк беседовать о колхозе с тем, кого мать, как говорится, не вовремя родила? Есть ведь такие люди: ему говоришь, а он слушает мычание своего быка (с.287).</i>

<i>Men aytaman, bolam, qo‘lmdan shuncha ish kelar ekan, dadang hayot vaqtida nega “bersang yeyman, ursang o‘laman” deb o‘tirgan ekanman (17-b).</i>	<i>А вот при жизни твоего покойного отца сидела сложа руки, и мысль была одна: “Дашь- поем, попьешь- умру” (с.245).</i>
---	---

A.Qahhorning rus tiliga tarjima qilingan asrlaridan yana biri “O‘tmishdan ertaklar”dir. Quyida ushbu asar va uning tarjimasidagi iboralarga e‘tibor qaratamiz:

“Uning o‘rnida **ko‘zlari qinidan chiqay deb turgan, rangi soqolidan ham oqroq, vujudi titrab, uzun soqoli silkinayotgan dahshatli bir odam turardi**”¹⁷⁵ jumlasini rus tiliga “**Выпученные глаза готовы были выскочить из орбит. Лицо старика казалось бледнее его седой бороды. Он весь дрожал от негодования**”¹⁷⁶ shaklida o‘g‘irilgan. Muallif iborani o‘zgartirib qo‘llagan. Chunki ko‘z qinidan emas “kosasidan chiqadi”¹⁷⁷. Ruscha tarjimada esa o‘zbekcha ibora «**глаза готовы были выскочить из орбит**» deb to‘g‘ri o‘g‘irilgan. Yoki, “*To‘y qachon, ko‘zim ochiqligida qizimning to‘yini ko‘rib qolay*”, dedi¹⁷⁸ jumlasini ruschaga “*Свадьбу когда сыграете? Пока жива, хочу свадьбу дочери увидеть!*”¹⁷⁹ deb tarjima qilingan. Yozuvchi qo‘llagan “ko‘zim ochiqligida” metaforik birikmasi erkin birikma (пока жива – tirikligimda) vositasida berilgan. Chunki rus tilida uning ibora shaklidagi muqobili yo‘q.

Endi A.Qahhor hikoyalarning turkchaga qilingan tarjimalari va ularda adib frazeologiyasining qanday berilganligi xususida so‘z yuritamiz.

Ma‘lumki, istiqlol yillarida XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillari: A.Qodiriy, Oybek, O.Yoqubov, Shukrullo, P.Qodirov, O‘.Hoshimov, X.To‘xtaboev va boshqa bir qator adiblarning asarlari

¹⁷⁵ Каххор А., Ўтмишдан эртактлар, кисса, Асарлар: беш жилдлик. II жилд. –Т.: Фафур Гулом нашриёти. 1987, 196-б

¹⁷⁶ Каххар А., Сказка о былом, авторизованный перевод А.Садовского и С.Малашкина, <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi, с.14.

¹⁷⁷ Ўзбек тилида “юраги кинидан чиқай деди”, “кўзи косасидан чиқай деди” идиомалари қўлланилади.

¹⁷⁸ Каххор А., Ўтмишдан эртактлар, кисса, Асарлар: беш жилдлик. II жилд. –Т.: Фафур Гулом нашриёти. 1987, 210-б.

¹⁷⁹ Каххар А., Сказка о былом, авторизованный перевод А.Садовского и С.Малашкина, <http://www.ziyouz.com> kutubxonasi, с.25.

qatorida Abdulla Qahhor hikoyalari ham turk tiliga o‘girilib nashr etildi. Tarjima asarlarining badiiy saviyasi, sifati xususida olimlar, tadqiqotchilar tomonidan turli fikrlar bildirildi, ilmiy maqolalar va monografiyalarda ayrim tanqidiy mulohazalar ham berildi¹⁸⁰.

Adib asarlarining turk tiliga yaqin vaqtlarga qadar tarjima qilinmagani sababi turk ijodkorlarining asarlarni o‘z tillariga o‘girishga “jur’at qila olmaganliklari” bo‘lishi mumkin. Biroq, 2010 yilda yosh tarjimon, bir necha yil O‘zbekistonda yashagan va o‘qib, magistr darajasini olgach, O‘zMuda talabalarga turk tilidan saboq bergan tadqiqotchi Filiz Demirji A.Qahhorning o‘zbek kitobxonlari orasida ma’lum va mashhur bo‘lgan o‘ndan ortiq hikoyasini turkchaga ag‘darishga jazm qildi. Uning tarjimalari mo‘jaz kitob holida “Mumtoz so‘z” nashriyotida chop etildi¹⁸¹. Muhimi, bu bilan Turkiyadagi A.Qahhor hikoyalari ixlosmandlari va adabiyotshunoslar adib asarlari bilan tanishishga muyassar bo‘ldilar.

Tarjima to‘plamiga so‘z boshi yozgan prof. Q.Sodiqov bu xususda shunday deydi: “Abdulla Qahhor o‘z asarlarida o‘zbek tilining qudrati, boyligi, uslubiy imkoniyatlari cheksiz ekanini ko‘rsata olishga qodir bo‘lgan chinakam bilimdon, qalami o‘tkir, aytadigan so‘zini ming o‘ylab, bir bitadigan yozuvchi edi. Bu noyob ijodkorning asarlari chet tillariga tarjima qilishga arzigulikdir. Endigi so‘z tarjimonning adib asarlarini maromiga yetkazib o‘gira olishida. Buni uddalasa, chet ellik kitobxonning ham qalbini larzaga solib, to‘lqinlantirib yuborishi tayin”¹⁸². Darhaqiqat, turk tarjimoni o‘zbek adibining eng sara hikoyalarini o‘girishga kirishar ekan, ko‘p o‘ylaydi. Muallifning qisqa, lekin o‘ta zalvorli jumllarini, o‘zbek xalqi orasida mashhur maqol, matal va iboralarini o‘girayotganda esa, cho‘chiydi. Ba’zida xatoliklarga, tillar yaqinligi sabab yuzaga kelgan kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yadi.

Tarjimalarga xolis yondashib, adibning o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidan bir parcha va uning turkcha tarjimasiga e’tibor qaratamiz: *“Abdulkahimning qiziga usta Mavlonning o‘g‘li bir hovuch mayiz berganini o‘z qo‘zim bilan*

¹⁸⁰ Хамидов Х.Х., Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари турк тилида, “Таржимашунослик муаммолари” Республика илмий-назарий анжумани материаллари, ЎзР ОЎМТВ Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети. –Т.: 2017 йил 18 май, 66-67-б.)

¹⁸¹ Kahhar A., Hikâyeler, Çeviren Filiz Demirci, Toshkent, Mumtoz so‘z, 2010, –76 s.

¹⁸² Kahhar A., Hikâyeler, Çeviren Filiz Demirci, Toshkent, Mumtoz so‘z, 2010, s.3.

ko'rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo'li – xo'p yo'l. O'n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo'lni yuvib qo'ltiqqa ura bering. Paranji hayoning pardasi-da!"¹⁸³

Ushbu parcha turkchaga quyidagicha o'girilgan: "*Usta Mevlâ'nin o'glunun Abdulhamit'in kizina bir avuç dohusu kuru üzüm verdiğini gözlerimle gördüm. Sanki onlarda utanma arlanma var? Şeriat yolu çok doğru bir yol. Onbir yaşına erip de parenciyle örtünmeyen kizdan ümidi kesin. Parenci hayanın perdesidir*"¹⁸⁴. Parchaning mazmuni tarjimada o'z ifodasini topgan. Tarjimon har bir so'zni o'z o'rnida, asliyatga monand o'girishga butun kuchi bilan intilgan, adib uslubini saqlashga harakat qilgan. Biroq, parchadagi "*O'n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo'lni yuvib qo'ltiqqa ura bering*" jumlasida adib "insonning bir narsadan batamom umidini uzishi" ma'nosidagi "qo'lni yuvib qo'ltiqqa urmoq" iborasini qo'llagan. Turk tarjimoni ushbu iborani "ümidi kesin" deb o'giran. O'zbek tilida "umid uzmoq" iborasi bor, lekin yozuvchi "qo'lni yuvib qo'ltiqqa urmoq"ni qo'llab, ifodani yanada kuchaytirgan, ya'ni insonning bir narsadan shunchaki umidini uzishini emas, "batimom umidini uzishi"ni ta'kidlagan. Turk tarjimoni esa sinonim yoki variant tashkil qiladigan boshqa ibora yo'qligi (balki topa olmagan) bois "ümidini kesmek" iborasini ishlatib, vaziyatdan chiqqan ko'rinadi.

Tarjimon jumlaning yanada ta'sirli bo'lishi uchun parchaga kirish so'zlari ham qo'shadi (*Ne yazık ki – afsuski!*). Bundan tashqari, o'zbekcha xos so'z hisoblangan "paranji"ni parenci deb qoldirib bir jihatdan maqbul ish tutsa-da, so'zning ma'nosini havolada izohlamaydi. Aslida esa, tarjimon turk ayollarining usmoniylar davrida ayni libosni kiyganliklari, arabchadan o'zlashgan "paranji" so'zining lug'atlardagi izohlarini hisobga olgan holda "paranji"ni *ferace* (ar.) shaklida berishi mumkin edi [(*"Katta ruscha-turkcha lug'at"*da so'zga quyidagicha izoh beriladi: "parandja – kıl peçe ile beraber giyilen bir çeşit ferace"¹⁸⁵ (jundan to'qilgan chachvon bilan birga kiyiladigan *feraje*)].

"Mayiz yemagan xotin"dagi "*Mulla Norqo'zi har kuni bozordan qaytib samovarga chiqadi va ko'ngli tortgan odamlarni atrofiga to'plab, yarim kechagacha shariatdan yuz o'giran xotinlar to'g'risida*

¹⁸³ Қаххор А., Ҳикоялар. –Т., Фафур Фулом нашриёти. 1987.

¹⁸⁴ Kahhar A., Hikâyeler, Çeviren Filiz Demirci, Toshkent, Mumtoz so'z, 2010, s.17.

¹⁸⁵ Большой турецко-русский словарь, –М., ООО «Дом славянской книги», 2009, с.315.

shunday vaysab o'tiradi" jumlasini turkcha tarjimada quyidagicha berilgan: "*Mulla Narkuzu hergün Pazar dönüşü semavere çıkar ve samimi gördüğü adamları çevresine toplayarak gece yarısına kadar seriata yüz çeviren kadınlar üzerine ileri geri konuşup dururdu*" (D.F). Tarjimon asliyatdagi *ko'ngli tortgan* iborasini oddiy birikma (*samimi gördüğü adamları* – samimiy deb bilgan kishilarni) shaklida turkchallashtirgan bo'lsa-da, keyingi o'rinda *vaysab o'tiradi* erkin birikmasini *ileri geri konuşup dururdu* shaklida ibora vositasida o'girib, mohirona ish tutgan.

Ta'kidlash kerakki, bir tildagi frazeologik birlikni boshqasiga ekvivalent yordamida tarjima qilishning iloji bo'lmaganda, ya'ni tarjima tilida asliyatdagi iboraga mos ekvivalent topilmaganda, tarjimon muqobil variantlarga murojaat qiladi. Chunki, ko'pincha iboralarning boshqa tilda ekvivalenti bo'lmasa ham, u biron-bir muqobil variantga ega bo'lishi mumkin. Muqobil variantlar yordamida tarjima qilinganda ekvivalent yordamida tarjima qilgandagiga nisbatan ham ko'proq ehtiyoj bo'lishi zarur. Chunki ikki til iboralari yuzaki qaraganda ba'zan bir-biriga muqobilday ko'rinsa-da, aslida ular ma'no va uslubiy vazifa jihatidan bir-biridan farq qilishi, ya'ni bir-biriga soxta muqobil variantlar tashkil etishi mumkin. Bu, albatta, ko'proq ularning bir-biridan leksik tarkib jihatidan farq qilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, har tilda bir qator sinonimik iboralarni uchratamizki, ular ma'no jihatidan ham farqlanadi. Binobarin, asliyat va tarjima tilidagi iboralarning ma'nolarini chuqur bilmasdan turib tarjima qilish ko'p hollarda asliyatdagi ma'noning tarjimada aks etmay qolishiga sabab bo'ladi.

Endi adibning mashhur "O'g'ri" hikoyasidan bir necha misol keltiramiz: *Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi*¹⁸⁶. Tarjimasi: *Öküzün ak padişahın kolunun altından çıkıp gitmediyse bulunur*¹⁸⁷. Ushbu misoldan o'zaro yaqin ikki til orasida qilingan tarjimaning oson emasligi yana bir bor seziladi. O'zbekcha jumladagi "oq poshsho" birikmasi orqali adib o'sha davrda O'rta Osiyoga hukmronlik qilgan chor hukumatini, "oq poshshoning qo'l osti" birikmasi orqali esa "mamlakat chegarasi"ni ko'zda tutgan. Turk tarjimoni "gap tagidagi gap"ga yaxshi e'tibor bermaganligi bois jumlaning so'zma-so'z tarjima qilib, unga "osongina" yechim topgan.

¹⁸⁶ Каххор А., Хикоялар. –Т.: Ғафур Ғулом нашриёти. 1987.

¹⁸⁷ Kahhar A., Hikâyeler, Çeviren Filiz Demirci, Toshkent, Mumtoz so'z, 2010, s.42-43.

“Boshidan o‘tgan yaxshi biladi, biror badiiy asarni qardosh tildan o‘g‘irishning emgagi turli oilaga kiruvchi tillardan tarjima qilish mashaqqatidan oson kechmaydi. Buning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari, kishini xo‘p o‘ylatadigan tomonlari bor: har bir tilning uslubiy o‘lchovlari, iboralari, badiiy tafakkurning talablari bilan bog‘liq vositalari, qochirimlari bo‘ladi.” – deb yozadi prof. Q.Sodiqov¹⁸⁸ F.Demirjining tarjimalari haqida so‘z yuritir ekan. Darhaqiqat, muallifning uslubiy o‘lchovlari, iboralari, qolaversa, badiiy tafakkurning talablari bilan bog‘liq vositalari, qochirimlarini tarjimada xuddi o‘ziday qilib bera olishning, atama ma’nosini beradigan atama, ibora ma’nosini beradigan iborani topib joy-joyiga qo‘yishning turgan-bitgani mashaqqat ekanligi yaxshi ma’lum.

“O‘g‘ri” hikoyasidan yana bir misol olamiz: *Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo‘ldi. Quruq qoshiq og‘iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo‘ladi. Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz. Chol-kampir kengashib, shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho‘kizni bo‘ynidan bog‘lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas*¹⁸⁹

Bir necha maqol va ibora qo‘llangan holda tilimizning keng ifoda imkoniyatlarini o‘zida namoyon etgan ushbu parcha turk tiliga quyidagicha o‘g‘irilgan: *Akşama doğru Kabil Dede aminin yanına girebildi. Kuru kaşık ağzı yırtar, amine ne kadar parayla varmalıydı? “Verene bir tane çok, alana da on tane azdır”. Yaşlı adam ihtiyar karısına danışıp şöyle bir karara vardılar: Bu son masraftı ve öküzün boynuna bağlanan paranın yüzüne bakmak akıl işi değil*¹⁹⁰. Parcha tarjiması asliyatga juda yaqin chiqqan, maqollarning so‘zma-so‘z tarjiması turkchaga tushunarli, ishonchli berilgan. Ammo, shunday bo‘lsa-da, tarjimonning ayrim xususlarga e‘tiborsiz bo‘lgani, sal shoshilib ish tutgani sezilib qoladi. Chunonchi, asliyatda Qobil boboning qishloq oqsoqoli, ya’ni aminning oldiga borishga qaror qilgani (hali bormaganligi) aytilgan bo‘lsa-da, tarjimada cholning amin qabuliga kirganligiga (girebildi – kira oldi) urg‘u berilgan. Yoki asliyatda “qancha pul olib borsa bo‘ladi” deyilgan bo‘lsa, tarjimada “qancha pul olib borishi lozim edi” deyiladi. Bundan tashqari, turkchaga

¹⁸⁸ O‘sha kitob, S.3.

¹⁸⁹ Қаҳҳор А., Ҳикоялар. –Т.: Ғафур Ғулом нашриёти. 1987.

¹⁹⁰ Kahhar A., Hikâyeler, Çeviren Filiz Demirci, Toshkent, Mumtoz so‘z, 2010, s.41.

bir mansab nomi bo'lgan "amin" so'zi (xos so'z) sifatida tarjimasiz o'girilgan. Turk'larga notanish bo'lgan bu so'zga izoh berilmagan (amin – 1. O'rta Osiyo xonliklarida daha boshlig'i yoki qishloq oqsoqoli; 2. Bozorlarda soliq undiruvchi amaldor; bozor oqsoqoli; chorizm davrida Farg'ona vodiysida saylab qo'yiladigan qishloq oqsoqoli"¹⁹¹). Parchadagi "*Chol-kampir kengashib*" birikmasi qaytadan turkchaga o'girilsa, dag'al birikma yuzaga keladi ("*keksa odam qari xotiniga maslahat solib...*"). Bundan tashqari, "*ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim*" deganda ham adib, "aytilgan xarajat qilingandan keyin ho'kizning topilishi aniq", ya'ni kafolat ta'minlanishini ta'kidlagan, biroq tarjimon bu birikmani ham so'zma-so'z, jo'ngina qilib o'girib qo'ya qolgan.

Tarjimon, birinchi navbatda, asliyatdagi so'zlarning badiiy, uslubiy, milliy va estetik vazifasini hisobga olishi, so'zning ma'nosiga diqqat qilishi darkor, so'zlarni aynan "ko'chirish" yoki tushirib qoldirish mantiqiy uzviylik hamda badiiyatga putur yetkazadi.

"O'g'ri" hikoyasida muallif qo'llagan mashhur *Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi* maqoli turkchaga *Kedi güneşe bedava çıkmaz* deb aynan, so'zma-so'z o'girilgan. To'g'ri, turkchada bunday gap bo'lmasligi mumkin. Lekin tarjimon turk tilining maqollar xazinasini "kovlashtirib" o'tirishga eringan bo'lsa-da, loaqal o'zi tuzgan gapning g'aliz chiqqanligini anglashi va hech bo'lmaganda *Kedi bile karşılığını almadan güneşe çıkmaz* deb o'girishi mumkin edi.

Ikki sahifalik matndan iborat "O'g'ri" hikoyasida muallif o'ndan ortiq ibora va o'nga yaqin maqol, matal va aforistik birikma qo'llagani adibning frazeologiya xazinasini qanchalik boy ekanligidan dalolat beradi. Shulardan yana biri o'zbek tilida mashhur *O'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan* maqolidir: Ushbu maqol-jumlani turk tarjimoni "*Muhabbetteki erbâbla, seni vurur her bâb ile*" deb o'girkan-ki, maqolning tarjimasini turk o'quvchisiga tushunarli bo'lmasligi va turk o'quvchisini chalkashtirishi tayin. Agar mazkur o'zbekcha maqol so'zma-so'z o'girilganda ham, turk kitobxonini uning ma'nosini "bir amallab" ilg'ab olgan bo'lar edi. Zero, hozirgi turk tilidagi "bir ishni yaxshi biladigan" ma'nosida qo'llaniluvchi arab tilidan o'zlashgan (ar. erbâb) "erbap" (*Her işi erbabından sormalı* – Har qanday ishni ustasidan talab

¹⁹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдди, 1-жилд: - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006.

qilish kerak¹⁹²) hamda “mavzu, xusus” ma’nosidagi eskirgan “bap” (ar. bâb) soʻzlari (*Bu bapta malumatim yoktur* – bu borada hech qanday ma’lumotga ega emasman¹⁹³) turk kitobxining yaxshi ma’lum.

Shu oʻrinda yana bir xususni ta’kidlash joiz. Ayni maqol O. Yoqubovning “Adolat manzili” qissasida ham uchraydi: *Olishmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan*¹⁹⁴. Maqolni turk tarjimoni (Ahsan Batur) *Bekçiyle polisten dost, it derisinden post olmaz demişler*¹⁹⁵ deb oʻgʻirganki, uning ham oʻzbekcha matnga hech qanday aloqasi yoʻq. Chunki turkcha jumlaning tarjimasi “*Qorovul bilan politsiya xodimidan doʻst, it terisidan poʻstin boʻlmas*” boʻladi. Ajablanarlisi, bir mashhur oʻzbek maqolining magʻzini ikkala turk tarjimoni ham chaqa olmagan. Bunga oʻxshash holatlar kitobxonni oʻzbek adabiyotiga qiziqishini susaytirishi mumkin.

Yuqoridagi fikrimizga qoʻshimcha sifatida shuni aytish mumkinki, tarjimonlar hech boʻlmaganda, turk xalqi orasida mashhur boʻlgan “*Davacin hakimse, yardımcın Allah olsun*” (soʻzma-soʻz: “*Agar daʼvong qoziga nisbatan boʻlsa, Allohdan boshqa hech kim yordam bera olmaydi*”, yaʼni “*Dodingni xudoga ayt*”) iborasini qoʻllasalar nur ustiga aʼlo nur boʻlar edi.

A. Qahhorning mashhur hikoyalaridan yana biri “Bemor”dir. Ushbu hikoyada oʻzbek xalqi orasida mashhur “*Yoʻgʻon choʻziladi, ingichka uziladi*” iborasi qoʻllanilgan: “*Bularning hammasi, albatta, pul bilan boʻladi. Bunday vaqtlarda yoʻgʻon choʻziladi, ingichka uziladi*”¹⁹⁶. Ushbu gapni tarjimon turkchaga shunday oʻgiradi: “*Elbette ki bunların hepsi parayla oluyordu. Böyle zamanlarda kalın incelir, ince de kopar*”¹⁹⁷. Oʻzbekcha matnda bemor odamga nisbatan qoʻllanilgan ushbu iboraning turk tilida aniq ekvivalent boʻlmagani bois tarjimon uni soʻzma-soʻz oʻgirib, toʻgʻri ish tutgan. Buni oʻqigan turk kitobxoni gap nimada ekanligini darrov fahmlaydi¹⁹⁸.

¹⁹² Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9. Baskı.–Ankara, 1998., S. 717.

¹⁹³ Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9. Baskı.–Ankara, 1998., S. 217.

¹⁹⁴ Ёқубов Одил, Адолат манзили, роман. –Т.: 1996. – 168 б.

¹⁹⁵ Yakuboğlu Adil, Adalet Menzili, Türkçeye çeviren Ahsen Batur, Selenge Yayınları. – İstanbul: 2005. – S.25.

¹⁹⁶ Қаххор А., Ҳикоялар. –Т.: Ғафур Ғулом нашриёти. 1987.

¹⁹⁷ Kahhar A., Hikâyeler, Çeviren Filiz Demirci. –Т., Mumtoz soʻz, 2010, s.9.

¹⁹⁸ “Yoʻgʻon choʻziladi, ingichka uziladi” maqoli ruscha tarjimada “*Где толсто – там тонется, где тонка – рвется*” shaklida berilgan. Maqolning rus tilida muqobili boʻlmagani uchun soʻzma-soʻz tarjima qilingan.

Mutarjim asliyatlardagi iborani to'g'ri tarjima qilish uchun tarjima tilida mavjud sinonimik iboralardan eng mosini tanlab olishi kerak. Ba'zan hatto bir-biriga juda yaqin qardosh tillarda ham bir xil ma'noda ishlatilgan iboralarning tuzilishi, shakli va obrazli asoslari butunlay boshqacha bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda G'.Salomovning bir fikrini keltirib o'tish joiz. U ma'nolari faqat kontekst ichidagina bir-birining o'rini qoplay oladigan iboralarni muqobil birikma deb hisoblaydi va shunday yozadi: "Ba'zan bir birikmaga ayni kontekst ichida bir emas, bir necha birikma muvofiq kelishi mumkin. Birikmaning muqobillari yoki muqobil variantlari faqat kontekst ichidagina bir-birini almashtira olar ekan, bunda ularning ma'nosi to'g'ri kelsa ham, ko'pincha shakllari va, ayniqsa, ob'ektlari muvofiq tushmaydi"¹⁹⁹.

Turk tarjimoni Filiz Demirji tarjimalari baholanadigan bo'lsa, bunda prof. Q.Sodiqov fikrini inobatga olish to'g'ri bo'ladi: "Muhimi, – deydi Q.Sodiqov, u (ya'ni, Filiz Demirji) o'z tarjimalarida o'zbekning ruhini, tilimizning jozibasi va boyligini, so'z ustasi Abdulla Qahhorning siz bilan biz his qila oladigan, tan bergan yuksak mahoratini turkchada bera olgan"²⁰⁰.

Xulosa shuki, A.Qahhor asarlarida o'z ifodasini topgan, ularga o'zbekona ruh bag'ishlagan xalq maqollari, matal va idiomalarining rus va turk tillariga qilingan tarjimalari bilan qiyoslab tadqiq etilishi tarjimashunoslik fani oldida turgan muhim ishlardan hisoblanadi. Qolaversa, adib asarlarining turkcha tarjimalari ustida olib borilgan tadqiqotlar o'zbek va turk tillari ayni til oilasiga mansub bo'lsa-da, tarjimada muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Demak, bunga ham jiddiy e'tibor berish, badiiy tarjimaning umumiy muammolaridan ajratib qo'ymaslik kerak. Shundagina o'zbek adabiyotining durdona asarlari turk kitobxonlariga yuqori saviyada yetkazib berilishi mumkin.

3.2. Sharof Rashidov frazeologiyasi va uning ruscha tarjimalarda qayta yaratilishi masalasi ("G'oliblar" romani misolida)

O'zbekistonni juda murakkab davrda boshqarib, uning taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan

¹⁹⁹ Саломов Г. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1966. –Б.267.

²⁰⁰ Kahhar A., Hikâyeler, Çeviren Filiz Demirci. –T., Mumtoz so'z, 2010, s.3.

milliy adabiyotimiz hamda madaniyatimiz rivojiga hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidovning romanlari XX asrning 60-70 yillarida o'zbek kitobxonlarini larzaga solgan bo'lsa-da, 80-90-yillarda adib asarlariga bo'lgan munosabat ancha o'zgardi... Faqat so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumatining taniqli davlat arbobi va adibga bergan e'tibori tufayli uning shaxsiyati va yozgan asarlariga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi.

Sh.Ergashevning 2017 yilda Sh.Rashidov haqida yozgan kitobida shunday deyiladi: "O'zbekiston tarixining Sharof Rashidov rahbarlik qilgan bosqichi xalqimiz orasida katta qiziqish uyg'otuvchi va ayni paytda, o'ta ziddiyatli davrlardan biri. Xalq orasida bu davrga nisbatan munosabat o'ta murakkab, yorqin va og'ir taassurotlarga boy. Shu bois Sh.Rashidov davrini o'rganish, unga ko'pchilikni qanoatlantiradigan, ob'ektiv baho berish juda murakkab ish va hali tarixchilar, siyosatshunoslar, adabiyotchi olimlardan ko'p mehnat talab qiladi"²⁰¹.

Sh.Rashidov haqida prof. H.Umurov tarjimashunos olim G'aybullo as-Salomning quyidagi so'zlarini keltiradiki, bu qisqa so'zdan adibning qanday inson bo'lganligini yaqqol bilib olish mumkin: "Men Sharof Rashidov siymosida ikki Rashidovni bilaman. Biri – nafaqat Respublika yoki sobiq ko'p millatli mamlakat, balki dunyo miqyosida tanilgan atoqli davlat va jamoa arbobi. Ikkinchisi – yozuvchi. Biri – zukko siyosatdon, ikkinchisi – insonparvar adib"²⁰².

Sh.Rashidovning ijodiy faoliyati 1945 yildan boshlangan bo'lsa, 1951 yilda ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrda o'zbek xalqining mamlakat xalqi hayoti va uning mardonavor kurashi, qo'riq yerlarni o'zlashtirish davrida ko'rsatgan qahramonligi, fidokorona mehnati badiiy aks ettirilgan "G'oliblar" romani nashr etildi. 1958 yilda esa "G'oliblar"ning mantiqiy davomi bo'lgan "Bo'rondan kuchli" romani dunyoga keldi. Har ikkala romanda qahramonlar orasida yuz bergan to'qnashuvlar, g'oya va qarashlar tuguni yanada chuqurlashgan. Adibning "Qudratli to'lqin" romani (1964) ham xalqimizning ikkinchi jahon urushi davrida front orqasida ko'rsatgan matonati, mehnati haqidadir.

²⁰¹ Эргашев Ш., Эрк истар кўнгил. –Т.: "O'zbekiston", 2017, 200 б.

²⁰² Umurov H., "Kashmir qo'shig'i" va uning tarjimasi G'aybullo as-Salom talqinida, maqola, "Kitobxonlik madaniyati va badiiy tarjima mahorati", Respublika ilmiy-amaliy konf. materiallari. – Samarqand: 2017 yil 2-iyun, 17-b.

Tadqiqotimizning ushbu faslida Sh.Rashidov romanlarining faqatgina bir jihati – asarlar frazeologiyasi va ularning tarjimada qayta yaratilishi masalasi “G‘oliblar”²⁰³ romani va uning ruscha tarjimasi²⁰⁴ (rus tarjimonlari A.Udalov va Yu.Karasev tomonidan amalga oshirilgan) misolida imkon doirasida ko‘rib chiqiladi. Olib borilgan tadqiqotlar adib asarlarining frazeologik birliklarga o‘ta boyligini ko‘rsatadi. Romanlardagi o‘nlab maqol, yuzlab matal va iboralarining aniqlanib, ularning rus tiliga qilingan tarjimalarining tadqiq etilishi hozirgi zamon tarjimashunosligining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, bunday ishlar buyuk so‘z san‘atkori qalamiga mansub asarlar tarjimasining xolisona baholanishiga ko‘mak bersa ajabmas.

Fanda ko‘pincha “frazelogizmlar” deb nomlangan maqol, matal va iboralar asar tilining ajralmas qismi bo‘lib, ular asarning qimmatini, saviyasini oshiradi, asar yozilgan tilning imkoniyatlarini namoyon qiladi. Maqol va frazeologizmlarni o‘g‘irish tarjimondan alohida yondashuvni talab etadi. Ularni asardagi minglarcha so‘z birikmalari orasidan alohida ajratib olish va oddiy yo‘l bilan boshqa tilga o‘g‘irish mumkin emas.

O‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosliklari to‘la aks etgan “G‘oliblar” romanidan olingan parchalar tahliliga o‘tamiz: *“Umurzoq ota o‘z qiziga yetmish yoshga kirgan dono chol ko‘zi bilan qaraydi. Ammo qiz- chi? Yaqindagina o‘yinqaroqlik qilib tog‘lar va dovonlarga chopardi. Yaqindagina shu qirdan tushib ketganida qandaydir archa **joniga ora kirgan** edi. Keksa Boboqul qiz keltirgan non va tolqonlarni cho‘ponlarga zavq bilan taqsimlab berardi. Chunki buning mazasi – **ta‘mi og‘zidan ketmas, shirin bo‘lardi**”*²⁰⁵.

Adib inson psixologiyasining ilg‘ash qiyin bo‘lgan nozik jihatlari, hayot, inson qalbidagi nafis tuyg‘ularni so‘z vositasida ifodalay olgan. U yaratgan jonli obrazlar, jumlar ohangi, hayotbaxshligi o‘zbek tilining qudratini namoyon etgan bo‘lsa, bu narsa tarjimonlar ishini qiyinlashtirgan. Chunki Sh.Rashidov tarjimonlari asarni to‘laqonli qayta yaratish uchun muallifga teng qobiliyat va iste’dodga ega bo‘lishi kerak

²⁰³ Рашидов Ш., Асарлар, 5 жилдлик, I жилд, Ғолиблар, роман. –Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 1981. -328 б.

²⁰⁴ Рашидов Ш., Победители, роман, авторизованный перевод с узбекского А.Удалова и Ю.Карасева: –Москва: 1974. 351 с.

²⁰⁵ Рашидов Ш., Асарлар, 5 жилдлик, I жилд, Ғолиблар, роман. –Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 1981, 30-6.

edi. Hatto asliyat tilini mukammal bilish, muallif mansub bo'lgan xalqning milliy o'zgachaligi, urf-odatlaridan yaxshi xabardorlik har doim ham tarjimaning mukammal bo'lishiga kafolat bo'la olmaydi. Buni yuqoridagi parchaning ruscha tarjimasi tahlili orqali anglash mumkin: *"Его (Умурзак-ата – Х.Х.), конечно можно понять, ведь за его плечами – три четверти века. Многое видно с этой высоты, и он вправе и беспокоиться, и советовать, и наставлять. А у неё (Айкыз – Х.Х.) и правда еще молоко на губах не обсохло. Давно ли она, напуганная орлом, катилась вот по этому откосу вниз, угодив в зеленую пещеру, образованную ветвями арчи? Давно ли вприпрыжку бегала к чабанам, принося с собой со свежими фронтовыми сводками, лепешки и сладкую толченую кукурузу? И старый Бабакул угощал её таким вкусным курutom, какого не было ни у одного из чабанов"*²⁰⁶.

Parchadagi *'chol ko'zi bilan qaraydi'* iborasi ruscha tarjimada *'Многое видно с этой высоты'* iborasi orqali berilgan. Biroq ijod jarayonida erkin ish tutgan tarjimonlar *joniga ora kirgan* iborasini tarjima jumlasiga singdirib yuborganlar va u anglashilmay qolgan. Tarjimaga bunchalik erkin yondashilgani, va hatto, oddiy birikmalarni frazeologik birikmalar orqali berilganini yana boshqa misollardan ham bilib olish mumkin: *"yetmish yoshga kirgan"* erkin birikmasining ruschada *за его плечами – три четверти века* shaklida *"o'yinqaroq"* so'zini *молоко на губах не обсохло* deb berilgani (ma'nosi: *ona suti og'zidan ketmagan*) bunga yorqin misoldir.

Yana shuni ta'kidlash joizki, tarjimonlar *"Бабакул угощал её таким вкусным курutom, какого не было ни у одного из чабанов"* (Boboqul uni shunday mazali qurt bilan siylardiki, cho'ponlarning hech birida bunaqa mazali qurt bo'lmasdi) degan gapni to'qiydilar, asl matnda bunday gap uchramaydi. Hatto, tarjimonlar, o'zlari kiritgan *'kurut'* so'ziga havolada *"курut – высущенное кислое молоко в шариках"* deb izoh ham berganlar.

Ma'lumki, tarjima amaliyotida asar tarjima qilinayotganda uni tuzatish va o'zgartirish kiritish holatlari ko'p uchraydi. Bunda ko'pincha asarning g'oyaviy yo'nalishi sustlashadi. Bu, asosan, tarjimonning muallif matniga faol aralashuvi, asliyatni to'la tushunmasligi, aniqrog'i

²⁰⁶ Рашидов Ш., Победители, роман, авторизованный перевод с узбекского А.Удалова и Ю.Карасева, Москва, 1974. с.10-11.

uning tilini chuqur bilmasligi, muallif qo‘llagan badiiy san’atlarni his eta olmasligi va tahliliy fikr yurita olmasligi oqibatida yuz beradi. E.Aznaurova bundan yarim asr avval “To‘la ma’nodagi tarjimaning asosiy sharti – asl nusxani badiiy o‘ziga xosligini – uning milliy xususiyatlarini va avtorning individual ijodiy maneralarini bera bilish deb hisoblash kerak”²⁰⁷– deya yozganida shu muammoni nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. Ayrim hollarda malakali tarjimonlar ham muallifning individual manerasini to‘liq bera olmaydilar, ko‘pincha bunga harakat ham qilmaydilar. “G‘oliblar” romanining ruscha tarjimasida bunday holatlar ko‘p uchraydi.

Asarning badiiy saviyasini belgilovchi maqol, matal va iboralarning muqobil tarjimasini milliylikni saqlashning asosiy omilidir. Buni “G‘oliblar”dagi o‘nlab o‘zbek xalq maqoli va matallari, yuzlab iboralar tarjimasini misolida ko‘rish mumkin (*Molning olasi ustida, odamning olasi ichida* – *Скотина, говорят, пестра снаружи, а люди – изнутри*; *Mehmon* – *uyning ko‘rki* – *Гость* – *украшение дома*).

Misollarga murojaat qilamiz: “*Odamlar, Xizrni yo‘qlasak bo‘lar ekan, deyishadi. Hozirgina chollar Qodirov to‘g‘risida gapirgan edilar, birdaniga o‘zi ham kirib keldi*”²⁰⁸. Mashhur o‘zbek maqoli qo‘llanilgan jumla rus tiliga “*Правду говорит пословица, что человек бывает легок на помине. Не успел Умурзак-ата закончить фразу, как в дверях появился сам Кадыров*”²⁰⁹ deb o‘g‘irilgan. Ruscha-o‘zbekcha lug‘atda *Xizrni yo‘qlasak(-m) bo‘lar ekan*²¹⁰ iborasiga quyidagicha izoh berilgan: “*Я мог (мы могли) пожелать разыскать Хызра* (so‘zlovchi yo‘qlab turgan lahzada, kutilmaganda paydo bo‘lgan kishiga qarata aytiluvchi ushbu ibora rus tilida “*легок на помине*”, “*на ловца и зверь бежит*” degan iboralaraga mos келади). Демак, yuqoridagi jumla tarjimasini ishonchli tarjima deb baholash mumkin.

²⁰⁷ Азнаурова Э., Бадий таржиманинг асосий проблемалари, мақола, Таржима санъати, мақолалар тўплами, Ўзбекистон Бадий адабиёт нашриёти. –Т.: 1961, 6-б.

²⁰⁸ Рашидов Ш., Асарлар, 5 жилдлик, I жилд, Ғолиблар, роман. –Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 1981, 1981, 324-б.

²⁰⁹ Рашидов Ш., Победители, роман, авторизованный перевод с узбекского А.Удалова и Ю.Карасева, Москва, 1974, с.346.

²¹⁰ Og‘zaki nutqda ushbu matalning “Bo‘rini yo‘qlasang qulog‘i ko‘rinadi” degan sinonimi ham keng qo‘llaniladi.

Yoki: *“Har holda, u mehmon. Mehmon uyning ko‘rki deydilar”*²¹¹ jumlasining ruschaga qilingan *“Но, как молвится, гость всегда украшение дома”*²¹² muqobili ham to‘la ishonchlidir.

O‘zbek tilidagi ayrim iboralar maqol (ba‘zan matal) qimmatiga egaligi ma‘lum. Adib o‘z asarida bunday birliklardan samarali foydalangan: *“Maslahat qilsang foydali bo‘lardi. Axir, Oltinsoyda istiqomat qilasan, hatto **cho‘pon ham o‘z tayog‘i bilan maslahat qilishini bilasan-ku...**”*²¹³ Tarjimasi: *“И с людьми во всем советовать – тоже дело благое, полезное. Ты ведь знаешь поговорку, что **настух даже у своего посоха спрашивает совета...**”*²¹⁴ Ko‘rinib turganidek, tarjimonlar muallif jumlasini to‘la qayta yaratishga muvaffaq bo‘lganlar.

“Ma‘lumki, badiiy asarda har yozuvchi o‘z tilida mavjud bo‘lgan maqol, matallarni qo‘llaydi. Bundan maqsad asarning badiiy qimmatini oshirish va boy mazmunni ixcham, aniq shaklda berish, obrazlar tilini individuallashtirish hamda tilga sayqal berish va fikrni dalillash orqali ona tilining cheksiz imkoniyatlarini namoyon etishdir”²¹⁵. Tarjimashunoslik tadqiqotlarida muallifning o‘ziga xos uslubi, milliy kolorit, obrazlarning til xususiyatlarini tarjimada aks ettirish va boshqa shunga o‘xshash masalalar maqol va matallar tarjimasi bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi.

O‘zbek va rus tillari maqol, matal va iboralarga nihoyatda boy tillar hisoblanadi. Nutq bularsiz quruq, ta’sir kuchiga ega bo‘lmagan so‘zlar tizimiga aylanib qoladi. Shu bois badiiy jihatdan mukammal asarlarning deyarli har jumlasida bir ibora uchrashi tabiiy. Bu esa tilning badiiy ifoda imkoniyatlari qanchalar keng ekanligini ko‘rsatadi. Sh.Rashidovning *“G‘oliblar”* romani ana shunday asarlardandir: *“–Albatta, hammani bir xilda qadrlab bo‘lmaydida. Molning olasi ustida, odamning olasi ichida, deydilar. U erda qanday yumush qilmoqchisan?*

²¹¹ Рашидов Ш., Асарлар, 5 жилдлик, I жилд, Ғолиблар, роман. –Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 1981, 1981, 324-б.

²¹² Рашидов Ш., Победители, роман, авторизованный перевод с узбекского А.Удалова и Ю.Карасева, Москва, 1974, с.346.

²¹³ Рашидов Ш., Асарлар, 5 жилдлик, I жилд, Ғолиблар, роман. –Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 1981, 1981, 325-б.

²¹⁴ Рашидов Ш., Победители, роман, авторизованный перевод с узбекского А.Удалова и Ю.Карасева, Москва, 1974, с.347.

²¹⁵ Ҳамидов Х., “Ўткан кунлар” романи таржималарида мақолларнинг берилиши // “Ўзбекистонда хорижий тиллар”, электрон журнал, 2014 йил 1-сон, –Б.107-113.

Rais bo'Imoqchimisan?.." ²¹⁶ Tarjimonlar o'zbek maqollarini ba'zan so'zma-so'z, lekin rus kitobxoniga tushunarli tarzda o'g'irgan bo'lsalarda, ba'zan ularni o'zgartirib, oddiy iboralar vositasida berganlar. Buni yuqoridagi jumlaning ruschaga qilingan tarjima misolida ko'rish mumkin: *"–Ай-яй, раис, – Халим-бобо с притворным сочувствием покачал головой, –А мы и ведать не ведали, что ты такой несчастный... Ну, а в Мирзачуле, думаешь, тебя тоже председателем выберут?"*"²¹⁷ Парчада муаллиф қўллаган *Молнинг оласи устида, одамнинг оласи ичида* (дейдилар) мақолининг М.Содиқованинг *"Қискача ўзбекча-русча мақол-маталлар"* луғатидаги шакли *Мол оласи тишида (или ташида), одам оласи ичида бўлиб, унинг рус тилида матал (поговорка) эканлиги таъкидланиб, маъноси "разношерстность животных видна снаружи, разногласия (лукавство) людей скрыты внутри; рысь пестра сверху, а человек лукав изнутри"* деб берилган²¹⁸. Tarjimonlar ушбу ўзбекча мақолнинг рус тилида мавжуд муқобилларини топа олмаганлар ва уни қискагина қилиб *"А мы и ведать не ведали, что ты такой несчастный..."* (маъноси: Сенинг бунчалик бахтсиз эканлигинг ҳаёлимизга ҳам келмабди) шаклида берганлар.

Xulosa chiqarishdan avval shuni ta'kidlash joizki, Sh.Rashidov qalamiga mansub asarlar badiiy san'atlar, tasvir va ifoda vositalarga boy. Ulardan har biri, xoh o'xshatish yoki sifatlashlar, xoh mubolag'a yoki jonlantirish bo'lsin, barchasining tarjimada berilishi bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish oldimizda turgan muhim vazifalardandir. Shuningdek, adib yozgan deyarli barcha asarlarning ruscha matnlari mualliflashtirilgan tarjimalar hisoblanadi. Jumladan, "G'oliblar"ning ruschasi ham ana shunday tarjimadir. "Mualliflashtirilgan tarjima" (авторизованный перевод) atamasi tarjimashunoslikda ko'p hollarda noto'g'ri talqin etiladi. Chunki bu muallif bilan hamkorlikda qilingan tarjima emas, muallifning roziligi olingan tarjimadir. Agar muallif tarjimonning ijod jarayonida to'la erkin harakat qilishiga rozilik bergan

²¹⁶ Рашидов Ш., Асарлар, 5 жилдлик, I жилд, Ғолиблар, роман. –Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 1981, 1981, 324-б.

²¹⁷ Рашидов Ш., Победители, роман, авторизованный перевод с узбекского А.Удалова и Ю.Карасева, Москва, 1974, с.346-347.

²¹⁸ Содиқова М Қискача ўзбекча-русча мақол-маталлар. Т.: Ўқитувчи, 1993.–76 б.

bo'lsa ham, axloq nuqtai nazaridan tarjimon o'z "haddini bilishi", bu ishonchni suiiste'mol qilmasligi kerak.

Xulosa. Taniqli davlat arbobi, atoqli adib Sharof Rashidovning dunyoning yuzga yaqin tiliga tarjima qilingan, "hayot qissasi, sevgi qo'shig'i" deya ta'rif etilgan "Kashmir qo'shig'i", o'ndan ortiq tiliga tarjima qilingan, mehnatkash o'zbek xalqining Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrda mamlakatimizda olib borgan fidokorona mehnati, orzu-umidlari badiiy tarannum etilgan "G'oliblar", "Bo'rondan kuchli", "Qudratli to'lqin" va boshqa asarlarining dunyo tillariga tarjimalari ustida olib borilgan tadqiqotlarni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish o'zbek tarjimashunosligining dolzarb vazifasi bo'lib qoladi.

3.3. Isajon Sulton hikoyalari turk tilida (frazelogizmlar tarjimasi misolida)

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining vakili, qissa va hikoyalari bir necha tilga o'girilib, xorijda ham obro'li mukofotlarga loyiq ko'rilgan so'z ustasi – Isajon Sulton o'z asarlarida hayotdagi voqea-hodisalarni sodda, lekin, o'ziga xos, yangicha tarzda aks ettiradi. Yozuvchining uslubidagi soddalik, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov kabi ustoz adiblarning asarlaridagi qisqa, lo'nda jumlarlar orqali hayotning o'ta murakkab muammolarini ko'tarib chiqish san'ati asosida yaralgan bo'lsa ajab emas. Taniqli tarjimon Nizom Komil "Eng og'ir yozish – sodda yozishdir. Soddalikdan ortiq badiiylik yo'qdir" deb e'tirof etgan edi bir davra suhbatida. Darhaqiqat, asliyatdagi sodda uslubning yaralishida frazeologizmlarning o'rni beqiyos va bu narsa badiiy tarjimada qator murakkabliklar keltirib chiqaradi²¹⁹.

Ushbu faslda Isajon Sultonning "Bog'i Eram" kitobidan olingan hikoyalar turkcha tarjimalari bilan qiyoslangan holda tahlil qilindi. Ish jarayonida chiqarilgan xulosalar o'zbek tilidan turk tiliga badiiy

²¹⁹ Хамидов Х.Х., Содда услубнинг таржимадаги мураккаб талкини (Исажон Султоннинг "Шамолли кеча" ҳикояси туркча таржимаси мисолида), мақола, "Тил, маданият, таржима ва мулоқот" Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, 2016 йил 16-17 ноябрь. –Самарқанд: 2016, 119-123-бетлар.

tarjimalarda xos soʻzlar va frazeologizmlarning berilishi bilan bogʻliq ayrim muammoli masalalarning yoritilishiga koʻmak beradi.

Yangi asr oʻzbek adabiyoti vakili Isajon Sultonning asarlari oʻzining sodda tili va milliylikka yoʻgʻrilganligi va iboralarga boyligi bilan ajralib turadi. Uning asarlari adabiy yoʻnalish nuqtai nazaridan ustoz adiblarning asarlaridan farq qilsa-da, ularning “sodda jumla tuzish” anʼanalari, soʻz va iboralar tanlash usullari asarlarida aks etgan. U ham har bir soʻz yoki iborani lugʻat yoki boshqa turli yozma manbalardan emas, xalq tilidan, hayotdan oladi, har bir soʻzni chertib tanlaydi.

I.Sultonning turk tiliga oʻgirilgan hikoyalari jamlangan “Bogʻi Eram” (“İrem Bağ”) toʻplamining “Soʻzboshi”sida turk olimi Husayn Boydemir shunday yozadi: “Isajon Sulton atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatib, soʻz vositasida tabiat tasvirini chizadi. Lekin u yaratgan tabiat harakatsiz surat emas, aksincha, badiiy detallarga boy serjilo manzaralardan iboratdir”²²⁰.

Taʼkidlanganidek, badiiy asar qanchalik sodda uslubda yozilgan boʻlmasin, uning tarjimada qayta yaratilishi ijodkordan mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Masalan, yozuvchining “Shamolli kecha” hikoyasidan olingan quyidagi parchani oʻqir ekan, kitobxonning koʻz oʻngida kasalmand bolasini koʻtarib turgan ozgʻin, xastahol ayol portreti gavlaladi: *“Bu beva xastahol, ozgʻin, koʻp javraydigan bir xotin edi. Yil oʻtmay ingichka, rangi siniqqan, ozib toʻzgan bir bola tugʻdi”*²²¹. Ushbu jumlada yozuvchining soʻz bilan portret chizish mahorati namoyon boʻlgan. Asliyat jumllalarini eng mayda tafsilotlariga qadar miyasiga singdirib olgan tarjimon ushbu parchani turkchaga quyidagicha oʻgiradi: *“Üvey anne hasta görünümlü, zayıf, çelimsiz olmasına rağmen çenesi düşük bir kadındı. Aradan bir sene geçer geçmez solgun, cılız bir çocuk doğurdu”*²²². Koʻrinib turibdiki, tarjimada asliyat soʻz va iboralar maʼnosini toʻla qoplaydigan muqobillar tanlangan. Masalan, “koʻp javraydigan” birikmasi “çenesi düşük” (“jagʻi tushgan”) iborasi orqali, “beva” soʻzi esa kontekstdan kelib chiqqan holda “üvey anne” (“oʻgay ona”) deb beriladi. Bundan tashqari,

²²⁰ Sulton İ., İrem Bağ, Seçme Hikayeler, Baygenç Ajans Yayınları:29 (Güncel Sanat Dergisi Öykü Dizisi:5). –Antalya, 1.Baskı: Temmuz 2015, S.5.

²²¹ Султон И., Боғи эрам, Қисса ва хикоялар, “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. –Т.: 2015, 244-б.

²²² Sulton İ., İrem Bağ, Seçme Hikayeler, Baygenç Ajans Yayınları:29 (Güncel Sanat Dergisi Öykü Dizisi:5). –Antalya, 1.Baskı: Temmuz, 2015, S.11.

mohir tarjimon “xastahol, ozg’in” sifatlarini “hasta görünümlü, zayıf, çelimsiz olmasına rağmen” (“xastahol, ozg’in, quvvatsiz bo‘lishiga qaramay”) shaklida o‘g‘irib, tarjimaning turk kitobxoniga yanada tushunarli, ta’sirchan bo‘lishini ta’minlagan.

Turk tadqiqotchisi H.Boydemir asliyatda yozuvchi chizgan tasvirlar xususida shunday yozadi: “Tashqi olamda yuz beradigan bir zohiriy po‘rtana qahramon bilan birga kitobxon qalbiga kirib u yerda ham po‘rtana paydo qiladi”²²³. Darhaqiqat, yozuvchi mahoratining qirralari asar yaratishda qo‘llanilgan badiiy tasvir va ifoda vositalari bilan belgilanadi. Buni so‘z borayotgan asardan olingan quyidagi parcha misolida ko‘rish mumkin: “*Tuprog‘i to‘zg‘ib yotgan ko‘chadan deyarli chopib borar edi yigitcha. Hech qaerda chiroq yo‘q, hov naridagi ba‘zi uylarining kichkina derazalarida sham alangasi lipillamoqda. U uydagi kishilar balki hozir bamaylixotir gurunglashib o‘tirishgandir? Yigitchaning yuragi qiniga sig‘may ura ketdi, ich-ichidan g‘alati, yovvoyi sevinch ko‘tarilib keldi. U qah-qah o‘tib kulib yubordi, nafasi tiqilib-tiqilib kulardi... Nihoyat, buvining eski uyiga yetib keldi. Ichkari tomonidan zulfini ilingan eshik ham shamolda taqirlamoqda edi, yelkasi bilan qattiq urgan edi, ochilib ketdi*”²²⁴. Parchada asar qahramonining ruhiy holati atrofda ro‘y berayotgan hodisa asosida, tabiat bilan bog‘liqlikda aks ettirilgan. Chunki bu badiiy asar. “Agar ilmiy asar tili umumlashgan tushunchalarni anglatlsa, badiiy asar tili inson qalbini butun murakkabliklari bilan yo‘g‘rilgan holda tabiat manzaralariga hamohang tarzda aks ettiradi”¹. Parcha turkchaga ishonchli o‘g‘irilgan: “*Toprağı savrulan sokakta koşuyordu ağabey. Hiç bir yerde elektrik yok. Ancak bazı evlerin penceresinde mumun titrek ışığı ısıldıyordu. O evdekiler şu an sohbet edip oturuyor olmalı, diye geçirdi aklından. Delikanlının kalbi hızla atmaya başladı. Nefesi kesilerek gülüyordu. Nihayet ninesinin eski dökük evine de ulaştı. Arka tarafından zincirlenmiş kapı rüzgarda sallanıp duruyordu. Delikanlı omzuyla iterek kapıyı açtı*”²²⁵. Tarjimonning asliyat jumllarini bejirim, o‘quvchiga tushunarli qilib berishga harakat qilgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunga qaramay, tarjimon matnni o‘ta sinchkovlik bilan

²²³ Ўша саҳифа.

²²⁴ Султон И., Боғи эрам, Қисса ва ҳикоялар, “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. –Тошкент, 2015, S. 249.

²²⁵ Sulton İ., İrem Bağrı, Seçme Hikayeler, Baygenç Ajans Yayınları:29 (Güncel Sanat Dergisi Öykü Dizisi:5). –Antalya, 1.Baskı: Temmuz, 2015, S.16.

tadqiq etishi, muqobil soʻzlarni chertib-chertib tanlashi, birona soʻz yoki birikmani behuda qurbon qilmasligi kerak boʻlardi. Shunda tarjima toʻlaqonli, asliyatga mos chiqqan boʻlar edi. Chunki badiiy asar ilmiy matn kabi tarjima qilinsa, inson ruhiyatining eng mayda, “mikroskopik jilvalari” aks etmay qoladi, tarjima quruq, betaʼsir bayonga aylanadi. Muayyan soʻzni tarjima tilida umumiy mazmunga xalal yetmaydigan qilib ifoda etish mumkin boʻlgan joyda chinakam tarjimon ular orasidan eng mosi, eng muqobilini topib qoʻya oladi. Bunga tarjima mahorati deyiladi. Yuqoridagi jumlaning tahliliga oʻtadigan boʻlsak, parchadagi ilk jumla (*“Tuproqʻi toʻzgʻib yotgan koʻchadan deyarli chopib borar edi yigitcha”*) deyarli soʻzma-soʻz oʻgirilgan (*Topraqʻi savrulan sokakta koʻsu yordu aʻgabey*). “Yigitcha” soʻzi – “aʻgabey” (aka) deb berilgan. Bundan tashqari, tarjimon tuproqning “sovrimagan”i, “toʻzgʻib yotgan”iga eʼtibor bermagan. Jumla *“Toz toprakli sokakta koʻsharak ilerliyordu delikanli”* deb oʻgirilsa, maʼqul boʻlar edi. Yoki boʻlmasa, *“Hech qaerda chiroq yoʻq, hov naridagi baʼzi uylarning kichkina derazalarida sham alangasi lipillamoqda”* gapini ham *“Hiç bir yerde elektrik yok. Ancak bazı evlerin peñçeresinde mumun titrek ışığı ışıldıyordu”* deb emas (ışık ışıldıyordu – tautologiya), *“Evlerde elektrikler kesilmiş, biraz ileride bazı evlerin küçük pencerelerinden pırıldayan mumların sönük ışıkları görünüyordu”* shaklida berilgani maʼqul edi. Iboralar tarjimasiga kelinsa, asliyatdagi *yuragi qiniga sigʻmaslik* iborasi turkcha tarjimada oʻz aksini topmay qolgan, *yuragi ura ketmoq* iborasi *kalbi hızla atmaya başlamak* shaklida ishonchli oʻgirilgan. Biroq, *ich-ichidan gʻalati, yovvoyi sevinch koʻtarilib kelmoq* birikmasi *“U qah-qah otib kulib yubordi, nafasi tiqilib-tiqilib kulardi...”* gapi bilan birlashtirilib, ancha qisqartirilgan holda *Nefesi kesilerek gülüyordu* deya oʻgirib qoʻyilgan.

Taniqli rus shoiri, tarjimon va olim K.Chukovskiy aytganidek, “Tarjimada soʻzni soʻz bilan emas, tabassumni - tabassum, ohangni - ohang, tuygʻuni esa tuygʻu vositasida oʻgirish zarur”²²⁶. Sanab oʻtilgan vazifalar bajarilmas ekan, tarjimon muallifga “niqob kiydirib”, bu “niqobni uning asl yuzi” deb koʻrsatishi mumkin, deya taʼkidlaydi u. Zero, “tarjima asar sifatida – badiiy qayta yaratilgan nusxa, jarayon sifatida – ijrochilik va original ijod oʻrtasidagi oraliq kategoriyadir”²²⁷.

²²⁶ Чуковский К., “Высокое искусство”. – М.: “Советский писатель”, 1968. – С. 3.

²²⁷ Левий Иржи, “Искусство перевода”. – М., 1974. – С. 90.

Isajon Sulton hikoyalarini turk tiliga o'g'irgan tarjimonlar bu prinsipga mumkin qadar amal qilishgan.

“Bog‘i eram” (“İrem Bağ”) to‘plamining “So‘zboshi”sida H.Boydemir Isajon Sulton hikoyalarida O‘zbekistonda tug‘ilib, ona tabiat qo‘ynida voyaga yetgan, qalbi ham tabiatdek beg‘ubor, sodda kishilar haqida hikoya qilinganini alohida ta’kidlaydi: “Uning hikoyalarida birrovga qirlarga chiqqan shahar kishisining emas, tabiat qo‘ynida tug‘ilib o‘sgan va uning bir parchasiga aylangan, ruhi, ko‘ngli ham tabiatdek bepoyon, har so‘zi samimiy kishilarning sodda hikoyalarini o‘qiysiz... Kitobxon ilk sahifadanoq asar qahramonlari bilan muloqotga kirishadi, o‘zini uning yonginasida his qiladi. Asar qahramoni o‘quvchini beixtiyor tabiat quchog‘iga yetaklaydi”²²⁸.

Yozuvchi asarda bir hodisani aks ettirar ekan, voqelikka o‘z nazari bilan qaraydi. U asar g‘oyasidan kelib chiqib, mos detal tanlaydi va o‘sha tanlangan detal orqali o‘z fikrini ifoda etadi. Masalan, badiiy asarda tabiat tasvirini har ijodkor o‘z kayfiyati, asarning muddaosiga uyg‘un holda beradi. “Bog‘i eram” turkumiga kirgan hikoyalardagi tabiat hodisalari talqinida buni yaqqol ko‘rish mumkin. Tabiat tasviri qahramonlar taqdiri, ularning ruhiy olamida yuz berayotgan o‘zgarishlar, ichki kechinmalar, hatto ruhiy g‘alayonlar bilan bog‘liq. E’tibor berilsa, hikoyalarda shamol, to‘zon, shiddatli po‘rtana, to‘fon va ko‘pincha tabiiy ofatlarga olib keluvchi hodisalarga ko‘proq duch kelinadi: “*Sal narida qishloq uylari tugab, yana kimsasiz dasht, g‘alati oqish butalar, goh yakkam-dukkam, goh qalin, ayqashib ketgan qamishlar, yulg‘unlar, to‘rong‘illar to‘la yaydoq dasht boshlanib ketgan, battar quturib esar edi Dang‘araning tentak shamoli*”²²⁹. Ushbu parcha tarjimasida asl nusxaning til boyligi imkon doirasida aks etgan. Ba’zan maroq bilan o‘z joyiga topib qo‘yilgan so‘zlar, iboralar, “ohori to‘kilmagan” jumlarlar ko‘p uchraydi. Jumla tarjimasiga e’tibor beriladigan bo‘lsa, tarjimonning ta’kidlangan xususlarni yaxshi ilg‘agani, o‘simliklar nomiga alohida e’tibor berishdan tashqari, Dang‘ara shamolining o‘ziga xosligini tarjimada ishonchli bera olganini sezish mumkin: “*Az ileride köy evleri bitiyor ve yine ıssız bozkırlar başlıyordu. Tuhaf beyazımsı çalılar, hasır otu ve kamışlar, meyan kökü ve acı yavşamlarla*

²²⁸ O‘sha kitob, S.5.

²²⁹ Султон И., Боғи эрам, Қисса ва ҳикоялар, “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. –Тошкент, 2015, S. 251.

kaplı çölde Dangara'nın hırçın ve deli rüzgarı kudurmuşçasına esiyordu..."²³⁰ Tarjimon ters jumla shaklida tuzilgan "*battar quturib esar edi Dang'araning tentak shamoli*" gapini "*Dangara'nın hırçın ve deli rüzgarı kudurmuşçasına esiyordu*" deya tekis jumla shaklida o'giran bo'lsa-da, asliyatning biron so'zini qurbon qilmagan. Hatto "*tentak shamol*"ni "*hırçın ve deli rüzgar*" deb berib ("hırçın" – "o'ta kuchli, quturgan", "deli" – tentak), ishga ijodiy yondashgan.

Badiiy asarning milliyligini belgilovchi unsurlardan birining milliy qadriyatlari, ana shu qadriyatlar ichida og'zaki nutqda keng qo'llanib kelayotgan va yozma adabiyotda aks etgan tilak, duo va qarg'ishlardir. Ularning tarjimada berilishi murakkab masalalardan hisoblanadi, o'zbek xalqining falsafasi, milliy o'ziga xosligi, psixologiyasi, mentalitetini chuqur bilish hamda ikki xalq badiiy tafakkuridagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash orqali badiiy tarjimada duch kelinayotgan nuqson va kamchiliklarni aniqlab, ularga barham berishga ko'mak beradi. Gap shundaki, o'zbek va turk tillarida tilak, duo va qarg'ishlar bir-biriga o'xshash narsadek ko'rinsa-da, sinchiklab kuzatilganda, orada farqliliklar mavjudligi yaqqol seziladi. Masalan: "*Bu – hayotda juda ko'p voqealarni ko'raverib diydasi qotib ketgan kampir edi. Lekin hozir sarosimaga tushib, vahima va qo'rquv ila yigitchaning sochlaridan tortib, mushtlari bilan boshiga ura-ura yig'lay yig'lay nido qilardi: – Erkak bo'lmay o'l, top singlingni, qirilib ketgur! Bor, qayt izingga topolmasang o'sha yoqlarda o'lib ket!*"²³¹.

Tarjimashunos E.Ochilov "Milliylik – har bir millatning boshqalardan ajralib turadigan, o'zigagina xos xususiyatlari majmui. Ularni u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklar deb, ikkiga ajratib qarash mumkin."²³² – deb yozar ekan, ilmiy nuqtai nazardan, milliylikning adabiyotshunoslik muammosi, biroq bir milliy adabiyotga mansub san'at asarini boshqa tilga tarjima qilganda bu muammo tamomila yangilik, "originallik" kasb etishini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, I.Sultonning milliylikka yo'g'rilgan hikoyasidan olingan bu kichik parchani o'qiyotib kitobxon "*ko'p voqealarni ko'raverib diydasi qotib ketgan*" o'zbek kampiri portretini

²³⁰ Sulton I., İrem Bağ, Seçme Hikayeler, Baygenç Ajans Yayınları:29 (Güncel Sanat Dergisi Öykü Dizisi:5). –Antalya, 1.Baskı: Temmuz 2015, S.19.

²³¹ Султон И., Боғи эрам, Қисса ва ҳикоялар, "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. –Тошкент, 2015, S. 244.

²³² Ochilov E., Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. –T.: 2014, 38-b.

ko‘z oldida gavdalantira oladi, uning xatti-harakatlari zamirida yotgan hislari, nutqida qo‘llangan so‘zlarni chuqur his qila oladi. Kuchli bo‘ronda singlisini yo‘qotib qo‘ygan nevarasini qarg‘ayotgan kampirning ruhiy holati va yurak faryodi ifoda etilgan parcha turkchaga quyidagicha o‘girilgan: *“Nine hayatın zorlukları karşısında dirayetli bir kadındı. Buna rağmen elinden hiç bir şey gelmiyor, çaresizce ağlayıp sızlıyordu. Evham ve korku ile torununun saçlarından çekip çıkırıyordu. Kendi başını yumrukluyordu, kaderine lanetler okuyarak haykırıyordu nine: – Kahrolasi seni, ne biçim erkeksin? Bul kardeşini! Koş, geldiğin yerlerde ara, bulamazsan geber...”*²³³ Keltirilgan parchadagi ilk sodda gap: *“Bu – hayotda juda ko‘p voqealarni ko‘raverib diydasi qotib ketgan kampir edi”* tarjimada *“Nine hayatın zorlukları karşısında dirayetli bir kadındı”* deb berilgan. Holbuki, uni o‘zbekchaga qayta (so‘zma-so‘z) o‘girsak, *“Buvi – hayot mashaqqatlari oldida uquvli (ziyrak) ayol edi”* bo‘ladi. Undagi *“dirayetli”* sifatining lug‘aviy ma‘nosi *“1. iste‘dodli, iqtidorli, uquvli; 2. ziyrak, aqli”*dir²³⁴. Demak, tarjimon *“diydasi qotib ketgan”* sifatdosh birikmasini o‘zgartirib bergan. Shuningdek, *“Lekin hozir sarosimaga tushib, vahima va qo‘rquv ila yigitchaning sochlaridan tortib, mushtlari bilan boshiga ura-ura yig‘lay yig‘lay nido qilardi”* jumlası ham tarjimada *“Buna rağmen elinden hiç bir şey gelmiyor, çaresizce ağlayıp sızlıyordu. Evham ve korku ile torununun saçlarından çekip çıkırıyordu. Kendi başını yumrukluyordu, kaderine lanetler okuyarak haykırıyordu nine”* shaklida berilgan. O‘zbekcha jumladagi *“Lekin hozir sarosimaga tushib”* birikmasi, turkchaga *“Buna rağmen elinden hiç bir şey gelmiyor, çaresizce ağlayıp sızlıyordu”*, ya‘ni *“Shunga qaramay kampirning qo‘lidan hech narsa kelmas, chorasiz yig‘lab turardi”* shaklida ag‘darilgan).

O‘zbekcha matnda qarg‘ish so‘zlar qo‘llanilgan *“– Erkek bo‘lmay o‘l, top singlingni, qirilib ketgur! Bor, qayt izingga topolmasang o‘sha yoqlarda o‘lib ket!”* gapi turkchaga qoyilmaqom o‘girilgan: *“– Kahrolası seni, ne biçim erkeksin? Bul kardeşini! Koş, geldiğin yerlerde ara, bulamazsan geber...”* Agar parchani teskari (so‘zma-so‘z) o‘giradigan bo‘lsak, u quyidagicha ko‘rinish oladi: *“La‘nat senga,*

²³³ Sulton İ., İrem Bağrı, Seçme Hikayeler, Baygenç Ajans Yayınları:29 (Güncel Sanat Dergisi Öykü Dizisi:5). –Antalya, 1.Baskı: Temmuz 2015, S.11.

²³⁴ Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9. Baskı. –Ankara, 1998.S. 532.

qanaqa erkaksan? Top singlingni! Yugur, kelgan joylaringni yaxshilab qidir, topolmasang, o'zing ham o'l...". Demak, tarjimon o'zbekcha qarg'ish so'zlar o'rnida turkcha muqobillarni topib, ma'qul ish tutgan.

"Bog'i Eram" hikoyasi va turkcha tarjimasidan misollar:

*"Oldinga ikki qadam bosib, boqqa mo'raladim"*²³⁵. Ushbu jumlada muallif ibora qo'llanmagan. Biroq tarjimon *"mo'raladim"* so'zini turkchada ibora (*göz attım – ko'z tashladım*) orqali bergan: *"Bir iki adım ona doğru ilerledim. Bahçeye göz attım"*²³⁶. Yoki, *"Ko'zimni ochsam, rangi oppoq oqarib ketgan onamning tizzasidaman"*²³⁷. Jumladagi rangi oppoq oqarib ketgan iborasi beti benzi kül kesilmiş iborasi vositasida juda ishonchli qilib turkchalashtirilgan: *"Gözümü açtığımda beti benzi kül kesilmiş annemin dizinde yatıyordum"*²³⁸.

Xulosa. Umuman olganda, tarjima qilish jarayonida so'z ma'nosining kontekst ichida ochilishini unumaslik kerak. Bu – badiiy tarjimaning nozik masalasi bo'lib, uslub bilan chambarchas bog'liq. Qolaversa, tarjimon asliyat muallifining ijodiy shaxsiyati, adabiy manerasidan ham yaxshi xabardor bo'lmog'i kerak, chunki tarjimonning iste'dodi muallifning asar yozish manerasini o'zida ijodiy mujassamlantira olganligida namoyon bo'ladi. Asl nusxa uslubi qancha sodda bo'lsa, tarjima jarayonida shuncha ko'p muammo yuzaga keladi. Yozuvchi Isajon Sulton hikoyalarning turkcha tarjimalari tahlil sirasida bunga yana bir karra amin bo'ldik. Shunga qaramay, hikoyalarni turk tiliga o'giran tarjimonlarning ancha puxta ish olib borganliklari ko'rinib turibdi. Tili, madaniyati, tarixi, dini bir-biriga yaqin bo'lgan o'zbek va turk tillarining o'ziga xos grammatik shakllanish qonuniyatlari, sintaktik tuzilishi, xususan, xalqlarning badiiy tafakkuri bilan bog'liq o'zgachaliklarni ilmiy o'rganish fanning muhim masalasi bo'lib qolayotgani va uning alohida tadqiqot mavzusini tashkil etishiga ishonch hosil qilindi. Bundan tashqari, kelajakda qilinadigan ishlar o'zbekcha-turkcha va turkcha-o'zbekcha tarjimachilik bilan bog'liq bir

²³⁵ Султон И., Боғи эрам, Қисса ва ҳикоялар, "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. –Тошкент, 2015, S.212.

²³⁶ Sulton İ., İrem Bağ, Seçme Hikayeler, Baygenç Ajans Yayınları:29 (Güncel Sanat Dergisi Öykü Dizisi:5). –Antalya, 1.Baskı: Temmuz 2015, S.21.

²³⁷ Султон И., Боғи эрам, Қисса ва ҳикоялар, "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. –Тошкент, 2015, S. 214.

²³⁸ Sulton İ., İrem Bağ, Seçme Hikayeler, Baygenç Ajans Yayınları:29 (Güncel Sanat Dergisi Öykü Dizisi:5). –Antalya, 1.Baskı: Temmuz 2015, S.22.

qator nazariy va amaliy masalalarning o‘z yechimini topishiga ko‘mak berish bilan birga o‘zbek-turk adabiy aloqalarining yanada mustahkamlanishida ham muhim rol o‘ynaydi.

So‘z ustasi – Isajon Sulton asarlarining turkcha tarjimalari ustida olib borilayotgan tadqiqotlarning davom ettirilishi yangi asr o‘zbek adabiyoti namunalariining turkchaga qilinayotgan tarjimalari badiiy saviyasining yanada yuksalishiga ko‘mak beradi, deb o‘ylaymiz.

FOR AUTHOR USE ONLY

IV BOB. TURKCHA BADIYY ASARLARDAGI MAQOL VA FRAZEOLOGIZMLARNING O‘ZBEKCHA TARJIMALARDA BERILISHI

4.1. Umar Sayfiddin hikoyalari o‘zbek tilida

Atoqli turk adibi, XX asr boshlari turk hikoyachiligining yirik namoyandasi, tanazzulga yuz tutgan Usmoniylar imperiyasidagi ijtimoiy hayot muammolarini dadillik bilan o‘rtaga tashlagan, asarlari jamiyatda turli bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan buyuk iste’dod sohibi – Umar Sayfiddinning ayrim hikoyalari O‘zbekistonda o‘tgan asrning 70-yillarida jurnallarda e’lon qilingan. Biroq yozuvchi ijodiga bo‘lgan qiziqish 90-yillar oxiri, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi yillarida yanada ortdi. So‘nggi 10-15 yil ichida adibning o‘nlab hikoyalari taniqli tarjimonlar va havaskor ijodkorlar tomonidan ona tilimizga o‘g‘irilib, respublika jurnal va gazetalari, tarjima to‘plamlarida nashr etilib, turk adabiyoti ixlosmandlariga armug‘on etildi. Chunonchi, 2012 yilda adib hikoyalari taniqli tarjimon Boboxon Muhammad Sharif tomonidan o‘zbekchaga ag‘darilib, “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etildi²³⁹. Ushbu to‘plamga adibning “Tutqun”, “Ont”, “Kamalak”, “Vasiyatnoma”, “Valine’mat”, “Pushti dur to’n”, “Ajinali ko’shk”, “Oq yuz”, “Jasorat”, “Chanoqqal’adan so’ng”, “Xari”, “Do’stu nodo’stlarimiz”, “Afro’z bey”, “Farmon” va boshqa hikoyalari kiritilgan.

Bugungi kunga kelib U.Sayfiddin hikoyalarining salmoqli qismi o‘zbekchaga tarjima qilib bo‘lindi, desa bo‘ladi. Bunda Toshkent davlat sharqshunoslik institutida ijod qilayotgan mutaxassislar va havaskor tarjimonlarning ham hissalariga bor²⁴⁰. Adib asarlariga bo‘lgan ehtiyoj hisobga olinib institutda tuzilgan yangi to‘plamga uning Turkiyada mashhur bo‘lgan yigirmadan ortiq hikoyasi tarjimasi kiritildi. Hikoyalarning asosiy qismi institutda 2014-2017-yillarda nashr etilgan kam adadli “Bu qadimiy san’at” tarjima maktabi talabalari almanaxi”ning 1-4-sonlarida berib borilgan (“Ko‘richak” – tarjimon:

²³⁹ Умар Сайфиддин, Бадал. Ҳикоялар. Жаҳон адабиёти хазинасидан. –Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. -248 б.

²⁴⁰ Qarang: Turk adabiyotining sara asarlari. 1-qism. Umar Sayfiddin (hikoyalar). – T., 2017. – 132 б.

H.Asatova, “Qurigan daraxtlar” – tarjimon: N.Jalilova, “Afsungar” – tarjimonlar: X.Hamidov va M.To‘xliev).

So‘z borayotgan to‘plamdan joy olgan tarjimalarning ayrimlari 2014-2017-yillarda M.Yusuf ijtimoiy fondi qoshidagi “Oltin qalam” gazetasi sahifalarida (“Layoqat va ojizlik” – tarjimon: X.Hamidov, “Farmon” – tarjimonlar: X.Hamidov va G.Mirsaidova, “Ishq yoxud chaqqon panjalar” – tarjimonlar: X.Hamidov va Z.Mahmudova) chop etilib, jahon adabiyoti ixlosmandlari, tarjimashunos tadqiqotchilar, tanqidchilar e‘tiboriga havola qilindi. Adib hikoyalarining ayrimlari “O‘zbekiston” radiokanali to‘lqinlari orqali (“Jahon adabiyoti” rukni ostida) 2016-2017-yilda tinglovchilar e‘tiboriga ham havola qilindi. Tarjimalarning qayta nashr etilayotgani havaskor ijodkorlar va talabalar ijodi namunalarining respublikamiz miqyosida keng tarqalayotganligidan dalolat beradi.

Millatlar orasida madaniy va ma‘naviy aloqa quroli bo‘lgan badiiy tarjima vositasida dunyo xalqlarining ma‘naviy boyliklari, insonlarning ko‘p asrlik orzu-armonlari, g‘oya va qarashlari mujassam bo‘lgan asarlar o‘zga til sohibi bo‘lgan xalqlarga etkaziladi, kitobxonlar o‘zga xalqlarining boy madaniyati, milliy an‘analari bilan yaqindan tanishadilar. Shu nuqtai nazardan, U.Sayfiddin asarlari O‘zbekistonda jahon adabiyotining sara asarlari sifatida sevib o‘qiladi.

O‘tgan asrning 90-yillari oxiri va 2000-yillardan boshlab adib asarlariga bo‘lgan qiziqish shunchalik kuchaydiki, ulardan ayrimlari qayta tarjima qilindi. Masalan, tarixiy, qahramonlik mavzusiga bag‘ishlangan, o‘ziga xos uslubi, frazeologiyasi bilan ajralib turuvchi “*Pembe incili kaftan*” (“*Pushti marjonli chakmon*”) hikoyasi qisqa davr ichida ketma-ket ikki marta tarjima qilindi. Ushbu asar tarjimon Boboxon Sharif tomonidan “*Pushti dur to‘n*” deb, Davronbek Tojialiyev tomonidan “*Qizil durli ko‘ylak*” deb o‘girildi.

Hikoyaning ilk jumlası: “*Büyük kubbeli serin Dîvan, bugün daha sakin, daha gölgeliydi*”. B.Sharif tarjimasida “*Baland qubbali salqin devon bugün yanada sokin, yanada sersoya edi*” deb o‘girilgan bo‘lsa, D.Tojialiyev tarjimasida jumla “*Katta gumbazli devonxona binosi har kungidan sokin, har kungidan salqin edi*” shaklida berilgan. Birinchi tarjimada *kubbe* so‘zi “qubba”, *dîvan* so‘zi “devon” deb, D.Tojialiyev tarjimasida – “gumbaz”, “devonxona binosi” shaklida sal o‘zgartirib berilgan.

Yoki, “*Sadrazamın sağındaki, deminden beri, bir mezar taşı gibi hareketsiz duran, kırmızı tuğlu kavuk yerinden oynadı. Yavaş yavaş sola döndü*” jumlası birinchi tarjimada “*Sadra’zamning o’ng tomonida halidan beri qabr toshi singari jim-jit, beharakat o’tirgan qirmizi ukparli salla o’rnidan turdi. Astagina chapga yuzlandi*” deb, ikkinchi tarjimada esa “*Vaziri a’zamning o’ng tomonidagi vazirlardan biri bosh kiyimining yunglarini silar ekan, chapga o’girilib...*” shaklida berilgan. Birinchi tarjimada *sadrazam* (sadri a’zam, ya’ni “bosh vazir”) so’zi “*sadra’zam*”, ikkinchisida esa “*vaziri a’zam*” deb o’girilgan. “*Bir mezar taşı gibi hareketsiz duran*” (“bir qabr toshi kabi harakatsiz turgan”) birikmasi birinchi tarjimada “*qabr toshi singari jim-jit, beharakat o’tirgan*” shaklida berilgan bo’lsa (“jim-jit” so’zi ortiqchaga o’xshaydi), ikkinchi tarjimada ushbu birikma tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, jumlaning ikkinchi tarjimasi tushunarsiz bo’lib qolgan.

Turk va o’zbek tillarida iboralar asosan bir-biriga o’xshash, ko’pchiligi o’z ekvivalentiga ega. Ammo ayrim iboralarni tarjimada berishda tarjimonlar ibora obrazli asosini o’zgartirishni ma’qul ko’radilar. “Afro’z bey” asaridan olingan quyidagi parchaga e’tibor beramiz: *Babasi nesi var nesi yok, bu kadına bırakmıştı. Lisani gibi tabiatını da değiştirmeyen bu köylü Çerkez, sineği sıkıp yağını çıkaracak derecede muktesitti* [35-b]. Parchada ikkita ibora qo’llanilgan. Birinchisi, “bor budi”, “butun mulki” ma’nosidagi “*nesi var nesi yok*” (so’zma-so’z: *nimasi bor, nimasi yo’q*) iborasi va “o’ta tejamkor”, “haddan tashqari hisob-kitobli” ma’nosidagi “*sineği sıkıp yağını çıkaracak*” (so’zma-so’z: “chivinni siqib yog’ini chiqaradigan”) iborasidir. Ushbu parchani B.Sharif quyidagicha o’giran: *Otasi bor-yo’g’ini xotiniga tashlab ketgandi. Tili singari fe’l-atvori ham o’zgarmagan bu qishloqi cherkes ayol oshqovoqni siqib yo’g’ini oladigan darajada ziqna edi* [187]. M.Sharif tarjimasida turkcha iboralar muvaffaqiyatli berilgan. Ayniqsa, ikkinchi ibora o’rniga tushgan. Tilimizda “chivinni siqib yog’ini chiqaradigan” iborasi bo’lmagani uchun tarjimon uning muqobilini topa olgan. Turk tilida “chivindan yog’ chiqarib bo’lmagani” singari, o’zbek tilida oshqovoqdan yog’ chiqarish qiyinligiga urg’u berilib, kishining o’ta tejamkor, haddan tashqari hisob-kitobli ekani, hatto ziqna, xasisligi obrazli ifodalangan.

“Afro’z bey” asaridan olingan yana bir misolga e’tibor qaratamiz: *Çekirdekten yetişme tam bir Babiali mahsulü olan köse mümeyyiz, sanki hiç bilmiyormuş gibi sordu*. Asliyat jumlası o’zbekchaga *Tuxumdan*

chiqqanidan boshlab hukumat idorasida yetishgan Ko'sa musahhih, go'yo hech narsa bilmaydigandek, so'radi shaklida o'girilgan. Holbuki, gap borayotgan kishi "tuxumdan chiqqanidan boshlab hukumat idorasida yetishgan" emas. Bu yerda muallif kuchli o'xshatish, mubolag'a usulini qo'llagan. Bundan tashqari, mümeyyiz degani ham "musahhih" emas, "davlat xizmatchisi", "devonxona xodimi", "amaldor" demakdir.

Ma'lumki, har qanday daraxt, nihol yoki qalamchadan o'sib unadi. Ayrim daraxtlar esa urug'dan undiriladi. Urug'dan undirilgan niholning mustahkam, sog'lom daraxtga aylanishi ko'p vaqt, mehnat talab qiladi. Yuqoridagi jumlada qo'llanilgan *çekirdekten yetişme* (urug'dan unib chiqqan) sifat birikmasi insonga nisbatan qo'llanilganda frazeologik ma'no kasb etib uning "sog'lom, zuvalasi pishiq" ekanligini, asliyat jumlasidagi *çekirdekten yetişme tam bir Babiali mahsulü* birikmasining ma'nosi "tug'ma davlat xizmatchisi", "byurokratlik suyak-suyagiga singib ketgan devonxona xodimi", "davlat amaldori", ya'ni "o'z kasbida uzoq yillar ishlab, tajribasi, mahorati oshgan", o'z kasbining ustasi bo'lgan ma'mur demakdir.

U.Sayfiddinning ko'pchilik hikoyalari tarixiy, qahramonlik mavzulariga bag'ishlangan. Buning sababi yozuvchi o'z asarlarida turk davlatining kuch-qudratini ko'rsatish, tarixiy shaxslar, qahramonlarni tanitish, ularning yuksak ma'naviy fazilatlarini madh etishni maqsad qilib qo'ygan edi ("Farmon", "Afsungar", "Qizil olma qaerda", "Badal" hikoyalari). Ularda milliy shuurga quvvat berish, mamlakatning tiklanishini tezlashtirish orzusi sezilib turadi.

Bundan tashqari voqelikni yanada yorqinroq ko'rsatish, tashqi dunyo va qahramonlar ruhiyatini uyg'unlikda tasvirlash bobida yangilik olib kirgan adib o'z davri dolzarb masalalarini qalamga olgan va jamiyat hayotiga xos ziddiyatlar, murakkabliklarni mahorat bilan ochib bergan. Shu bois uning asarlariga nafaqat Turkiyada, balki dunyoning ko'p mamlakatlarida ham qiziqish katta.

U.Sayfiddin uslubi turk tadqiqotchilari tomonidan salkam yuz yildan buyon tortishib kelinadi. Kimdir tanqid qilsa, kimdir uni davrning novator yozuvchisi sifatida yoqlaydi. Bu borada adibning o'zi shunday degan edi: "Hamma mening uslubimni "ochiq-sochiq" deb tanqid qiladi. Chunki men tabiiy tilni o'rnak olaman. Tabiiy til deganda nutqda faol qo'llaniladigan til tushuniladi. Eski nasrga arabcha, forsha va boshqa ajnabiy tarkiblardan o'zlashib qolgan qovushqoqlik tabiiy tilga yot

narsadir. Chunki sof turkchada jumlar, asosan, qisqa, lo'nda, salmoqli bo'ladi. Turklar so'zlashuvda qisqa jumlar qo'llaydilar... Men ana shunday lison qo'llaganim uchun hammani hayron qoldirdim. Ko'pchilik mualliflarning asarlarini eski tarkibli, og'ir uslubda yozilganligi uchun yoqtirishadi. Men esa buni bir kamchilik, nuqson deb bilaman. Bu fikrim bilan haqlimanmi, yo'qmi, kelajak ko'rsatadi?"²⁴¹ Bu so'zlar adibning o'zi boshlagan ulkan, mashaqqatli ishning berajagi natijadan qanchalik ishonchi komilligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda adibning "Ko'richak" nomli hikoyasining boshlanish qismidan olingan bir parchaga e'tibor qaratamiz: *"Kechki ovqatda olxo'ri kampoti bor edi. Kompot ichida suzib yurgan kichik va sarg'ish olxo'rilar shunchalar mazali ediki, shoshib-pishib yer, lekin har birining danagini chiqarishni unutmasdim. Nihoyat kosaning tagida qolgan to'rt dona olxo'rini qoshig'imga solib, og'zimga olib bordim. Birpasda og'zimda erib, nordon danaklari tilimning ustida qoldi. Sekingina chiqarib oldimda turgan likopchaga uchtasini tashladim. Holbuki, og'zimga solgan olxo'rilar soni to'rtta edi. Tavba, bilmasdan bir donasini yutib yubordimmi, deb o'yladim. Yo'q, yutganimda sezgan bo'lardim. Yo bo'lmasa, olxo'rining bittasi danaksizmidi? Qahvadan ho'plar ekan o'ylanib qoldim. Olxo'ri bo'ladi-yu, danagi bo'lmaydimi? Kechasi uxlay olmadim... Hammasi tushunarli, bitta danakni yutib yuborganman..."*²⁴² Ushbu parchani o'qigan o'zbek kitobxoni asarni o'zbek tilida yozilgan deb o'ylashi tayin. Asliyatni o'qigan kishi esa U.Sayfiddinning sodda uslubi, so'z tanlash mahorati va adibning haqiqatdan ham "yangi lison" vakili ekaniga tan beradi: *"Akşam yemeğinde erik hoşafı vardı. Küçük ve sarı taneler o kadar leziz idi ki... Acele acele yiyor, fakat çekirdeklerini muntazaman çıkarıyordum. En nihayet kâsenin dibinde kalan dört taneyi kaşığa doldurdum. Ağzıma birden götürdüm. Hepsi bir lokmada eridi. Kendilerinden daha ekşi ve daha serin olan çekirdekleri dilimin üzerinde kaldı. Yavaşça önümdeki табаğa bıraktım. Bunlar üç çekirdek idi... Hâlbuki ağzıma dört erik tanesi koymuştum. Kendi kendime: "Acaba bir tanesini haberim olmadan yuttum mu?" dedim. Hayır... Bunu mutlaka hissedecektim. O hâlde eriğin birisi çekirdeksizdi! Kahvemi içerken düşündüm, hiç*

²⁴¹ Seyfettin, Ömer, Bütün Eserleri, Hikâyeler 1. Dergâh Yayınları. –İstanbul, Ocak 1999, S.10-11.

²⁴² U.Sayfiddin, "Ko'richak", hikoya, turkchadan H.Asatova tarjiması, "Bu qadimiy san'at" tarjima maktabi talabalari almanaxi. –Toshkent, ToshDSH, 2015, 47-49-betlar.

çekirdeksiz erik olur mu? Gece yatakta uyuyamadım ve karar verdim ki, ağzımdan eksik çıkan bu hain çekirdeği ben yutmuşum”²⁴³.

Yangi milliy tilni shakllantirmoq lozimligini ta’kidlagan U.Sayfiddin eski tilning xasta ekanligi, uni tuzatish uchun bir qator choralar ko’rmoq lozimligi, xalq bilmaydigan, ishlatmaydigan arabcha va forscha grammatik qoidalar, so’zlarga, imkon boricha, o’rin bermaslik zarurligi, adabiy tilda faqat milliy grammatik qoidalar qo’llanilmog’i kerakligini aytadi va bunga o’z ijodida amal qiladi.

Zamonaviy turk nasridagi o’zgarishlar Umar Sayfiddin nomi bilan bog’liq. Bunday o’zgarish va yangiliklar hikoyachilikda eski uslubdan voz kechib yangi uslubda asar yaratishdagina emas, badiiy tasvir vositalari, obrazlar ruhiyatini real ko’rsatishda ham namoyon bo’lgan.

U.Sayfiddin hikoyalarining bir qismi bolalik, yoshlik xotiralari, adibning yoshligida eshitganlari asosida yozilgan (“Ont”, “Qashlag’ich” va b.). Bu mavzudagi hikoyalarda bolalar hayoti, ular orasidagi do’slik, sadoqat mavzulari ko’tarib chiqilgan. Tadqiqotimizda adibning o’zbek tiliga uch marta, ilk B.Sharif, keyinchalik Z.Hamidova va yaqinda talaba A.Olimjonova tomonidan amalga oshirilgan “Ont” nomli hikoyasidan ayrim parchalar tahlilga tortildi. Quyida ana su tarjimalardan olingan misollarga e’tibor qaratamiz. Ular tarjimalarning saviyasini belgilash qiyin emas: “...ona birçok: «Hayırdır inşallah» dedirtirdim. Ve tabir ederken benim büyük bir adam, büyük bir bey, büyük bir paşa olacağımı, bana kimsenin fenalık yapamayacağını temin ettikçe yalan söylediğimi unutar, ne kadar sevinirdim”. Ushbu jumla birinchi tarjimada “...unga bir necha bor “inshoolloh, xayrli bo’lsin” deb aytтиrardim. Onam aytgan tushimni ta’birlarkan, mening katta odam, ulug’ bir general bo’lishimni, hech kim menga yomonlik qilolmasligini aytar, buni eshitib, boshim osmonga yetar, yolg’on so’zlaganimni unutardim” deb, ikkinchi tarjimada “Yahshilikka bo’lsin insholloh” degizardim. Onam tushimning ta’birini aytar ekan, mening kelajakda ulug’ kishi, buyuk bek, mashhur olim bo’lishimni, menga hech kimning yomonlik qila olmasligini aytib tasalli bergani zamon yolg’on to’qiganimni unutar, qanchalar sevinardim!” deb, uchinchi tarjimada esa “U bir necha marotaba “Yaxshilikka bo’lsin, inshoolloh!” deb

²⁴³ Seyfettin, Ömer, Bütün Eserleri, Hikâyeler 1. Dergâh Yayınları. –İstanbul, Ocak 1999, S.124-126.

tushimni yaxshilikka yo'yib, mening kelajakda buyuk odam, buyuk bey, buyuk lashkarboshi bo'lishim, hech kim yomonlik qila olmasligiga meni ishontirishga harakat qilardi. Men ham yolg'on gapirganimni unutar, rosa sevinar edim" deb berilgan.

Tarjimalarni tahlil qilishdan oldin shuni ta'kidlash joizki, o'tmish va o'zi yashagan davr orasidagi farqni yaxshi bilgan zamonaviy yozuvchi o'tmishni jonlantirish yoki uni mavjud davr bilan qiyoslashga urinmaydi, boshqa yozuvchilarga o'xshab o'tmishni sog'inib tushkunlikka berilmaydi. Tarixiy shaxslarni namunali inson modellari sifatida o'z asarlarida aks ettiradi. Ana shunday ruhda yozilgan kichik bir hikoyaning o'zbek tiliga uch marotaba o'girilganiga sabab, tarjimonlarning o'zlaridan oldingi tarjimalardan bexabarliklari bo'lsa kerak. Jumla tarjimalari tahliliga qaytadigan bo'lsak, hikoyaning uchala tarjimasi ham talabga javob beradi. Faqat uchinchi tarjimada (A.Olimjonova) birona so'z e'tibordan chetda qoldirilmagani, unda muallif uslubi to'la saqlanganini ko'ramiz. Birinchi va ikkinchi tarjimada ayrim grammatik shakllarning (*degizardim*) til me'yorlariga amal qilmasdan qo'llanilgani, so'zlarning aniq tarjimasi berilmagani (qarang: *paşa* – *general*, *bey* – *bek*, *paşa* – *olim*, *temin* – *tasalli*) ko'zga tashlanadi. Chunki, **paşa** degani 'harbiy boshliq', 'lashkarboshi', **bey** – 'bey', *temin* – 'kafolat' demakdir.

"...Tarjimon xalqining didi, saviyasi, xarakteri va talabini qat'iy sur-atda hisobga olgan holda tarjima qilishi lozim" – deb yozgan edi G'.Salomov o'zining "Til va tarjima"²⁴⁴ nomli kitobida. Darhaqiqat, tarjimoni o'qiyotgan kitobxon asarning tarjima ekanligini xayoliga ham keltirmasligi kerak. Buning uchun tarjimon ijodiy mehnat jarayonida asl nusxa nafosatini ifodalovchi so'zlar, frazeologik birliklar zahirida yashiringan ma'no nozikliklarini mohirona ilg'ay olishi, ularni ilmiy asosda tahlil qilib, asarning butun murakkabligi bilan o'z tiliga o'girishi kerak. Shundagina tarjima milliy adabiyot mulkiga aylana oladi.

Xulosa. XX asr boshi turk adabiyotining yirik vakili, yuzdan ziyod hikoyalari bilan turk tilining soddalashuvi va milliy tilga aylanishida jonbozlik ko'rsatgan atoqli adib – Umar Sayfiddin qisqa umri davomida o'zi orzu qilgan durdona asarlarning barchasini yozib tugatishga ulgurmagan bo'lsa-da, yozgan asarlari bilan vafotidan keyin, mana salkam yuz yildan buyon dunyo klassik adiblari orasida sanalib, nafaqat

²⁴⁴ Саломов Г., Тил ва таржима. –Т.: Фан, 1966.

Turkiyada, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ham ma’lum va mashhur bo‘lib kelmoqda. Adib asarlarini tarjima qilar ekan, turk va o‘zbek xalqlari turmush tarzlarining qanchalik o‘xshashligi, buning natijasida ko‘pgina mushtarak so‘z va frazeologik birliklarning yuzaga kelganligi ma’lum bo‘ladi. Asarlar frazeologiyasining o‘zbek tiliga tarjimalarda qayta ifodalanishi, ya’ni bir-biriga to‘la ekvivalent bo‘lgan matal va iboralar asarlarning o‘zbek kitobxonini ongiga asliyatdagi kabi muhrlanishini ta’minlaydi. Bu bilan bog‘liq masalalarning hal etilishi o‘zbek tarjimashunosligi oldida turgan vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, turk va o‘zbek xalqlari badiiy tafakkuri, hayot tajribasining asosan o‘xshashligi, shunga qaramay ular orasida ayrim farqli jihatlarining ham borligi aksariyat hollarda millatning ruhi, mentaliteti, turmush-tarzini namoyon qiluvchi frazeologik birliklarni talqin qilishda muammo keltirib chiqarishi ham tabiiydir. Shunga ko‘ra, asl nusxa va tarjima tilidagi birliklarning o‘ziga xosliklarini qiyosiy o‘rganish, ular orasidagi mazmuniy-uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi vositasida talqin etish yo‘llari va imkoniyatlarini belgilash to‘laqonli tarjima yaratish uchun zamin hozirlaydi.

“...Kamolot hosil qilib borayotgan har bir xalq boshqa bir xalqning tilidagi ilmini, imkoni boricha, andin o‘z xalqi bahramand bo‘lsin uchun, o‘z tiliga tarjima qiladurlar” – degan edi mashhur tarjimon Sattorxon. Shunday ekan, taniqli turk adibi U.Sayfiddin hikoyalarining ona tilimizga tarjima qilinishidan kutilgan asosiy maqsad ham shu bo‘lishi kerak.

2.1. Aziz Nesin hikoyalaridagi iboralarning tarjimada ifodalanishi

Taniqli turk hajv yozuvchisi, dramaturg Aziz Nesinning hikoyalari turk tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlar qatorida yetakchi o‘rin egallaydi. Yozuvchining umri davomida nashr ettirgan, ko‘plab xalqaro mukofatlarga sazovar bo‘lgan asarlarining salmoqli qismi dunyoning 30 dan ortiq tiliga, shu jumladan o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan. O‘zbekistonda A.Nesinning nomini eshitmagan va uning ichakuzdi hikoyalarini o‘qimagan odam kam topilsa kerak. Bunda XX asrning 60-yillarida o‘zbek kitobxonlarini A.Nesinning ijtimoiy-iqtisodiy illatlarni hajv vositasida ustalik bilan ochib bergan asarlari bilan ilk tanishtirgan

taniqli tarjimonlar Miad Hakimov, Nosir Muhammad, Shodmon Otabek va boshqa ijodkorlarning xizmatlari katta. O'sha yillarda turk adibining *"Musht ketdi"*, *"Hushtak afandim"* kabi asarlari xalq orasida yaxshi tanilgan. So'nggi yillarda adib asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda tarjimon N.Muhammad ancha mehnat qildi.

A.Nesin satira va yumor janrlarida birdek ijod qilgan. *"Hajvchilar o'z ko'z yoshlarini qahqahaga aylantirib, boshqalarga taqdim etadigan kimyogarlardir"* – deb ta'kidlagan edi adibning o'zi²⁴⁵. Kichkina hikoya tagida katta ma'no-mazmunni yashira olgan hajvchining o'nlab hikoyalari so'nggi yarim asr mobaynida alohida e'tibor bilan o'zbek tiliga o'girildi²⁴⁶. Hikoyalarning ayrimlari yarim asr o'tib bevosita turk tilidan qayta tarjima ham qilindi. Bu A.Nesin hajviga yangidan qiziqish uyg'onganidan dalolat beradi. Ushbu maqolada tahlilga tortilgan hikoyalarning ko'pchiligi o'zbek tiliga ikki marotaba tarjima qilingan. Masalan, yozuvchining hajviy hikoyalaridan o'zbek xalqi orasida eng mashhur *"Bay Düdük"* (*"Hushtak afandim"*) hikoyasi 60-yillarda taniqli tarjimon M.Hakimov tomonidan o'girilgan bo'lsa, 2014 yilda ushbu asarga qayta qo'l urildi²⁴⁷. O'sha yillar hikoya *"Hushtak afandim"* deb o'zbekchalashtirilgan va uni o'zbek kitobxonlari juda yaxshi kutib olishgan. Agar sarlavha turk tiliga qayta ag'darilsa, *"Düdük efendim"* bo'ladi. Mazkur hikoyaning ikkinchi tarjimasi esa *"Janob "hushtak"* deya so'zma-so'z o'girilgan (*"bay"* – janob, *"düdük"* – hushtak) bo'lib, ham grammatik, ham ma'no jihatdan asliyatga to'la muvofiq keladi.

Endi hikoyadan olingan ayrim parchalar tarjimasiga diqqat qarata-miz: *"Maçka'dan Dolmabahçe'e doğru, işte böyle en olmayacak şeyleri düşüne düşüne gidiyordum. Stadyumun önüne geldim, bir ana baba günü"*²⁴⁸. M.Hakimov ushbu jumlani *"O'zim Machkadan Do'lma-bog'cha tomonga qarab ketyapman-u, yetti uxlab tushga kirmaydigan xayollar og'ushidaman. Bir payt qarasam, stadionning oldidan chiqib qolibman. Xuddi qiyomat qoyim bo'lganga o'xshaydi"*²⁴⁹. deb o'giran.

²⁴⁵ Aziz Nesin. "Хуштак Афандим" (Хажвий ҳикоялар). –Тошкент: "Ўзбекистон", 2015, 3-6.

²⁴⁶ Ўша китоб.

²⁴⁷ "Бу қадимий санъат" таржима мактаби талабалари алманахи. –Тошкент, 2014, 99-105-бетлар.

²⁴⁸ Aziz Nesin, Bay Düdük, hikâyeler.

²⁴⁹ Aziz Nesin. "Хуштак Афандим" (Хажвий ҳикоялар). –Тошкент: "Ўзбекистон", 2015, 65-6.

Ikkinchi tarjimada esa jumla “*Ana shunaqa be’mani narsalarni o’ylay-o’ylay Machkadan Do’lmabog’chaga qarab boryapman. Stadion yoniga keldim, tumonat odam, it egasini tanimaydi*”²⁵⁰ shaklida berilgan. Ilk tarjimada “*ana baba günü*” (so’zma-so’z: *ona-ota kuni*) iborasi “*Xuddi qiyomat qoyim bo’lganga o’xshaydi*” deb o’girilgan bo’lsa, ikkinchi tarjimada “*it egasini tanimaydi*” iborasi orqali berilgan. Demak, ikkala tarjimada ham asliyat mazmuni qayta yarata olingan.

Yozuvchi stadiondagi olomonni tasvirlar ekan “*İnsan anaforunun içinde bir o yana, bir bu yana firfir dönüyordum*”²⁵¹ deb yozadi. Buni M.Hakimov “*Girdobga tushib qolgan odamday turgan joyimda gir-gir aylanaman*”²⁵² deb tarjima qiladi. Ikkinchi tarjimada esa jumla “*Odam shunchalik ko’pki, girdobga tushgandek, goh u yoqqa, goh bu yoqqa chayqalamam*”²⁵³ deb beriladi. Ikkala tarjima ham kitobxonga tushunarli, badiiy estetik jihatdan ham asliyatga mos, biroq ikkinchi tarjimada har bir so’z e’tibordan chetda qoldirilmagan.

Tadqiqotimiz sirasida A.Nesin asarlarining N.Muhammad tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari, ularda turkcha frazeologik birliklarning berilishi masalasiga ham alohida e’tibor qaratdik. Adibning “Sizning mamlakatda eshak yo’qmi?” (“Sizin Memlekette eşek yok mu”²⁵⁴) deb nomlangan hajviy hikoyalar to’plamidan bir nechta hikoya tanlab o’zbekchaga o’giran N.Muhammad frazeologik birliklar tarjimasiga alohida yondashgan. “Chegara ustidagi uy” hajviy hikoyasidan bir jumla: “*Ne sözünü bilmez adamlar var, dedim*”²⁵⁵. Ushbu jumlag tarjimon ijodiy yondashib, uni rivojlantirgan va quyidagicha o’giran: “*–G’alati odamlar bor-da, bilib-bilmay valdirayverishadi, dedim*”²⁵⁶.

A.Nesin juda qisqa jumlar quradi, lekin ular orqali keng ma’no ifodalaydi: “*Aklım yattı, ama yine de gece gözümü uyku tutmadı. Hırsı-*

²⁵⁰ “Бу қадимий санъат” таржима мактаби талабалари алманахи. –Тошкент, 2014, 99-105-бетлар.

²⁵¹ Aziz Nesin, Bay Düdük, hikâyeler.

²⁵² Азиз Несин. “Хуштак Афандим” (Ҳажвий ҳикоялар). –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015, 65-б.

²⁵³ “Бу қадимий санъат” таржима мактаби талабалари алманахи. –Тошкент, 2014, 99-бет.

²⁵⁴ Aziz Nesin, Sizin Memlekette eşek yok mu, Aziz Nesinin Aziz Nesinden seçtikleri, Derleme. -İstanbul, 2015.

²⁵⁵ O’sha kitob, 144-b.

²⁵⁶ Азиз Несин. “Хуштак Афандим” (Ҳажвий ҳикоялар). -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015, 190-б.

zi, randevu vermiş gibi, ha geldi, ha gelecek diye bekliyordum”²⁵⁷. Par-chaning o‘zbekcha tarjimasi quyidagicha: “–Biroz xotirjam bo‘ldim. Ammo kechasi baribir ko‘zimga uyqu kelmadi. Uchrashuv tayinlagan odamday o‘g‘ri ana keladi, mana keladi deb, kutib yotdim”²⁵⁸. Tarjimon gaplarning o‘zini emas, ularda ifodalangan mazmunni ishonchli bera olgan: *akli yatmak* iborasini *xotirjam bo‘lmoq*, *gözü uyku tutmak* iborasini – *ko‘ziga uyqu kelmaslik*, *ha geldi, ha gelecek* iborasini – *ana keladi, mana keladi* iboralari orqali berganki, tarjimani xuddi original asar o‘qiyotgandek o‘qiyamiz.

Ba‘zan yaqin tillar orasida tarjima amalga oshirilayotganda ijodkor-ning bu tillarning eng nozik jihatlariga e‘tibor berishlari muvaffaqiyatga olib keladi. Masalan: “tüyleri diken diken olmak” (so‘zma-so‘z: “tuklari tikan-tikan bo‘lmoq”) iborasining o‘zbekcha muqobili *‘eti jimirlamoq’*dir: “...diye insanın tüylerini diken diken eden bir kahkaha yükseldi”²⁵⁹. Tarjimon ushbu jumlani “... qoron-g‘ilikdan etni jimirlatadigan qahqaha yuksaldi”²⁶⁰ deya o‘girib, mazmunni bera olgan.

Tarjimon ba‘zida ibora qo‘llashda muallifdan ham o‘tadi. E‘tibor bering: “–Ulan, biz korkunç yerli film mi çeviriyoruz, erkeksen karşıma çık alçak! Diye bağırdım”²⁶¹. Ushbu jumlaning so‘zma-so‘z tarjimasi “Bachchag‘ar, biz mahalliy qo‘rquv filmi suratga olyapmizmi, erkek bo‘lsang, chiq qarshimga, olchoq” bo‘ladi. Biroq, tarjimon uni quyi-dagicha o‘giradi: “Аблаҳ, сен билан сичқон-мушук ўйини ўйнаяпмиз-ми, мард бўлсанг қаршимга чиқ, – дея бақирдим”²⁶². Tarjimon “Ulan, ...alçak” сўзларининг маъносини биргина “аблаҳ” сўзига юклаган бўлса-да, “сичқон-мушук ўйнамоқ”ни ўзбек тилининг бой ибора заҳирасидан танлаб қўйганки, жумла қойилмақом чиққан.

²⁵⁷ Aziz Nesin, Sizin Memlekette eşek yok mu, Aziz Nesinin Aziz Nesinden seçtikleri, Derleme. –İstanbul, 2015, S.145.

²⁵⁸ Aziz Nesin. “Хуштак Афандим” (Ҳажвий ҳикоялар). -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015, 191-б.

²⁵⁹ Aziz Nesin, Sizin Memlekette eşek yok mu, Aziz Nesinin Aziz Nesinden seçtikleri, Derleme. -İstanbul, 2015, S.145.

²⁶⁰ Aziz Nesin. “Хуштак Афандим” (Ҳажвий ҳикоялар). -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015, 191-б.

²⁶¹ Aziz Nesin, Sizin Memlekette eşek yok mu, Aziz Nesinin Aziz Nesinden seçtikleri, Derleme. -İstanbul, 2015, S.145.

²⁶² Aziz Nesin. “Хуштак Афандим” (Ҳажвий ҳикоялар). -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015, 191-б.

Asliyatdagi frazeologik birliklarning tarjimada to‘g‘ri, o‘z o‘rnida va ishonchli berilishi tarjimaga betakror ifodaviylik, ixchamlik va aniqlik baxsh etadi, ifodaning ta’sirchanligi, badiiyligini oshiradi: *“Hişşt!... Yavaş konuş, çaktırma. Şu çay için adama yan gözle bak!”*²⁶³ Gapda qo‘llanilgan *yan gözle bakmak* iborasi ‘ko‘z qirini tashlamoq’, ‘boshqacha qaramoq’ ma’nosida kelgan. Tarjimada jumla *E, sekinroq gapir... Ana u choy ichayotgan odamga ko‘z qiringni tashla* deb berilgan. Tarjima yaxshi, faqat uni *Ey, menga qara, sekinroq gapir... Sezib qolmasin. Ana u choy ichayotgan odamga ko‘z qiringni tashla* deb bersa yanada chiroyli chiqqan bo‘lardi.

Iboralar o‘z tuzilishidan qat’iy nazar, bo‘linmas yaxlit birlik sifatida gap tarkibiga kiradi. Iboralar qo‘llanilgan gap tarjimasi tahlil etilayotganda tashkil etuvchi komponentning emas, iboraning gapdagi sintaktik vazifasi haqida so‘z yuritish, ibora jumla ichida leksik birlik vazifasida bo‘lsa-da, uni tashkil etuvchi komponentlarga ham e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Iboralar bo‘linmas birliklar bo‘lishiga qaramay, ular so‘z birikmasi (turg‘un) va gap sifatida (tashqi tuzilishiga ko‘ra) sintaktik nuqtai nazardan ko‘rib chiqilishi ham mumkin.

A.Nesin hikoyalari tarjimasida turkcha gaplarning ma’nosiga mos keladigan ajoyib iboralar qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz: *“Sarhoşlar birbirlerine girdiler. Onlar bıçaklar fora ederken bizim Musa da düdüğe asıldı. O aslan kesilmiş kavgacılar, düdüğün bir furt etmesiyle uyuz it gibi kuyruklarını kısıp oturdular”*²⁶⁴. Ushbu parchani M.Hakimov tarjimasida o‘qiymiz: *“Mast-alast odamlar yoqa bo‘g‘ishib ketishdi. Ish pichoqqa borib taqalay deganda, Musa hushtak chalib yubordi. Hozirgina bir-biri bilan sherday olishib turgan azamatlar churillagan ovozni eshitiboq dumlarini qisib qolishdi”*²⁶⁵. Parchaning ikkinchi tarjimasi: *“Shirakayf mijozlardan bir nechtasi janjal boshlashibdi. Bir-ikkitasi pichoq chiqarib havoda o‘ynata boshlaganda, bizning Musa hushtagini qo‘liga oldi. “Sheryurak” pahlavonlar hushtak ovozini eshitishlari bilan qo‘tir it kabi dumlarini*

²⁶³ Aziz Nesin, Sizin Memlekette eşek yok mu, Aziz Nesinin Aziz Nesinden seçtikleri, Derleme. –İstanbul, 2015, S.154.

²⁶⁴ Aziz Nesin, Bay Düdük, hikâyeler.

²⁶⁵ Азиз Несин. “Хуштак Афандим” (Ҳажвий ҳикоялар). –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015, 69-6.

qisishib, bir lahzada “in-inlariga” kirib ketishdi”²⁶⁶. Asliyatdagi “*uyuz it gibi kuyruklarım kısıp oturdular*” birikmasi M.Hakimov tarjimasida “*Azamatlar dumlarini qisib qolishdi*” shaklida, ikkinchi tarjimada esa “*qo’tir it kabi dumlarini qisishib, bir lahzada “in-inlariga”kirib ketishdi*” shaklida berilgan. Ikkinchi tarjimada asliyatdagi bironta so‘z e’tibordan chetda qolmagan.

Xulosa. A.Nesin asarlari frazeologiyasining o‘zbekcha tarjimalarda ifodalanishi mavzusi ko‘rib chiqilar ekan, bunday birliklarning ikki xalqning keng makon va zamon ichida to‘plagan tajribasi, badiiy tafakkuri va falsafasini o‘zida mujassamlantirganiga guvoh bo‘lindi. Ikki xalq milliy va madaniy xazinasining salmoqli qismini tashkil etuvchi bunday boylik ustida olib borilayotgan tadqiqotlar, til taraqqiyoti, adabiy aloqalarning yanada mustahkamlanishida alohida pog‘onani tashkil etadi.

²⁶⁶ “Бу қадимий санъат” таржима мактаби талабалари алманахи. –Тошкент, 2014, 103-бет.

XULOSA

Dunyo mamlakatlari orasida bevosita madaniy va ma'naviy aloqa quroli bo'lgan badiiy tarjima vositasida xalqlarning ma'naviy boyliklari, insonlarning ko'p asrlik ezgu umidlari, orzu-armonlari, g'oya va qarashlari mujassam asarlar o'zga til sohibi bo'lgan xalqlarga yetkaziladi, bir xalq adabiyoti namunasining o'zga madaniy hayotga kirib kelishi xalqlarning ma'naviy jihatdan yaqinlashishi, milliy adabiyotning boyishida badiiy tarjimaning o'rni beqiyos. Tarjimaning san'at darajasiga yuksalishida esa tarjimonning iste'dodi va tarjimaning saviyasi muhim o'rin tutadi.

Xorijiy tillardan ona tilimizga va ona tilimizdan xorijiy tillarga tarjimalarda maqol va idiomalarning berilishi mavzusida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, monografiyalar va ilmiy maqolalarda bu haqda qimmatli fikrlar berilgan. Bulardan en yiriklari ustoz G'.Salomovning mashhur fundamental tadqiqoti – "Til va tarjima" hamda o'zbek tilidan rus va boshqa tillarga hamda aksincha tarjimalarda frazeologizmlarning berilishi masalalariga bag'ishlangan "Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir" nomli monografiyasidir.

Ana shu noyob ilmiy asarlar andoza sifatida olinib tayyorlangan mazkur tadqiqotda turkchadan o'zbekchaga, o'zbekchadan turkcha va ruschaga o'girilgan badiiy asarlarda maqol, matal va idiomalarning berilishi bilan bog'liq bir qator dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, maqol, matal va iboralar tilning o'ziga xos xususiyatlari, tabiatini belgilovchi, uning kamolot darajasini namoyon etuvchi muhim unsurlar bo'lib, ularni bir tildan boshqa tilga o'girish murakkab jarayon hisoblanadi. So'ngi yarim asr mobaynida o'zbek tilidan rus tiliga va so'nggi chorak asr davomida o'zbek tilidan turk tiliga badiiy tarjimalarda erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchilik, nuqsonlar xususida so'z yuritilgan mazkur tadqiqotda asosiy e'tibor maqol, matal va iboralarga qaratilib, ayrim tarjimonlarning kitobxonlarni o'zbek yozuvchilarining asarlari bilan tanishtirishni asosiy maqsad qilib, tarjimalarning sifati, badiiy saviyasi, xususan, milliylikni tarjimada saqlanishi masalasini keyingi o'ringa qo'yanliklari aytib o'tildi, asliyat so'zlarining ma'no nozikliklari, o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligi, urf-odatlarini chuqur bilmasliklari buning asosiy sababi ekanligi

ta'kidlandi. Tahlilga tortilgan misollar kitobxonlarga yaxshi tanish bo'lgan badiiy asarlardan olindi.

Maqol, matal va idiomalarning yangi qirralari, kelib chiqish manbalari, yuzaga kelish yo'llari, leksik-grammatik va lingvomadaniy xususiyatlari bilan bog'liq muammolar imkon doirasida o'rganildi, birliklarning tarjimada berilishi masalalari ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda o'zbek adabiyotining atoqli namoyandalari Abdulla Qahhor, davlat arbobi va taniqli yozuvchi Sharof Rashidov qalamiga mansub asarlar frazeologiyasi va rus tiliga tarjimalarida bunday birliklarning qayta yaratilishi masalasi muxtasar ko'rib chiqildi. Shuningdek, Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining vakili Isajon Sultonning hikoyalari turkcha tarjimalari bilan, turk hajv yozuvchisi Aziz Nesin hikoyalari o'zbekcha tarjimalari bilan qiyoslangan holda tahlil qilindi. Mualliflarga xos jumla qurish, gaplarning ohang, surat, marom kabi xususiyatlarining tarjimada ifodalanishi masalasi alohida muammoni tashkil etishi va bu hol asarlar tarjimasi sifatini belgilovchi omil ekanligi, badiiy tarjimada muallif uslubini qayta yaratish tarjimashunoslikning muhim muammosi ekanligi alohida ta'kidlandi. Shuningdek, fanda uslubdan alohida ajratilgan holda ko'rsatiladigan hech bir masala yo'qligi aytiladi.

Maqol va iboralarga tarjima tadqiqotlarida juda ko'p qo'l urilganligi va bunday ishlar davom ettirilajagi ta'kidlandi. Shu boisdan mavzuning so'z tanlash muammosi bilan uzviy bog'liqligiga e'tibor qaratildi. Asarlarni qayta yaratish ishiga tarjimonlar qanday yondashganliklari, erishilgan muvafaqiyatlar bilan bir qatorda, yo'l qo'yilgan kamchiliklar imkon qadar misollar bilan ko'rsatib berishga harakat qilindi.

Idiomalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish mumkin emasligi ko'p aytilsa-da, buni mezon sifatida qabul qilish noto'g'ri. Bunday birliklar tarjima qilinayotganda, ularning obrazli asosiga aynan muvofiq keladigan variantni qidirish ma'no o'zgarishi yoki siljishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ularni muqarrar ravishda asar tarjima qilina-yotgan tildagi boshqa uzoq muqobil variantlar bilan almashtirishga ortiqcha ruju qo'yish ham uslubning siyqalashishiga, obrazning xiralashishiga olib keladi. O'zaro yaqin tillardan tarjimalarda esa vaziyat boshqacha. Agar ayrim hollarda turkchada ko'chma ma'noda aytilgan maqol yoki ibora hijjalab o'girilsa, uni anglashda o'zbek kitobxoni qiyinchilik sezmasligi mumkin.

O'zbek va turk tillari maqol va iboralariga nihoyatda boy, tillarning badiiy ifoda imkoniyatlari keng bo'lgani bois bu tillarda yozilgan badiiy jihatdan mukammal asarlarda frazeologik birliklarning ko'p uchrashi tabiiy.

Xalqning muayyan voqea-hodisa haqidagi xulosasi mujassam bo'lgan maqol va iboralar ijodiyotning o'ziga xos badiiy ifoda uslubi aks etgan janrlari hisoblansa-da, baynalminal ahamiyat ham kasb etadi. O'xshash shart-sharoit, taqdir, mantiqiy asoslar turli tillarda ma'nodosh birikmalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun bu tillarda bir-biriga o'xshash, manodosh, hatto aynan bir xil maqol va matallarning mavjudligiga ajablanmaslik kerak.

Badiiy tarjimada frazeologik birliklar obrazli asosining saqlanishi mavzusiga kelganda, aytish joizki, o'zaro yaqin tillar sanalgan o'zbek va turk tillari orasida tarjima jarayonida qator muammolarga duch kelinadi. Ikkala tilda maqol va idiomalar obrazli asos jihatdan aynan o'xshash, bir-biriga to'la ekvivalent bo'lsa-da, bu ikki xalq badiiy tafakkurida farqliliklar mavjudligi bois birliklarning so'zma-so'z tarjimasi ayrim hollarda muammo keltirib chiqaradi.

Tarjimada tilning eng nozik ma'no o'zgachaligini ham diqqatdan chetda qoldirmaslik, hatto ohangdorlikni ham saqlash kerak. Buni G'.Salomovning "Ba'zi tillarda maqollarning obrazli asoslari aynan saqlangan holda tarjima qilinsa, sun'iy bo'lib chiqadi. Lekin ayrim hollarda so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan ham maqollarning ma'nosini to'liq ifodalash mumkin. Agar maqol yoki idiomaning asosi shu maqol tarjima qilinayotgan tilda ham, originaldagi kabi, umumlashtiruvchilik, obrazlilik, shartlilik, abstraktlik xarakteriga ega bo'lsa, tarjima yaxshi natija beradi"²⁶⁷ degan so'zlari yana bir karra tasdiqlaydi.

Turli til oilasiga mansub bo'lgan o'zbek va rus tillaridagi ayrim maqol va idiomalar orasida ko'p kuzatiladigan o'xshashliklarning sababi esa so'nggi yuz yil mobaynida tilimizga ruschadan juda ko'p so'z va atamalar qatorida ayrim maqol va idiomalar ham tarjima orqali o'zlashib qolganligidir. Ko'rib chiqilgan maqol va iboralar tahlildan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular yuzaga kelayotganda predmetlar, obrazlar, xalqqa juda tanish, kundalik hayotda uchraydigan narsalar asos olingan.

²⁶⁷ Саломов Г., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, ЎзФА нашриёти. – Т.: 1961, 46-бет.

Tarjima sirasida frazeologik birlikning aniq ekvivalenti yo'qligi vaj qilinib, birlikning tarjima tilida mavjud, biroq ma'noni to'la qoplay olmaydigan varianti qo'llanadi. Bunday ish tutish tarjima tilining ifoda imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi. Bir tildagi ma'nodosh bir qancha maqol yoki idiomatik birikmaning hammasiga ham o'zbek tilidan muqobil topilmasa (yoki faqat bittagina ekvivalent variant topilsa), o'sha ma'nodosh birikmalarning hammasini ham faqat bittagina o'zbekcha variant bilan tarjima qilish noto'g'ri bo'ladi. Demak, ma'nodosh birikmalarning ekvivalentlari ona tilimizda bo'lmagan shakllarini aynan tarjima qilgan ma'qul. Bunda o'sha ma'nodagi birikmalardan birining tilda mavjudligi tarjimonga qo'l kelishi mumkin.

Zamonning o'ta tez suratlar bilan o'zgarib, taraqqiy etib borishi hozirgi avlod vakillari nutqida "eskirmas" frazeologik birliklarning qo'llanish doirasi, afsuski, qisqarib borayotgani, hatto, ba'zilarining faqat badiiy adabiyotda uchrab qolayotganini ko'rsatmoqda. Buning asosiy sababi frazeologik birliklar obrazli asosining eskirganligi bo'lishi mumkin. O'zbek va turk tillaridagi maqol va iboralarning ko'pchiligi bir-biriga o'xshash bo'lishiga qaramay, ularni anglash har doim ham oson bo'lmaydi. Ayniqsa, turklarda qadim zamonlardan qolgan maqollar so'zma-so'z o'zbekchaga o'girilsa-da, ularni tushunish qiyin emas. Chunki turklarda eskirib qolgan ayrim iboralar, o'zbekchada o'z ma'nosi, qimmatini haligacha yo'qotmagan.

Aslida, maqol, matal va iboralar hech qachon eskirmasligi kerak. Buni buyuk bobokalonlardan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti-t turk" asaridagi maqol va iboralar ham tasdiqlaydi. Bugungi kunda deyarli iste'molda bo'lmagan ayrim turkcha iboralarni tashkil etuvchi komponentlar o'zining predmet ma'nosini yo'qotmasa-da, ibora ostidagi frazeologik ma'no eskirib qolgan. Bunday birliklarning eskirmasligi, ularning hamisha barhayot bo'lishini ta'minlash uchun nafaqat maqol, matal va iboralar lug'atlariga, balki tilning asosiy izohli lug'atiga kiritilishi, shu bilan birga, yaratilayotgan badiiy asarlarda, televizion ko'rsatuvlar, badiiy filmlarda keng qo'llanilishiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi.

Mazkur tadqiqotda muallif maqol va iboralarning mavzu guruhlariga alohida e'tibor qaratgan (atoqli otlar, muqaddas nomlar, inson ismlari va joy nomlariga asoslangan, hayvonot olami, xususan uy hayvonlari, ularning nomi, hatti harakatlariga asoslangan frazeologizmlar, oila munosabatlari, ota-onaning farzand tarbiyasidagi

o'zni, xususan, ona va farzand salomatligi haqida aytilgan maqol va idiomalar va b.). Ularning tarjima xususiyatlarini tadqiq etish nafaqat tilni chuqur o'rganish, balki xalqning milliy o'ziga xosligi, mentaliteti, badiiy tafakkuri, tarixi va madaniyatini bilib olishga ko'mak beradi.

Badiiy asarda milliylikni belgilovchi omillardan sanalgan tilak, duo va qarg'ishlarning asosiy qismi turg'un ibora shakliga ega. O'zbekcha tilak, duo va qarg'ishlarning turkcha tarjimalarda berilishi masalasi fanda alohida mavzu sifatida olib, ko'rib chiqilmagan. Ularning shakllanishi, semantik, formal-sintaktik tahlili, xususan, frazeologik birikmalarga aylangan tilak va qarg'ishlarning tarjimada berilishi masalasi dolzarb hisoblanadi.

Ushbu mavzuning o'zgachaligi yana shundaki, o'zbek va turk tillarida tilak, duo va qarg'ishlar bir-biriga o'xshash narsadek ko'rinsada, sinchiklab kuzatilganda, orada ayrim farqliliklar mavjudligi yaqqol seziladi.

Ushbu tadqiqot ishi natijasida chiqarilgan xulosalar "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" yo'nalishi talabalari va "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (tillar bo'yicha)" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan magistrantlar hamda yosh mutaxassislar uchun foydali material bo'ladi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

О‘zbek tilidagi adabiyotlar:

1. Азнаурова Э., Бадий таржиманинг асосий проблемалари, мақола, Таржима санъати, мақолалар тўплами, Ўзбекистон Бадий адабиёт нашриёти, Тошкент. –Т.: 1961.
2. Akbaraliyeva X., “Devonu lug‘otit turk” asaridagi maqollarning lingvokulturologik xususiyati, мақола, Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами, 3-қисм. – Тошкент: ТошДШИ, 2015.
3. Бадий таржима: бугун ва эртага, мақола, Олтин қалам, газета, октябрь, 2015. 19(219)-сон.
4. Вохидов Эркин, Тўла асарлар тўплами, Тўртинчи жилд, Қиш халовати, Сўз латофати. –Тошкент, “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2016.
5. Каримов Ш. Абдулла Қахҳор ижоди хорижий таржимонлар талкинида, Мақола, Шарқ юлдузи, 2015 йил, 4-сон.
6. Ochilov E., Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. –Т.: 2014.
7. Саломов Ғ., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир, Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти. – Т.: Фан, 1961.
8. Саломов Ғ., Таржима назарияси асослари, Т., «Ўқитувчи», 1983.
9. Саломов Ғ., Тил ва таржима. –Т.: Фан, 1966.
10. Турк тилидан амалий машғулотлар учун матнлар, тузувчи: Х. Ҳамидов, Тошкент, 2007.
11. Umurov N., “Kashmir qo‘shig‘i” va uning tarjimasini G‘aybullo as-Salom talqinida, maqola, “Kitobxonlik madaniyati va badiiy tarjima mahorati”, Respublika ilmiy-amaliy konfer-si materiallari. – Samarqand: 2017 y. 2-iyun.
12. Эргашев Шухрат, Эрк истар кўнгил, Тошкент, “О‘zbekiston”, 2017.
13. Ҳамидов Х., Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари, Тошкент, ТошДШИ, 2014, 142 б.
14. Ҳамидов Х.Х., Абдулла Қахҳор ҳикоялари турк тилида, “Таржимашунослик муаммолари” Республика илмий-назарий анжумани материаллари, ЎзР ОЎМТВ Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети. –Тошкент, 2017 йил 18 май.
15. Ҳамидов Х.Х., Бадий таржимада сўз танлаш муаммосига доир // Шарқшунослик. – Т.: ТошДШИ, 2013. №1.

16. Ҳамидов Х., Турк тилида атоқли отлар иштирокида юзага келган мақол ва иборалар, Шарқшунослик. –Тошкент: ТошДШИ, 2011. №1.

17. Ҳамидов Х.Х., Мақол, матал ва иборалар эскирадимиз?, Ўзбекистонда филология илми ва таълими: Натижа ва истиқбол. Республика филолог-олимлари анжумани материаллари. III жилд – Самарқанд: 2016 йил 11-12 ноябрь.

18. Ҳамидов Х.Х., Бадий савия – таржима мезони (айрим янги таржималарнинг савияси хусусида), мақола, Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами, 3-қисм. – Тошкент: ТошДШИ, 2015.

19. Ҳамидов Х.Х., Она ва фарзанд мавзусидаги туркча мақол ва идиомаларнинг ўзбекча таржимада берилиши, Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. Илмий тўплам – 7. – Тошкент: ТошДШИ, 2016.

20. Ҳамидов Х.Х., Ўзбек ва турк тилларида “кил” сўзига асосланган иборалар ва уларнинг таржимаси масаласи, мақола, “Kitobxonlik madaniyati va badiiy tarjima mahorati”, Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand: 2017 yil 2-iyun.

21. Ҳамидов Х., “Ўткан кунлар” романи таржималарида мақолларнинг берилиши // “Ўзбекистонда хорижий тиллар”, электрон журнал, 2014 йил, 1-сон.

22. Ҳамидов Х. Бадий таржимада тилак, дуо ва қарғишларнинг берилиши, мақола, “Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги куни ва келажаги” – 2 (илмий мақолалар тўплами). Республика илмий-амалий анжумани материаллари. –Т.: ТошДШИ, 2014.

23. Ҳамидов Х.Х., Содда услубнинг таржимадаги мураккаб талқини (Исажон Султоннинг “Шамолли кеча” ҳикояси туркча таржимаси мисолида), мақола, “Тил, маданият, таржима ва мулоқот” Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2016 йил 16-17 ноябрь, 119-123-б.

24. Шабанов Ж.К., Ҳамидов Х.Х., Уй ҳайвонлари номига асосланган мақол ва ибораларнинг таржимада берилиши, мақола, Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами, 2-қисм. –Т.: ТошДШИ, 2014.

Rus tilidagi adabiyotlar:

1. Левий Иржи, “Искусство перевода”. –М., 1974.
2. Ҳамидов Х.Х., О некоторых особенностях турецких пословиц и их передача в русском языке//Маяк востока. –Т.: ТашГИВ, 2013. №1-2.
3. Чуковский К., “Высокое искусство”. – М.: “Советский писатель”, 1968.

Türk tilidagi adabiyotlar:

1. Abdurrahman Güzel, “Dede Korkut Hikayeleri Bağlamında Dua”. – İstanbul, 1982.
2. Akalın L.Sami, “Alkışlar kargışlar”, Kültür bakanlığı, Ankara, 1990.
3. Boratav P.N. “100 Soruda Türk Halk Edebiyatı”, Gerçek Yayınevi, İstanbul, 1982.
4. Carrel A., “Dua”, Yağmur Yay., 4. Basım. –İstanbul, 2001.
5. Ergin M., Dede Korkut Kitabı, 1. C., Ankara, 1997.
6. Ildırı Nursan, Özbek Hikâyeciliğinde Abdullah Kahhar, makale, Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi (Journal of Social Sciences) Sayı/Number 53, Aralık/December 2014.
7. Kaşgarlı Mahmud, Divan-u Lüğatit-Türk, çev.B.Atalay. –İstanbul, 1997.
8. Kemal Mağfiret. Buddhist Türkçe Eserlerdeki Deyimler Üzerine, makale, V.Uluslararası Türk Dili Kurultayı Bildirileri II. Ankara. 20-26 Eylül 2004
8. Marinier, “Dua Üzerine Düşünceler” (Psikofizyolojik Sebepleri ve Sonuçları). –İzmir, 1991.
9. Pala İskender, İki Dirhem Bir Çekirdek, Kapı Yayınları, Bütün Eserleri, 21. –İstanbul, 2010, 212 s.
10. Türkmen, Sayfullah, Atasözü ve Deyimlerde Yaşayan Kişi Adları, Dil Araştırmaları, Uluslararası Hakemli Dergi. –Ankara, Sayı: 4 Bahar, 2009.
11. Турк тилидан амалий машғулотлар учун матнлар (Türkçe Pratik Dersler İçin Metinler), тузувчи: Х. Ҳамидов, Тошкент, 2007.
12. Usmonova Sh., Hamidov H., Tarjima – asliyatga olib boruvchi yoʻldir (Soʻzboshi oʻrnida). “Bu qadimiy sanʼat” tarjima taktabi talabalari almanaxi -3. – Тошкент: ТошДШИ, 2016.
13. Yund, Kerim, Atasözlerinde Kişi Adları, Türk Yurdu, Cilt: 6, Sayı: 334, Ankara, 1967.

LUGʻATLAR:

1. Adıgüzel H. Deyim Hazinesi. Açıklamalı - Örnekli Türkçe Deyimler Sözlüğü. – İstanbul, 1990.
2. Aksoy, O.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, I-III, TDK Yayınları, Ankara, 1984.
3. Aksoy, O.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, 1. Atasözleri Sözlüğü. –İstanbul: İnkılap Yayınevi, 1994.
4. Aksoy, O.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, 2. Deyimler Sözlüğü, TDK Yayınları. –Ankara, 1994.

5. Albayrak, N., Ansiklopedik Halk Edebiyatı Terimleri Sözlüğü, LM Yayınları, İstanbul, 2004.
6. Баскаков А.Н., Турецко-русский словарь, Türkçe-Rusça Sözlük, Moskova, “Russkiy yazık” Yayınevi, 1977.
7. Большой турецко русский словарь, –М., ООО «Дом славянской книги», 2009.
8. Bölge Ağızlarında Atasözleri ve Deyimler, I-II. C., Ankara Üniversitesi Basımevi, Ankara, 1996.
9. Büyük Rusça-Türkçe Sözlük. –М.: «Russkiy yazık», Multilingual. –İstanbul, 1995.
10. Büyük Türkçe-Rusça Sözlük.–М.: «Russkiy yazık», 1977, Multilingual. –İstanbul, 1994.
11. Очилов Е. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ТошДШИ, 2014.
12. Özbek-Türk Atasözleri ve Deyimleri Sözlüğü, Doç. Dr. İbrahim Yoldaşev, Tuncay Öztürk, Yursel Öztürk. –Toshkent, 1998;
13. Пермьяков Г.Л., «Пословицы и поговорки народов Востока», Москва, 1979;
14. Содикова М Қискача ўзбекча-русча мақол-маталлар. Т.: Ўқитувчи, 1993.–76 б.
15. Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9. Baskı. –Ankara, 1998.
16. Фразеологический словарь русского языка, под ред. А.И. Молотова, Издательство «Энциклопедия», Москва, 1968.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –М.: “Рус тили”, 1981.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли: - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006.
19. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: “Ўқитувчи”, 1983.

MANBALAR:

O‘zbek tilidagi manbalar:

1. Азиз Несин. “Ҳуштак Афандим” (Ҳажвий ҳикоялар). -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015, 3-б.
2. “Бу қадимий санъат” таржима мактаби талабалари алманахи.- Тошкент, 2014, 99-105-бетлар.
3. Гунтекин Р.Н., Тўкилган япроқлар, роман, туркчадан Б.Шариф таржимаси, Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2013.

4. Гунтекин Р.Н., Муҳаббат симфонияси, роман, туркчадан М.Аъзам таржимаси, Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент, 2011.

5. Ёқубов Одил, Адолат манзили, роман. –Т.: 1996. – 168 б.

6. Рашидов Ш., Асарлар, Беш жилдлик, I жилд, Голиблар, роман. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. -328 б.

7. Сайфиддин Умар, Бадал. Ҳикоялар. Жаҳон адабиёти хазинасидан. –Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. -248 б.

8. Sayfiddin U., “Ko’richak”, hikoya, turkchadan H.Asatova tarjimasi, “Bu qadimiy san’at” tarjima maktabi talabalari almanaxi, Toshkent, ToshDSHI, 2015, 47-49-betlar.

9. Султон Исажон, Боғи эрам, Қисса ва ҳикоялар, “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти. –Тошкент, 2015.

10. Turk adabiyotining sara asarlari. 1-qism. Umar Sayfiddin (hikoyalar). – Т., 2017. – 132 б.

11. Турк тилидан амалий машғулотлар учун матнлар (Türkçe Pratik Dersler İçin Metinler), тузувчи: Х.Ҳамидов, Тошкент, 2007.

12. Қахҳор Абдулла, Қўшчинор: роман, Тошкент, 1947. –187 б.

13. Қахҳор Абдулла, Қўшчинор чироқлари: роман, Тошкент; Ўздавнашр, 1952. –278 б.

14. Қахҳор Абдулла; Асарлар: беш жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент; Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987.-366 б.

15. Қахҳор Абдулла; Ҳикоялар. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987.

16. Қодирий А., Ўтган кунлар. Тарихий роман. С. Азимов тахрири остида. – Т.: Ўздавнашр, 1958. -374 б.

17. G’afur G’ulom, Shum bola, qissa. –Toshkent, G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983 (ziyouz.com).

18. Hoshimov O’., “Dunyoning ishlari” –Т.: 2005. -208 б.

Turk tilidagi manbalar:

1. Aziz Nesin, Sizin Memlekette Eşek Yok mu, Aziz Nesin’in Aziz Nesinden seçtikleri, Derleme. -İstanbul, 2015.

2. Aziz Nesin, Bay Düdük, hikâyeler. mutlukitap@hotmail.com.

3. Baysal F., Sarduvan, Can Yayınları, İstanbul, 1993.

4. Güntekin R.N., Dudaktan Kalbe, mutlukitap@hotmail.com. "mailto:kitapsevenler@gmail.com"

5. Güntekin R.N., Yaprak Dökümü, mutlukitap@hotmail.com. "mailto:kitapsevenler@gmail.com"

6. Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayınevi. –İstanbul, Mart, 2014.
7. Kadiri A., Ötgen Künler (Geçmiş Günler), Roman, Türkiye Türkçesi Ahsen Batur, Selenge Yayınları. – İstanbul, 2005. – 403 s.
8. Kaşgarlı Mahmud, Divan-ı lügatit-Türk, çev. B.Atalay, İstanbul, 1997.
9. Kahhar A., Hikâyeler, Çeviren Filiz Demirci. –T, Mumtoz so‘z, 2010.
10. Pala İskender, İki Dirhem Bir Çekirdek, Kapı Yayınları, Bütün Eserleri, 21. –İstanbul, 2010, 212 s.
11. Seyfettin, Ömer, Bütün Eserleri, Hikâyeler 1. Dergâh Yayınları, İstanbul, Ocak 1999, S.10-11.
12. Sulton İsaJon, İrem Bağı, Seçme Hikâyeler, Baygenç Ajans Yayınları:29 (Güncel Sanat, Öykü Dizisi:5). –Antalya, 1.Baskı: Temmuz 2015.
13. Yakuboğlu Adil, Adalet Menzili, Türkçeye çeviren Ahsen Batur, Selenge Yayınları. –İstanbul, 2005. – 213 s.

Rus tilidagi manbalar:

1. Гафур Гулям, “Озорник”, повесть, перевод А.Наумова “Шарк”, Ташкент, 2016. (ziyouz.com).
2. Кадыри А., Минувшие дни. Роман / Пер. с узб. Л. Бат и В. Смирновой. – Ташкент: Гос. изд-во худ. лит, 1958. -373 с.
3. Кадыри А., Минувшие дни, роман / Пер. с узб. М.Сафарова, Главная редакция издательско-полиграфической акционерной компании “Шарк”, Ташкент, 2009. -432 с.
4. Каххар Абдулла, Избранные произведения в 3-х томах. Том третий. –Ташкент, Изд-во литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1974.
5. Каххар Абдулла, Огни Кошчинара, авторизованный перевод А.Садовского и С.Малашкина, "http://www.ziyouz.com" kutubxonasi, 268 с.
6. Рашидов Шараф, Победители, роман, авторизованный перевод с узбекского А.Удалова и Ю.Карасева. –Москва, 1974. 351 с.
7. Хашимов Уткир., “Дела земные”, повесть. –Т.: 1988.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. Maqol, matal va idiomalar tarjimasining dolzarb muammolari	10
1.1. Maqol, matal va idiomalarning tillardagi talqini va tarjima xususiyatlari	10
1.2. Maqol va iboralar obrazli asosining tarjimada saqlanishi	17
1.3. Maqol, matal va iboralar eskiradimi?	29
1.4. Badiiy saviya – tarjima mezonlari	36
II BOB. Turli mavzudagi maqol, matal va idiomalarni turkchadan o‘zbekchaga o‘g‘irish masalalari	43
2.1. Atoqli otlarga asoslangan maqol va iboralar tarjimasi xususida	43
2.2. Hayvon nomlariga asoslangan turkcha maqol va idiomalar tarjimasiga doir	52
2.3. Ona va farzand mavzusidagi turkcha maqol va idiomalarning tarjimada berilishi	56
2.4. Tarjimada tilak, duo va qarg‘ishlarni berish vositalari	60
2.5. O‘zbek va turk tillarida “qil” so‘ziga asoslangan iboralar tarjimasi xususida	68
III BOB. O‘zbekcha badiiy asarlardagi maqol va frazeologizmlarning turkcha va ruscha tarjimalarda berilishi	73
3.1. Abdulla Qahhor frazeologiyasi va uning tarjimada berilishi....	73
3.2. Sharof Rashidov frazeologiyasi va uning ruscha tarjimalarda qayta yaratilishi masalasi (“G‘oliblar” romani misolida)	87
3.3. Isajon Sulton hikoyalari turk tilida (frazeologizmlar tarjimasi misolida)	94
IV BOB. Turkcha badiiy asarlardagi maqol va frazeologizmlarning o‘zbekcha tarjimalarda berilishi	103
4.1. Umar Sayfiddin hikoyalari o‘zbek tilida	103
4.2. Aziz Nesin hikoyalaridagi iboralar tarjimada ifodalanishi	110
XULOSA	116
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	121

FOR AUTHOR USE ONLY

**More
Books!**

yes
I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop



info@omniscryptum.com
www.omniscryptum.com

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY